


# Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги



## Сотсиология фанидан

Маърузалар матни

Тузувчи: доц. Атажонова А., Қутлимуратов С



**1-Мавзу: Сотсиология фани predmeti, obhekti va ijtimoiy o'рни.**

**fanlar tizimidagi**

## **Reja:**

**1.Sotsiologiya fanining predmeti,obhekti.**

**2.Sotsiologiya fanining asosiy vazifalari.**

**3.Sotsiologiya fanining ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'рни.**

## **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi T., «SHarq» 1999
2. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi T., «O'zbekiston» 2000
3. Karimov I.A. Ozod vo obod Votan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz T., «O'zbekiston» 2000
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Oliy Majlis senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi ma'ruza. «Xalq so'zi» 2005 yil 29 yanvar.
5. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. «Xalq so'zi» 2006 yil 11 fevral.
6. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi halqni-halq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin, «Tafakkur». 1998. №5.
7. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» 2000. iyun.
8. Karimov I.A. Fan Vatan ravnaqiga xizmat etsin. T.2.T.,1996.
9. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. 2008.
10. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.2009.
5. Aliqoriev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya T., ToshDU. 1999 y.
6. Bekmuradov M. Sotsiologiya asoslari T., «Fan» 1994 y.
7. Bekmatov A. Sotsiologiyaga kirish, Andijon. 1995 y.
8. Xolbekov A. Ildirov U. Sotsiologiya Lug`at T., «Ibn Sino» 1999 y.
9. Bekmuradov M. Ota-Mirzaev O. Aliqoriev N. va boshqalar. Sotsiologiya T., 2000
10. E Giddens. Sotsiologiya.T., «SHarq», 2002.
11. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma.T., 2002.
12. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. UrDU 2003.

## **1.Sotsiologiya fanining predmeti,obhekti.**

Sotsiologiya fanini o'rganishga kirishgan har bir kishi bu fanning o'ziga xos so'zlari bilan atamalari, rivojlanish yo'nalishlari, bugungi ahvoli va istiqboli xususida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Sotsiologiya fanini mukammal o'rgangan kishi ijtimoiy jarayon va ijtimoiy jamoalar mohiyatini, ularda yuz berayotgan zoxiriy va botiniy o'zgarishlarni, shuningdek ijtimoiy taraqqiyot qonunlari mohiyatini chuqurroq tushunadi, ilmiy amaliyotga nazariy metodologik jihatdan qurollangan holda kirisha oladi, keng jamoatchilik fikrini shakllantirish va istiqlol yo'liga to'la safarbar etish amaliyoti sirlaridan voqif bo'ladi. Sotsiologiya tadqiqotlarini tashkil etish va amaliyoti mazmunini o'rganish jiddiy ilmiy ishga tayyorgarlik demakdir. Kishilar jamiyatda doimo ro'y beradigan xilma-xil ijtimoiy hodisalarning mohiyati va sababini tushunishga

asrlar davomida intilib kelganlar. Ko'pgina mutafakkir olimlar ijtimoiy munosabatlarning mohiyatini aniqlabgina qolmay, jamiyat taraqqiyotini boshqaruvchi kuch nimada, murakkab ijtimoiy voqealar va to'xtovsiz ro'y berayotgan o'zgarishlar tasodifiymi yoki ular muayyan obektiv qonunlarga asoslanganmi, degan savollarga javob topishga intilganlar.

Xullas, kishilik jamiyati nima, u qanday qonunlar asosida rivojlanadi, kishilar ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini o'rganib, ularni 'z foydalariga ishlatishlari mumkinmi va shunga o'xshash ko'pgina masalalar uzoq davrlardan beri inson tafakkurini o'ziga jalb qilib kelgan. Bunday savollarga to'g'ri va aniq javob beradigan fanning paydo bo'lishi tarixiy zaruriyat edi. Ilmning sistemalashtirilgan bu sohasi XIX asrning o'rtalariga kelib yaratildi.

“Sotsiologiya” so'zi lotincha “ (jamiyat) va grekcha “ (tahlimot tushuncha) so'zlaridan olingan bo'lib, jamiyatning paydo bo'lishi, amal qilishi, taraqqiyot hamda sotsial munosabatlar va sotsial birliklar haqidagi fan sifatida ta'riflanadi<sup>1</sup>.

“Sotsiologiya” termini birinchi marta XIX asr o'rtalarida yashagan frantsuz olimi O.Kont (1798-1857) tomonidan kiritilgan bo'lib, dastlab jamiyatshunoslik mahnosida ishlatilgan. O.Kont falsafasi ilmda “pozitivizm” nomini olgan. pozitivizm yo'nalishi, ayrim fanlar chiqargan umumiy qoidalarning oddiy yig'indisiga asoslanadi. Bu printsiptni O.Kont sotsiologiya faniga ham tadbiq qiladi.

SHunday qilib, O.Kont fikricha, sotsiologiya fanining vazifasi ijtimoiy hayotning ayrim fakt va jarayonlarini kuzatish, ularni bayon etish, sistemalashtirish bilan chegaralanadi. O.Kont asos solgan bu yo'nalish sotsiologiyada «pozitivizm yo'nalishi» deb ataladi.

“Sotsial” degan termin ikki xil mahnoda ishlatiladi:

1. Keng mahnoda sotsial jamiyatni ifodalaydi hamda ijtimoiy degan tushunchaga deyarli mos keladi.
2. Tor mahnoda esa bu tushuncha insonlar o'rtasida yuzaga keladigan turli xil aloqalarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

SHunday qilib, sotsiologiya-jamiyatning muayyan tarixiy tiplarining rivojlanish qonunlari va bu qonunlarning insonlar, sotsial guruhlar, sinflar, xalqlarning faoliyatida namoyon bo'lish va amal qilish mexanizmlari haqidagi fandır.

Har qanday fan singari sotsiologiya fani ham o'zining izlanish obyekti va o'rganish predmetiga egadir.

Ob'ekt-bu tadqiqotlar qaratilgan narsa (jamiyat).

predmet-bu o'rganilishi kerak bo'lgan muammo (insonlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlar).

Sotsiologiya fani murakkab tarkibiy tuzilishga egadir. Jamiyat hayoti sotsiologiya fani doirasida umumsotsiologik, maxsus sotsiologik va empirik sotsiologik tadqiqodlar asosida o'rganiladi.

Umumsotsiologik nazariyalarda, u yoki bu ijtimoiy hodisalarning kelib chiqishi, amal qilishining chuqur sabablari aniqlanadi va jamiyatni rivojlantiruvchi kuchlar nimalardan iborat ekanligi ko'rsatiladi.

Maxsus sotsiologik nazariyalar esa ijtimoiy hayotning alohida bir sohasini, ijtimoiy guruh yoki ijtimoiy institut muammolarini o'rganadi. Masalan: iqtisod sotsiologiyasi, shahar va qishloq sotsiologiyasi, madaniyat sotsiologiyasi, tahlim sotsiologiyasi, oila sotsiologiyasi, yoshlar sotsiologiyasi, bo'sh vaqt sotsiologiyasi va hokazo.

Empirik sotsiologik tadqiqotlar asosan anketalashtirish, og'zaki so'rov, kuzatish va

---

<sup>1</sup> Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. T.2002.21-bet.

boshqa ko'rishlarda amalga oshiriladi.

Umumsotsiologik va maxsus sotsiologik nazariyalar sotsiologiyaning nazariy qismini, empirik tadqiqotlar esa amaliy qismini tashkil etadi. Ular o'zaro dialektik aloqadorlikda bo'lib, yagona sotsiologiya fanini tashkil etadi.

SHunday qilib, nazariy va amaliy sotsiologiya bir-biridan tadqiqot ob'ekti yoki metodlari bilan emas, o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bilan farq qiladi. SHu bilan birga sotsiologlar o'z fani doirasida makro va mikro sotsiologik darajalarini ajratib ko'rsatadilar.

Makrosotsiologiya asosan yirik ijtimoiy tizimlar, hamda uzoq davom etadigan ijtimoiy tarixiy jarayonlarni o'rganish bilan shug'ulanadi (masalan, sinflar, ijtimoiy tartibotlar, shaharlar, dinlar va hokazo).

Mikrosotsiologiya darajasida esa kishilarning o'zaro kundalik shaxslararo munosabatlar tahlil etiladi (masalan, talabalar, rahbar-xodim, advokat-mulkdor va hokazo).

Sotsiologiya jamiyatni murakkab ijtimoiy organizm sifatida o'rganadi. Sotsiologiya jamiyatni mavjud tarkibiy tuzilmalari mohiyati ularning harakat tendentsiyalar va taraqqiyot qonunlarini sotsiologik tashkil etilgan tizimda tadqiq etadi. SHuningdek, sotsiologiya asosiy ehtiborni jamiyatni har-xil ijtimoiy va hududiy tizim bosqichlarida vujudga keladigan keng mahnodagi insonlararo munosabatlar va jamoatchilik fikrini o'rganishga qaratuvchi fandır.

Sotsiologiya fani jamiyatning turli sohalari iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, mahnaviy, axloqiy va boshqa tarmoqlarida tadqiqotlar tkazadi.

O'zbekiston sharoitiga moslab, zamonaviy sotsiologiyada biz quyidagi o'rganish ob'ektlarini ajratamiz:

I. Ijtimoiy bosqich: 1; Jamiyat; 2. Ijtimoiy qatlam; 3. Ijtimoiy guruh; 4. Mahalla; 5. Oila; 6. SHaxs.

II. Milliy bosqich: 1. Millat 2. Elat 3. Etnik guruh 4. Avlod; 5. Milliy oila; 6. Individ.

III. Tarmoqlar bosqichi: 1. Iqtisodiyot; 2. Siyosat; 3. Madaniyat 4. Fan. 5. Tahlim 6. Mahnaviyat va mahrifat; 7. Ekologiya va boshqalar.

IV. Hududiy bosqich: 1. Mintaqa 2. Mamlakat; 3. Viloyat 4. SHahar. 5. Tuman; 6. Qishloq 7. Mahalla.

Sotsiologiya fanida ijtimoiy mavqe, ijtimoiy rol, ijtimoiy norma tushunchalari mavjud. Ular orqali har qanday shaxs yoki ijtimoiy tashkilotning xususiyatlariga chizgi berish mumkin.

O'zbekistonda hozir yangi ijtimoiy siyosiy va mahnaviy iqlim shakllandi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o'zgarishlar kuzatilmoqda, sotsial tarkibda 'zgarishlar qayd qilinmoqda, yangi ijtimoiy institutlar va munosabatlar paydo bo'lmoqda. Mamlakatimizda sotsiologiyaning roli ortib boryapti. Sotsiologiya hech qanday t'siqsiz rivojlanish va mustaqil ijtimoiy fan sifatida o'zini anglash imkoniyati tug'ildi. Jamiyatimizda kuzatilayotgan ijtimoiy o'zgarishlar va jarayonlar sotsiologiya fanining diqqat markazida turibdi. Jamiyatimizda kuzatilayotgan murakkab jarayonlarni sotsiologik tahlilsiz to'g'ri tushunish mumkin emas. Demak, sotsiologiya ijtimoiy hayotning bir sohasi bilan chegaralanib qolmay, u inson mansub bo'lgan barcha guruhlar, qatlamlar, jamoalar, muassasalar, hamda odamlarning kundalik maishiy hayotlari masalalari bilan ham qiziqadi. Boshqacha qilib aytganda, sotsiologiyaning bosh maqsadi- bu inson va unga aloqador ijtimoiy tashkilotlarning hatti-harakatlarini

oqilona tarzda tushuntirishdir. Buning natijasida esa jamiyatda mavjud bo'lgan muammolar o'ziga xos yechimini topadi.

## **2. Sotsiologiya fanining asosiy vazifalari.**

Sotsiologiyaning jamiyat hayoti bilan ko'p tomonlama aloqalari hamda ularning ijtimoiy belgilanganligi birinchi navbatda shu fan bajaradigan funktsiyalar bilan bog'liqdir.

1. Ularning ichida eng ahamiyatlilaridan biri bilim to'plash funktsiyasidir. Bu funktsiya ijtimoiy rivojlanishning qonuniyatlari, turli sotsial hodisa va jarayonlarning o'zgarish tendentsiyasi haqida hamda sotsial tadqiqotlar o'tkazish metodlari va metodologiyasini mukammallashtirish bilan bog'liq yangi bilim yaratadi va nazariy sotsiologiyani yanada boyitadi.

2. Sotsiolog olimlarning turli xil sotsial hodisa va jarayonlarni boshqarish samarasini oshirish bilan bog'liq tavsiya va takliflar sotsiologiyaning amaliy funktsiyasini tashkil qiladi. Jamiyatni ilmiy asosda boshqarish sotsiologiyaning aynan amaliy funktsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

3. Bilim to'plash va amaliy funktsiyasi bilan bir qatorda sotsiologiya mafkuraviy funktsiyani ham bajaradi.

Bu funktsiya birinchi navbatda tarixiy jarayonni o'rganish, hamda jamiyat taraqqiyotining istiqbolini, yaqin kelajakdagi rivojlanish maqsadlarini belgilab berishga qaratilgan.

SHuningdek bu funktsiyaning mohiyati boshqa ilmiy va mafkuraviy kontseptsiyalar bilan munozara qilish, milliy mafkurani aholi orasida tarqatish orqali ham namoyon bo'ladi.

Sotsiologiya mustaqil ijtimoiy fan sifatida o'z metodologiyasi va nazariyasiga egadir. Sotsiologiya fani umuminsoniy va milliy qadriyatlar mutanosibligiga tayanuvchi metodologiya asosida ish yuritadi.

Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi mazmunini bir jihatdan xalqimizning tarixiy, mahnaviy qadriyatlari sanalmish "Qurhoni Karim", Hadisi Muborak, SHarqning ulug' allomalari Forobiy, Ibn Sino, Hazrati Bahovuddin Naqshbandiy, At-Termiziy, Imom Al-Buxoriy, Amir Temur, Mirzo Ulugbek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy va boshqa ulug' mutafakkirlar asarlarida ilgari surilgan fikrlari tashkil etsa, ikkinchi jihatdan, nazariy ildizlarini antik davr va progressiv G'arb falsafasining buyuk namoyondalari asarlarida ilgari surilgan tadrijiy taraqqiyot qonunlarini ifodalovchi umuminsoniy nazariyalar tashkil etadi. Ayni chog'da mazkur fan metodologiyasining muhim yo'nalishi sifatida inqilobiy dialektikadan tadrijiy taraqqiyot yo'liga tayanib ish yuritayotgan zamonamizning ulug' davlat arboblari qarashli fikrlar asos bo'lib xizmat qilmoqda.

## **3. Sotsiologiya fanining ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni.**

Sotsiologiya fani olamni anglash jarayonini chuqurroq o'zlashtirish maqsadida tarix, falsafa, psixologiya, etnografiya, sanhatshunoslik va jamiyatshunoslik fanlari bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritadi. Zero, har qanday amaliyotga murojaat, har bir ilmiy tahlil natijaviy mo'ljalni nazarda tutmog'i, obhektiv voqelik xususidagi bilimlarimizni kengaytirmog'i, ijtimoiy muammolarni hal etishga ko'maklashmog'i, taraqqiyot istiqbollari aniqroq belgilashga yordam bermog'i lozimdir.

Sotsiologiya fanining tobora taraqqiy etishi, ilmning differentsiallasuvi, ko'plab alohida va maxsus sotsiologik nazariyalarning tarkib topishga ham olib keladi. Masalan; siyosat sotsiologiyasi, iqtisod sotsiologiyasi, sanhat sotsiologiyasi va boshqalar shular jumlasidandir.

Sotsiologiya XIX asrning birinchi yarmida alohida fan sifatida shakllangunga qadar, falsafa fani ichida rivojlangan.

Sotsiologiya jamiyat hayotining turli jabhalarini tadqiq etish jarayonida, falsafa fani doirasida ishlab chiqilgan ilmiy bilishning asosiy shakl va usullaridan keng foydalanadi.

Sotsiologiya va falsafa fanlari o'zaro aloqasi xususida ulug' alloma Abu Nasr al-Forobiyning fikrlari ehtiborga loyiqdir. "Har bir falsafiy ilmni o'rganishga jazm qilgan kishi quyidagi talablarni to'la bajarmog'i lozimdir".

- birinchisi - falsafadagi mavjud maktablar nomlarini va mazmunini bilib olish;
- ikkinchisi – o'qilgan har bir kitobning maqsadini tushunib yetmoq;
- uchinchisi - falsafiy o'rganishga asos bo'luvchi ishlarni o'zlashtirmoq;
- to'rtinchisi - falsafani o'rganishdan maqsad nima ekanligini bilmoq;
- beshinchisi - falsafa sirlarini o'rganish borasida tanlangan yo'lni aniq bilib olmoq;
- oltinchisi - Aristotelning har bir kitobidan o'ziga xosligini aniqlay olmoq;
- ettinchisi - kitobdagi noaniqliklarni bartaraf etishni Aristotel asarlari orqali bilib olmoq;
- sakkizinchisi - falsafiy bilimlarga ega bo'lgan kishining jamiyatda tutishi lozim bo'lgan o'rnini bilmoq;

Sotsiologiya fani iqtisodiyot fani bilan aloqada bo'ladi. Mahlumki, iqtisodiyot fani ishlab chiqarish munosabatlarining shakl va qonuniyatlarini o'rganadi. Ishlab chiqarish shakllari esa ijtimoiy munosabatlarning asosini tashkil etadi. SHunday ekan, iqtisodiy izlanishlarning sotsiologiya fani bilan bog'liq bo'lishi tabiiy holdir. CHunki sotsiologiya fani mehnat jarayonlarining o'ziga xos tomonlarini, ishlab chiqarish jamoalarini, kishilarni samarali mehnatga qiziqish va mayllarini o'rganar ekan shubhasiz iqtisodiyot nazariyasini boyitadi.

Yahni jamiyatning bugungi kundagi muammolarini samarali hal qilish uchun, ularning kelib chiqish sabablarini chuqur o'rganish kerak bo'ladi. Buning uchun sotsiologlar, albatta o'tmishga murojat qiladilar.

Sotsiologiya fani umumiy psixologiya fani bilan ham yaqin hamkorlikda bo'lishni taqozo qiladi.

Zero, u yoki bu jamoadagi mehnat unumdorligini o'rganishni maqsad qilib sotsiologik tadqiqot o'tkazilayotganda mazkur jamoa tarkibidagi individlarning hatti-harakatlari motivlarini aniqlash, ularni temperamentlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda umumiy xulosa qilishda, odamlar bilan jamoada muomala qilishni tashkil etish va ijtimoiy huquqni boshqarishda, albatta ijtimoiy psixologiya qonuniyatlarini chetlab o'tishi mumkin emas.

Sotsiologiya fani statistika fani bilan ayniqsa yaqin aloqada rivojlanadi. Har bir sotsiolog muayyan mavzuda sotsiologik tadqiqot o'tkazishni maqsad qilib qo'yar ekan u albatta shu sohadagi predmetning konkret holatini, real voqelik manzarasini statistik manbalardangina topa oladi. Keng ko'lamdagi konkret sotsiologik tadqiqotlarning sotsiolog tomonidan statistik idoralar xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazilishi ijobiy samaralar berishi shubhasizdir.

So'nggi yillarda sotsiologiya fanida konkret sotsiologik tadqiqotlar amaliy natijalarining hayotga faolroq va ko'proq tadbiiq etila borishi uning axloq, estetika, tibbiyot va

pedagogika, rejalashtirish nazariyasi va boshqaruv, huquqshunoslik, ruhiyatshunoslik singari fanlar bilan aloqasini yanada mustahkamlamoqda. Sotsiologiya fani ushbu fanlar natijasiga suyanadi. Tadqiqot o'tkazish jarayonlarida esa statistik ma'lumotlardan, to'plangan ma'lumotlarni o'zlashtirishda matematik modellashtirish usullaridan va metodlaridan foydalaniladi.

Sotsiologiya fanining boshqa fanlar bilan yaqin aloqada ekanligi uni yangi tarmoqlari "boshqaruv sotsiologiyasi", «oila sotsiologiyasi», "jinoyatchilik sotsiologiyasi", "sotsial ekologiya" va hokazolarning jadal rivojlanish misolida ham ko'rish mumkin.

Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan ko'p tomonlama aloqalari, jamiyatdagi muammolarni samarali yechishda katta yordam beradi.

Sotsiologiya fani sohaviy tasnif etilganda turli yo'nalishlar mohiyatiga ega bo'lgan ilmiy tarmoqlarga bo'linadi.

Birinchi bosqichdagi ilmiy tarmoqlar tarkibiga umum nazariy, umummetodologik va sotsiologik fanlarini kiritish mumkin. Ular jumlasiga: akademik, matematik, tarixiy, amaliy va mintaqaviy sotsiologiya sohalari kiradi.

Ikkinchi bosqichdagi zamonaviy sotsiologik ilmiy tarmoqlar qatoriga shaxs sotsiologiyasi, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, demokratik, ekologik hamda institutsional sohalarni ko'rsatish mumkin.

Uchinchi bosqichdagi sotsiologik ilmiy tarmoqlar turli xil sohaviy hamda ilmiy sotsiologik yo'nalishlarni o'z ichiga oladi, ular quyidagilar: tahlil madaniyat, fan, din, sanhat va boshqa sotsiologik yo'nalishlar.

To'rtinchi bosqichdagi sotsiologik ilmiy tarmoqlar qatoriga regional va jamoaviy xususiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarni kiritish mumkin. Ular quyidagilar: yoshlar, oila, shahar va qishloq sotsiologiyasi.

Hozirgi zamon sotsiologik tarmoqlar tizimida jamoatchilik fikri sotsiologiyasi muhim o'rin tutadi va katta ahamiyatga egadir.

Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi ijtimoiy hayotdagi barcha sohalar va umumnazariy metodologik va xususiy sotsiologik maktablar bilan bevosita ish yuritadi.

SHunday qilib, murakkab umumiy va xususiy sotsiologiya fanlaridan iborat bo'lgan zamonaviy sotsiologiya tizimi uni ko'plab ijtimoiy gumanitar fanlar bilan keng aloqalarni taqozo etadi. Bu aloqalar ham umummetodologik bosqichda ham maxsus xususiy fanlar va ilmiy yo'nalishlar bo'yicha olib boriladi. Bu esa uni zamonaviy ijtimoiy gumanitar fanlar tizimidagi o'rnini aniqlab beradi.

Sotsiologiya ijtimoiy gumanitar fanlar ierarxiyasida eng yuqori bosqichni egallaydi. Falsafa va tarix bilan birgalikda, u ijtimoiy fanlar tizimining umummetodologik negizini shakllantiradi. Lekin shu bilan birga ushbu tizimda jamiyat rivojlanishi qonuni va qonuniyatlarini o'rganuvchi umumfundamental bo'lgan falsafaning alohida o'rnini tahkidlab o'tish zarur.

## **TAYANCH ATAMALAR.**

**Sotsiologiya** (lotincha-jamiyat, yunoncha tahlilot) yaxlit tizimi sifatidagi jamiyat va alohida ijtimoiy institutlar, ijtimoiy jarayonlarni o'rganuvchi fandır.

**Ogyust Kont** (1798-1857) - frantsuz faylasufi, sotsiologik pozitivizm maktabi asoschisi, birinchi bo'lib ilmga "sotsiologiya" atamasini kiritgan.

**Makrosotsiologiya** - (yunoncha-katta) - katta ijtimoiy guruhlar va tizimlardagi hodisa va jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan fandır.

**Mikrosotsiologiya** - (yunoncha kichkina) - nisbatan katta bo'lmagan ijtimoiy siyosiy tizimdagi hodisa va jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan yo'nalish.

**Sotsiologiya bosh maqsadi**-inson va unga aloqador ijtimoiy tashkilotlarning hatti-harakatlarining oqilona tarzda tushuntirishidir.

**Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi** - hozirgi zamon sotsiologik tarmoqlar tizimida muhim o'rin tutadi. Xalq fikri, xalq nuqtai nazari, yondashuvi deb tushunish mumkin.

## **2-MAVZU: ANTIK DAVR VA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING SOTSIOLOGIK QARASHLARI.**

### **Reja.**

**1.Antik dunyo sotsiologlari inson mavqei to'g'risida. Antik dunyoda jamiyat va shaxs omillari.**

**2.platon va Aristotelning antik dunyo falsafiy fikrlar taraqqiyotida tutgan o'rni.**

**3.SHarq xalqlariga xos jamoaviylik xususiyati talqini.**

**4.SHarq mutafakkirlarining ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy jamoalarga bergan bahosi.**

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi T., «SHarq» 1999
2. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi T., «O'zbekiston» 2000
3. Karimov I.A. Ozod vo obod Votan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz T., «O'zbekiston» 2000
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Oliy Majlis senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi ma'ruza. «Xalq so'zi» 2005 yil 29 yanvar.
5. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. «Xalq so'zi» 2006 yil 11 fevral.
6. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi halqni-halq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin, «Tafakkur». 1998. №5.
7. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» 2000. iyun.
8. Karimov I.A. Fan Vatan ravnaqiga xizmat etsin. T.2.T.,1996.
9. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. 2008.
10. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.2009.
- 13.Aliqoriev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya T., ToshDU. 1999 y.
- 14.Bekmuradov M. Sotsiologiya asoslari T., «Fan» 1994 y.
- 15.Bekmatov A. Sotsiologiyaga kirish, Andijon. 1995 y.
- 16.Xolbekov A. Idirrov U. Sotsiologiya Lug`at T., «Ibn Sino» 1999 y.
- 17.Bekmuradov M. Ota-Mirzaev O. Aliqoriev N. va boshqalar. Sotsiologiya T., 2000
- 18.E Giddens. Sotsiologiya.T., «SHarq», 2002.
- 19.Sotsiologiya. O'quv qo'llanma.T., 2002.
- 20.Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. UrDU 2003.



## **1. Antik dunyo sotsiologlari inson mavqei to'g'risida. Antik dunyoda jamiyat va shaxs omillari.**

"Sotsiologiya" atamasi O.Kont tomonidan ilmga nisbatan yaqinda kiritilgan bo'lishiga qaramay sotsiologik mazmunga ega bo'lgan qarashlar va kuzatishlar insoniyatning eng qadimgi davrlariga borib taqaladi.

Antik dunyo sotsiologiyasi, jahon sotsiologiya maktabining nazariy-mahnaviy poydevori va unga doimiy ilhom bag'ishlovchi bebaho obidasi hisoblanadi.

Antik dunyo sotsiologiyasining ilk namunalari Kichik Osiyoning g'arbiy sohillari Ioniya O'lkasi shaharlarida yashovchi greklar tomonidan dunyoga keltirildi. Antik dunyo sotsiologiyasining yuzaga kelishi hamda taraqqiyot tendentsiyalari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin.

1. Eng qadimgi grek sotsiologiya maktabi. Bu guruhga eramizdan oldingi XII asrda yashab ijod etgan Gomerdan boshlab eramizdan oldingi VI asrgacha ijod qilgan Milet (Kichik Osiyodagi eng yirik shahar) maktabi vakillari (Fales, Anaksimandr, Anaksimenes) hamda Gretsiyaning turli shaharlarida yashab faoliyat yuritgan Ksenofan, pifagorning sotsiologik qarashlarini kiritish mumkin<sup>1</sup>.

Eng kadimgi grek sotsiologiyasi mustaqil ijtimoiy nazariy tadqiqot predmeti sifatida emas, balki aniq tabiiy fanlar (matematika, tabiatshunoslik) bergan ilk tadqiqot natijalari bilan, ijtimoiy fanlar (Mifologiya, sanhat) borasida erishilgan tafakkur mahsullarining uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan.

Milet filosoflarining to'ng'ich vakili **FALES** ning fikricha, jamiyat va tabiatning asosi suv va suyuqlik tufayli ro'y beradi. Suv tufayli tarkib topgan hamma narsada jon mavjuddir. Falesning "hamma narsada jon bor" g'oyasi jamiyatga insoniy yondashuvning ilk kurtaklari shakllanishiga turtki bo'ldi.

Milet maktabining yana bir vakili **Anaksimenes** esa olamning asosini tashkil etuvchi dastlabki modda sifatida havoni ko'rsatadi. Uning fikricha, havoning tabiatda yig'ilishi va siqilishi natijasida suv, tuproq, tosh va olovdan iborat zaruriy qismlar yuzaga keladi. Havoni insonning amal qilish makoni hisoblanadi va havosiz qolgan paytda har qanday jism tarkibiy va mazmuniy o'zgarishga yuz tutadi.

Qadimgi grek sotsiologlari orasida (Somos shahrida tug'ilib, faoliyat yuritgan) **pifagor** alohida O'rin tutadi. Pifagor davrida turli arxaik diniy qarashlar O'rniga nisbatan umumiyroq mohiyat kasb etuvchi xudolarga sig'inish taomilga kira boshladi. Pifagor nuqtai nazariga ko'ra, olam abadiy bo'lib, insondagi ruh mahlum muddatdan so'ng boshqa narsalarga ko'chadi. Pifagorning tabiat va jamiyatdagi "jon"ning ko'chib yurishi g'oyasi hamda atrof-muhitdagi jamiki narsalarning birligi va qarindoshligi dunyoni O'zaro murosa muvozanatida saqlashga dahvat etuvchi sotsiologik qarashlar sifatida insoniyat tarixida muayyan rolga o'ynaydi.

2. Grek demokratiyasi ravnaqi davri sotsiologiyasi namoyondalari Geraklit, Parmenid, Zenon, Empedokl, Anaksagor, Protogor, Gorgiy va boshqalar hisoblanadi.

**Geraklit** fikricha, tabiatda hamma narsa birlamchi va u birlamchi narsaga albatta qaytadi. Bu birlamchi asos esa olovdur. Zero, olov tabiatdagi eng faol O'zgaruvchan hodisadir. **parmenid** va **Zenon** tomonidan Geraklitning bu fikrlari tanqid ostiga olindi. Ular dunyo O'zgaruvchan emas, aksincha O'zgarmasdir, degan g'oyani asoslashga urindilar.

Grek madaniyatining yirik nomoyondasi **Empedokl** ilm va mahrifatning ijtimoiy foydalilik funksiyasini asoslab berdi. U ilm olish bu befoyda mohiyatlar xususida bahs

<sup>1</sup> Социология. Нгув гьлланма. Т.2002.24-бет

yuritish emas, balki uni inson ongiga xizmat qildirishdan iborat, deb bildi. Uning fikricha, insonlarni birlashtiruvchi kuch- muhabbat (mehr, hurmat), ayni paytda ajratib yuboruvchi kuch-nafrat, hasad, johillikdir.

**Anaksagor** fikricha, insonning ilm mahrifatga intilishidan ko'zlangan bosh maqsadi- atrof-muhitni, koinot mohiyatini anglashdan iboratdir. U "ilm ilm uchun" degan aqida asosida ish tutadi.

2. Antik dunyo olamining "oltin davri" da ijod qilgan mutafakkirlar qatoriga Sakrat, Levkipp, Demokrit, platon, Aristotelgp va boshqalarni kiritish mumkin.

**Sokrat** ning sotsiologik qarashlarida tabiat va jamiyat jarayonlarida shunchalik ishtirok etish emas, balki unda qanday qilib yaxshi yashash, kamolatga erishish uchun sanhat sirlarini bilish zarurligi g'oyasi yetakchidir.

Sokrat fikricha, inson faoliyati yaxshilik, savob, oriyat, insof haqidagi tushunchalar mazmunidan iborat bo'lib, bu tushunchalarni shaxs qanday tushunishi katta ahamiyatga ega. SHunday ekan, inson faoliyatini yaxshilash uchun uning fehl-atvori va tarbiya to'g'risidagi qarashlari, tushunchalarini tartibga solish zarurdir.

## **2. platon va Aristotelning antik dunyo falsafiy fikrlar taraqqiyotida tutgan O'rni.**

Sokratning buyuk shogirdi **platon** ijtimoiy taraqqiyot va inson mavqei xususida bebaho fikrlar bayon etgan. platon "**Fileb**" nomli asarida insonning ezgulikdan iborat faoliyati quyidagi talablarni bajarish asnosida ro'y berishi aytiladi:

1. Ilohiy g'oya mohiyatini anglash;
2. Ilohiy g'oya talablarini hayotga singdirish;
3. Tafakkur va bilimlarga ega bo'lish;
4. Ilm va sanhatning biror turini egallash;
5. Toza, halol hissiyot vositalaridan (musiqa, tovush, tasviriy sanhat) zavq ola bilish.

platon ezgulikni anglash-xudoni anglash, ezgulik tabiatiga ega bo'lish esa xudo mohiyatiga tegishli bo'lish, uning uzviy bir qismiga aylanish, deb O'rgatadi. platon insonning ijtimoiy O'rnini belgilashda har bir kishi dastavval O'z davlatining fuqarosi bo'lishi lozim, deb tahkidlaydi. platon murakkab ijtimoiy siyosiy muhitda yashaganligi sababli ideal davlat tuzumini orzu qilgan. Bu ideal davlat quyidagi fazilatlariga ega bo'lishi lozim.

1. Donishmandlik;
2. Jasorat;
3. Har ishda oqilona mehyorni saqlay bilish;
4. Adolat.

platonning fikricha, davlat tuzumini uch xil strata (ijtimoiy tabaqa)- hukmdorlar va ishlab chiqarishda band bo'lgan mehnatkashlar donishmand boshqaruvchi guruh rahbarligida garmonik tuzumni tashkil etadilar.

platon akademiasining yetuk tolibi, jahon ijtimoiy tafakkur olamiga katta hissa qO'shgan mutafakkir **Aristotelgp** hisoblanadi.

Aristotelgp O'z davridagi mavjud stratifikatsion (ijtimoiy tabaqalashuv) tartiblarni qO'llab-quvvatlaydi. U komil inson, komil fuqaro, adolatli davlat xususidagi qarashlarni ilmiy asoslashga intildi.

Davlat boshqaruvida ishtirok etishga ishtiyoqmand va amaldorlik dahvosida bo'lganlar quyidagi sifatlarga ega bo'lishlari lozim, deydi Arastu: Mavjud davlat

tuzumini chin dildan sevishi, katta kuch va energiyaga ega bo'lishi, odamlarga xayrihox va adolatli bo'lishi, asosiy faoliyat mezonini deb odamlar manfaatini davlat manfaatlarini bilan uyg'un holda hal etish malakasiga ega bo'lishi lozim"<sup>1</sup>.

Har qanday mamlakatdagi ijtimoiy tartibsizliklar, inqirozlar va davlat to'ntarishlari ijtimoiy tenglikning buzilishidan kelib chiqadi.

Arastu fikricha, har bir shaxs nafaqat mavjud davlat tuzulishiga, balki O'z ijtimoiy tabaqasiga ham sodiq qolishi hamda O'z kasb-kori, xizmat sohasi doirasida kamolotga intilishi lozim.

Arastu davlat tuzilishini 6 xil ko'rinishda tasniflab, ulardan uchta (monarxiya, aristokratiya, politiya) to'g'ri va uchta (tiraniya, oligarxiya, demokratiya) ni noto'g'ri davlat tuzumlari, deb hisoblaydi.

Arastu antik dunyo sotsiologiyasi tarixining eng mazmundor davri bo'lgan grek sotsiologiyasi maktabiga mantiqiy yakun yasadi. Uning sotsiologik qarashlari dastlab qadimgi Rimdagi sotsiologiya maktabi vakillari (Tsitseron, Lekretsiy, Vergiliy, Goratsiy, Ovidiy) ga ilhom bag'ishladi, so'ngra O'rta asr SHarqining buyuk olimlari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushdlar dunyoqarashlariga O'z tahsirini ko'rsatdi.

### **3.SHarq xalqlariga xos jamoaviylik xususiyati talqini.**

SHarq xalqlarining hayotga bo'lgan sotsiologik qarashlari mohiyat ehtiboriga ko'ra G'arb sotsiologlarining ijtimoiy yondoshuvlaridan farq qiladi. Qadimgi SHarq kishisi uchun O'zlikni anglash, mahnaviy komillikka erishish, ozodlik tushunchasi moddiy borliqdan voz kechish, tashqi dunyo tashvishlarini inkor etish, O'zlikda sokinlik topishga intilish harakatlaridan iboratdir.

SHarq kishisi uchun individualizm halokat, jamoada uyg'unlashuv esa sokinlik va behavotirlik omili bo'lib kelgan. Jamoaviy xavfsizlikni tahminlash ehtiyoji SHarqda juda qadim davrlardayoq davlatchilik tizimlarini qaror toptirdi. Eramizdan oldingi 3 ming yillik O'rtalaridan boshlab Misr, Hindiston, Mesopotamiya, Xitoyda davlatchilikning mustahkam anhanalari yuzaga keldi.

Insoniyat tarixida ilk dafha xudo darajasida emas, alohida yetuk shaxslar sifatida Gomer, Muso, Konfutsiy, Zardusht, Budda singari shaxslar tarix sahnasiga chiqdilar.

Zardushtiylik dinining asosi bo'lgan «**Avesto**» eramizdan oldingi 7- asrda yaratilgan bo'lib, Avesto so'zi "Upasta", yahni qonun-qoidalar va mehyoriy asoslar mahnosini anglatadi. Avestoni **Zardusht Spitamalik purishasp O'g'li** yaratgan va hozir biz yashayotgan xududda yakka xudolikka asos solgan. U Ahuramazdani tabiat yaratuvchisi va boshqaruvchi sifatida talqin etadi. Ahuramazda "Oliy daholi hukmdor" degan mahnoni anglatib, odamlarni yovuz kuchlarga, ijtimoiy ahlokiy illatlarga qarshi kurashishga chorlagan. Ahuramazda jamiyat kuchlarini faollikka undovchi kuch sifatida ijtimoiy-mahnaviy taraqqiyotda dadil qO'yilgan qadam bo'ldi.

Avesto asarida ifodalangan monoteistik diniy falsafiy kategoriyalar va tushunchalar, dunyoni ramziy talqin etish usullari keyingi davrlarda insoniyat hayotiga kirib kelgan va takomillashgan konfessiyalarda mustahkam O'rin olib keldi. Undagi yetti iqlim, yetti qavat osmon, oxir zamon, farishta, shayton, dev, savob, gunoh, dunyodagi ikki qarama-qarshi kuchlar, ezgulik va jaholat, yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat tushunchalari shular jumlasidandir.

Yaxshilik va yomonlik O'rtasida kurash, ijtimoiy jarayonlarni konfliktologik yondashuv orqali hal etishga urinishlar mitroizm oqimi shaklida G'arbiy Yevropa va

<sup>1</sup> Аристотель. Сочинения. т-4. М. 1999. ст-53.

butun Rim imperiyasidan tortib Ahamoniylar, Kushon va Sosoniylarning buyuk imperiyalari amal qilgan davrda ham O'z tahsirini O'tkazib kelgan. SHarq sotsiologiyasi maktabida Xitoy mutafakkirlarining ijtimoiy qarashlari alohida O'rin tutadi. Eramizdan oldingi TSin va Xan davrlarida Xitoyda kuchli markazlashgan imperiyalar tarkib topdi. Bu davr uchun xarakterli hol shundan iboratki, imperiyagacha bo'lgan davrda amal qilgan "Ixtilofdagi hukmdorlar" tarqoq mafkuralarning Xitoyni buyuk davlat darajasida yuksalishiga xizmat qiluvchi yangi milliy g'oya bilan birlashuvi, yahni osmon obrazining ilohiy ramz sifatida qabul qilinishi bo'ldi. Xitoy va butun SHarq mamlakatlariga xos bo'lgan ramzlar ilohiyligiga ishonish esa kosmologiya g'oyasining qabul qilinishga turki bo'ldi. Bu rasmiy mafkuraning mohiyati tabiat va jamiyat jarayonlariga osmon fehl-atvoridan kelib chiqqan holda yondashish va baho berishga intilishdan iboratdir. Osmo-niy tabiat dastavval osmon farzandi imperatorga xos bo'lib, u jamiyatda kechuvchi ziddiyatlar, muammolarga ortiqcha aralashmaydi, bahzida esa ijtimoiy ziddiyatlar haddan oshgan kezlarda bamisoli osmoniy O't momaqaldir, yoxud dovul singari ana shu ixtilofiy hollarga keskin zarba berib turadi.

Xitoyda Konfutsiy ahloqiga binoan inson dunyo tartiboti tizimida favqulotda O'rin tutishi, umumiy dunyo taqdiri uchun mashullik hissining cheksizligi targ'ib etilsa, kosmologiya g'oyasida siyosat va kosmik ritm O'rtasida murosa O'rnatilishiga asoslanadi. Xitoy siyosati "inson O'zi nima" deb emas, "inson davlat uchun nima" degan savolga javob izlar edi.

Inson jamiyatda faqat O'z qobiliyatiga tayanib, qachon undan foydalanishlari muddatini kutib yashashga mahkum etilgan edi. SHu boisdan ham Xitoyda davlat jamiki jarayonlarni boshqaruvchi kuch sifatida jamiyatda har bir individning ijtimoiy mavqeini belgilab olish vazifasini O'tar edi.

Konfutsiy kishilarni jamiyatda egallab turgan O'rinlarini, ijtimoiy mavqelarini O'zgartirishlariga qarshi turgan. U insonlar O'z ijtimoiy mavqelarini O'zgashtirish yo'lida emas, balki shu mavqe mazmunini teran bilimlar bilan boyitishga chaqiradi.

Bilimlar kishiga nafaqat mahlumotli bo'lishi uchun, balki to'g'ri ish tutish uchun, oqil hatti-harakatlar qilish uchun ham kerakdir. Konfutsiy SHarq mutafakkirlariga xos xususiyatlarni namoyon etib, jamiyatda kishilar turli ijtimoiy tabaqalarda yashashlarini mahqullagan holda, bu tabaqalar O'rtasida doimo murosa, kelushuv bo'lishini, ziddiyatlarga aslo yo'l qO'ymaslik zarurligini uqtiradi. Konfutsiy ijtimoiy taraqqiyot davlatlararo va tabaqalararo kontsessus, yakdillik, hamfikrlilik amalga oshgandagina yuz berishiga qathiy ishonadi.

#### **4. SHarq mutafakkirlarining ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy jamoalarga bergan bahosi.**

Qadimgi SHarq falsafasi, uning teologik asoslari qadimgi Movarounnahr xududida yashovchi xalqlarning ijtimoiy jarayonlarga munosabatlari va fikrlash tarziga bevosita tahsirini ko'rsatgan. Xususan, O'zbek halki va uning boy mahnaviyatining shakllanishiga islom dinining kirib kelishi va unin xalq tomonidan qabul kilinishi O'zga hodisa bo'ldi, deb hisoblash mumkin. SHuni alohida tahkidlash lozimki, O'zbek xalqi Islom diniga O'z milliy xususiyatlari, urf-odatlar, turmush tarzi, anhanalari bilan kirib keldi. Bu esa qabul qilingan Islom teologiyasi nazariyasiga tegishli aniqliklar va tadrijiy O'zgartirishlar kiritilishini taqozo eta boshladi.

Movarounnahr jamoatchilik fikri tarixini O'rganishda Moturidiya maktabining asoschisi **Abu Mansur al- Moturidiy** asarlari muhim O'rin tutadi. Uning asarlarini

nafaqat dinshunoslik, balki jamiyat, jamoa, ijtimoiy jarayonlar va xususan shaxs haqidagi tahlimot sifatida yondashish, ularni Movarounnahr hududi hayot tarzi, mentalitetiga muvofiq keluvchi, ularni g'oyaviy, ehtiqlik yakdillikka undovchi yaxlit ilmiy sotsiologik kontseptsiya sifatida baholash va har tomonlama O'rganish maqsadga muvofiqdir. Ulgprix Rudolgpf shaxsning islom ehtikodi darajasidagi faoliyati, erkin fikrlash xuquqi va imkoniyatlarini atroflicha katta mavqega muvofiq keluvchi nazariya deb baholaganda, buyuk yurtimizning xarakterli qirralarini ochib berdi. Darhaqiqat, inson shaxsi va mavqei masalasi uni turli ijtimoiy-siyosiy, kerak bo'lsa, diniy tazyiqlardan himoya qiluvchi al-Moturidiyning murosaviy muvozanat kontseptsiyasini, islomni anglash jarayonlaridagi ijobiy jihatlar yig'indisigina emas, balki Movaraunnahrdagi real ijtimoiy-siyosiy muhit, xalq turmush tarzi, mentaliteti, boy madaniy-tarixiy tajribasi bilan boyitilgan insoniy yondashuvlar sintezi, deb, baholash maqsadga muvofiqdir.

Al-Motruidiy jabariylarning, insonning hamma amallari oldindan uning taqdiriga yozib qO'yilgan, shu boisdan u O'zi qilayotgan ishlarga mashul emas, degan nuqtai nazarini ham qadariylarning, Olloh inson faoliyatlari va amallarining himoyachisi emas, degan nuqtai nazarini ham asosli tanqid qilib, inson yaxshi va yomon amallarni O'z erkiga ko'ra tanlash va bu yo'lda Ollohning madadini olishi nazariyasini ilgari suradi. SHu asoslarda Al Moturidiy Movaraunnahr jamoatchilik fikrining mahnaviy asoslari kuchli insoniy mazmun bilan boyitilishiga katta hissa qO'shdi.

Xulosa sifatida Al Moturidiy Movarounnahr ijtimoiy fikriga ko'rsatgan tahsirini quyidagi yo'nalishlarda qayd etish mumkin.

a) Al Moturidiy Movarounnahrdagi jamoatchilik fikri shakllanishining O'ziga xosligini inobatga olib, umumiy fikrga kishilarni ongli tarzda ixtiyoriy ravishda birlashishga dahvat etgan. Bunday fikr birligi islomiy ehtiqodda ham, hayotiy-ahloqiy sohalarda ham, mafkuraviy siyosatda ham insonlarning yakdillikka erishishlarida namoyon bo'ladi.

b) Al Moturidiy Movarounnahr uchun xos bo'lgan mohiyatni aksariyat ramzlarda talqin etish xususiyatiga, bu borada chuqur ildiz otgan ijtimoiy maylga diqqatni jalb etadi. Insonning intellektual kamoloti shartli ramzlarga ko'chish darajasiga, O'zlikni nechog'liq majozlashuviga bog'liqligini bu esa O'z navbatida mohiyatni shunchalar teran anglash imkoniyatini berishni asoslab beradi;

v) Al Moturidiy Movaraunnahrdagi ijtimoiy muhit barqarorligi jamiyatdagi mahnaviy to'laqonlikni tahminlash, mavjud turmush tarzi, anhanalari, xalq marosimi va urf-odatlarini, milliy mentalitet, etnik va ruhiy intellektual O'ziga xosliklariga tayangan holda amalga oshuviga ishonadi. Zero, Abu Xanafiya mazhabining mohiyati ham islom tahlimotini real voqelik bazasida amal etishi, shu bazis negizidan yangi ehtiqod, ijtimoiy ong yo'nalishining shakllanishi va takomil topishini asoslaydi;

g) Al Moturidiy amalga oshadigan barcha sahy-harakatlar, qolaversa ana shu sahy-harakatlarning mahnaviy-ruhiy ifodasi sifatida namoyon bo'luvchi, hamda qayta faoliyatlar yuzaga kelishiga asos bo'luvchi jamiyatning umumiy ijtimoiy fikri ikki tomonlama tarzda ro'y berishini asoslab beradi. Yahni bir tomondan, har bir alohida shaxs taqdirining azaliy hukm asosida ruyobga chiqishi hamda amal etishi ehtirol etilgan holda har qanday xolatda ham shaxsning erkin tanlash imkoniyati saqlanib qolishini atroflicha asoslaydi. Bu nuqtai nazar, yahni ijtimoiy voqelikka erkin yondashuv va ixtiyoriylik nazariyasini jamiyat doirsidagi zo'rlik, zo'ravonlik hodisalari bilan O'zaro muvofiqlasha olmaslik g'oyasini Abu Rayxon Beruniy davom ettirgan edi. Uning "odamlarning kuchsizligi ham O'zidan zaif bo'lgan bironlarga egalik va raislik qilishdan holi emas" nuqtai nazari al-Moturidiyning inson ozodligi, Olloh oldida O'z taqdirini

yaratishda erkinligi g'oyasining uzviy va mantiqiy davomidir.

d) Al-Moturidiy Qurhoni Karimdagi din isbottalab dalillarga emas, balki, ehtiqod va insonga asoslanishi lozimligini har tomonlama tavsiflab, jamiyatdagi ijtimoiy fikr barqororligini ham tazyiq va kuch vositasida emas, balki O'zaro hamjihatlik, hamkorlik negizida amal qilishi g'oyasini ilgari suradi. Ulug' mutafakkir O'zi yashagan davrdagi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar, diniy ziddiyatlar, ehtiqodiy qarama-qarshiliklar muhitida oqilona O'rta mehyor, murosaviy muvozanat kontsepsiyani ishlab chiqqanligi va ana shu to'laqonli nazariy tahlilot vositasi Abu Hanifa tomonidan asoslangan sunniylik mazhabining Movaraunnahrda keng yoyilishiga hissa qO'shdi.

Movaraunnahrda tabiat va jamiyatni sotsiologik anglash va O'rganish ulug' mutafakkir **Al Forobiy** tomonidan jiddiy kengaytirildi. U al-Moturidiy tomonidan ilmiy-teologik jihatdan asoslangan inson erki nazariyasini yanada rivojlantirdi. U O'zining "**Fozil odamlar shahri**" asarida insondagi insonlik mohiyati O'zlikni anglashdan boshlanishini, fozil shaxs voqea va hodisalarning mohiyatini idrok eta bilishini, mohiyatga intilishi, insonga berilgan ruh aqlni rivojlantirishga, unga quvvat bag'ishlashga mashul ilohiy kuch ekanligini, aql esa inson tomonidan narsalarni mohiyatan tanlab firqlashga kO'mak berishini asoslab beradi.

Forobiy O'sha paytdayoq ijtimoiy fikrning ahamiyati katta ekanligini chuqur anglab, zamonaviy sotsiologiyada kO'p qo'llanuvchi ekstetlar, yahni uz davrining yetuk donishmandlari fikriga tayanib ish tutish zarurligiga urg'u beradi.

"Donishmandlarga ishonib ularga ergashuvchi odamlar O'sha narsalarni donishmandlar bilganday bilib oladilar. Zero, donishmandlarning bilimlari eng yaxshi bilimlardur"<sup>1</sup>.

Birinchi ming yillikning so'ngida (973 yil 4 sentyabr) tavallud topgan ulug' bobokalonimiz **Abu Rayxon Beruniy** ham sotsiologiya nazariyasini rivojlantirish ishiga ulkan hissa qO'shdi. Abu Rayxon Beruniy dunyoning sotsiologik manzarasi evolyutsion jarayon natijasida tarkib topganligini alohida qayd etadi. «Tuzilish va buzilish natijasida unsur bo'laklari bir-biriga kO'shilib, dunyo obod bo'lgan va olam tartibga tushgan»-<sup>1</sup> deydi u.

Ayni chog'da Beruniy olamni ijtimoiy taraqqiyotga olib keluvchi kuch ziddiyat va qarama-qarshiliklar emas balki, turli ijtimoiy darajalardagi murosa va kontsensensus ekanligini uqtiradi. "Qarama-qarshiligi ravshan ayon bo'lgan narsaga qanday ishonib bo'ladi", deb mutafakkir qarama-qarshiliklardan holi bo'lgan jarayonlarida O'zgarish extiyoji kuchayishiga ishora qiladi. Beruniy sotsiologiyadagi muhim soha ijtimoiy tabaqalashuv haqida fikr yuritib shunday deydi: Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning bir-birida turli xohishlarni ifodalash uchun (zarur) bo'lgan so'zlarga ehtiyojlar tug'ilishidir. Uzoq zamonlar O'tishi bilan haligi iboralar kuchayib, yodda saqlanishi va takrorlanishi natijasida tarkib topib tartibga tushgan. Ulug' mutafakkir **Abu Ali Ibn Sinoning** sotsiologik qarashlari O'zining ilmiy teranligi, voqehlikka xushyor baho berish xususiyati bilan ajralib turadi. Ibn Sino olamning barqaror amal qilishi jamiyat va tabiatning sinergetik, yahni O'z-O'zini iroda qilish, mustaqil boshqarish xususiyatining ishga tushishi va harakatlanishi bilan izohlanadi deb izohlaydi.

Ibn Sino Ollohning aqldan tashqari faoliyatlarga ham qobilligi g'oyasiga qarshi chiqib, Olloh faoliyati aqldan tashqari bo'lishi mumkin emasligi, yaratilgan narsalarning barchasi insoniy aql tomonidan idrok eta olishi kerakligini ham asoslab beradi.

<sup>1</sup> Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Т. 1993. 167-бет.

<sup>1</sup> Беруний А.Р. Танланган асарлар. 1-том. 1968. 51-бет

XI asrda yaratilgan turkiy xalqlar uchun muqaddas obida hisoblanuvchi kitob **Yusub Xos Hojibning "Qutadgu bilig"**

(**saodatga yo'lovchi bilim**) deb atalgan asari ham sotsiologik qarashlarga boydir. Bu kitob odob-ahloq, tahlim va tarbiya hamda mahnaviy kamolotning yo'l yo'riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini mujassamlashtirib, o'zida jam qilgan buyuk qomusiy asardir.

Yusuf Xos Hojib jamiyatning tom mahnodagi kamoloti faqat tahlim vositasida amalga oshadi, deb hisoblaydi. Dunyodagi barcha boyliklar muvaqqatdir, o'tkinchidir, sarflansa tugab bitadi, deb o'rgatadi ulug' mutafakkir.

Sotsiologiyaning donishmandlik talabi yukori bo'lgan fan ekanligi uchun ulug' ajdodlarimizdan jamiyatni bevosita o'rganishga doir vazmin umumlashmalarga, xulosaviy mushohadalarga boy asarlari ularning mahnaviy aqliy kamolotga erishgan yillarida, sermazmun umrlarining so'nggi davrlarida yaratilgandir. Masalan, Amir Temurning "Tuzuklari", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Alisher Navoiyning "Majolis un nafois, Mahbub ul qulub" asarlari shular jumlasidandir.

**Alisher Navoiyning "Mahbub ul qulub"** asarida bevosita o'z davridagi deyarli barcha ijtimoiy guruh va tabaqalarga tavsif beriladi va ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri insoniylikka, xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligi bayon etiladi.

A.Navoiy jamiyatning miqdor va sifat jihatidan ijtimoiy bo'linganligi umuman olganda ijobiy hodisa ekanligi, bu tavsiflanish doirasining qanchalik kengligi mamlakat farovonlik darajasini asoslab beradi. Ulug' mutafakkir jamiyatdagi yuzdan ortiq ijtimoiy tabaqa xususiyatlarini aniqlab, ularning mamlakat ijtimoiy tizimidagi O'rni va faoliyat imkoniyatlarini ravshan ifodalab beradi. Mazkur sotsiologik tasniflashdan maqsad, ularning ijtimoiy foydalilik darajalarini oshirish ekanligi asarning mazmunini tashkil etadi. Zero, jamiyatdagi tasnifning qanday ekanligini bilish ularning mazmunini yaxshilashga yo'l ochadi. SHu jihatdan, deb yozadi A.Navoiy, "hamsuxbatlarni va do'st yoronlarni bu hollardan ogoh va xabardor qilmok vojib ko'rindiki, toki ularda har toifaning hislati haqida bilimlar va har tabaqaning ahvoli haqida tushunchalari bo'lg'ay"<sup>1</sup>

### **Tayanch atamalar.**

**1. Antik davr sotsiologiyasi**-eramizdan avvalgi XII-IV asarlarda yashagan mutafakkirlarning jamiyat to'g'risidagi qarashlari. Antik dunyo sotsiologiyasining ilk namunalari Kichik Osiyoning g'arbiy sohili Ioniya O'lkasi shaharlarida vujudga kelgan.

**2. Antik dunyo olamining "oltin davri"**- insoniyatning buyuk daholari Sokrat, Levkipp, Demokrit, platon, Aristotellar yashab ijod qilgan davr.

**3. Ijtimoiy tenglik**- mazmuniga ko'ra 2 xil miqdor jihatdan va mavqe martabaga ko'ra fikrlanadi. Fuqarolarning iqtisodiy, siyosiy, mahnaviy jihatdan tengligi tushuniladi.

**4. Mitraizm oqimi**- yaxshilik va yomonlik O'rtasida kurash, ijtimoiy jarayonlarni konfimentologik yondashuv orqali hal etishga urinishlar. Bu G'arbiy Yevropa, butun Rim imperiyasi, Ahamoniylar, Kushon va Sosoniylar imperiyalarida tahsirli oqim bo'lgan.

**5. Jabariylar**-insonning hamma amallari oldindan uning taqdiriga yozib qO'yiladi, shuning uchun u O'zi qilayotgan ishlarga mahsul emas, degan g'oyani ilgari suruvchilar.

**6. Qadariylar**- Olloh inson faoliyatlari va amallarining himoyachisi emas, degan nuqtai nazarda turuvchilar guruhi.

**7. Moturidiya**- inson yaxshi va yomon amallari O'z erkiga ko'ra tanlash va bu yo'lda Ollohning madadini olishi nazariyasini ilgari suruvchi g'oya.

---

<sup>1</sup> Навоий А.Махбуб ул ӯулуб Т.1983.3-бет.

### **3- Mavzu: G'arbiy Yevropa sotsiologiya maktabi. XX asr sotsiologiyasi.**

**Reja.**

- 1. Sotsiologiyaning Yevropada fan sifatida vujudga kelishi.**
- 2. G.Spenser,L.Gumplovich,Z.Freydlarning sotsiologik qarashlari.**
- 3. XIX asr oxiri XX asr boshidagi klassik (mumtoz) sotsiologiya.**

#### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi T., «SHarq» 1999
2. Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi T., «O'zbekiston» 2000
3. Karimov I.A. Ozod vo obod Votan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz T., «O'zbekiston» 2000
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Oliy Majlis senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi ma'ruza. «Xalq so'zi» 2005 yil 29 yanvar.
5. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. «Xalq so'zi» 2006 yil 11 fevral.
6. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi halqni-halq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin, «Tafakkur». 1998. №5.
7. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» 2000. iyun.
8. Karimov I.A. Fan Vatan ravnaqiga xizmat etsin. T.2.T.,1996.
9. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. 2008.
10. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.2009.
11. Aliqoriev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya T., ToshDU. 1999 y.
12. Bekmuradov M. Sotsiologiya asoslari T., «Fan» 1994 y.
13. Bekmatov A. Sotsiologiyaga kirish, Andijon. 1995 y.
14. Xolbekov A. Idivov U. Sotsiologiya Lug'at T., «Ibn Sino» 1999 y.
15. Bekmuradov M. Ota-Mirzaev O. Aliqoriev N. va boshqalar. Sotsiologiya T., 2000
16. E Giddens. Sotsiologiya. T., «SHarq», 2002.
17. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. T., 2002.
18. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. UrDU 2003.

#### **1. Sotsiologiyaning Yevropada fan sifatida vujudga kelishi.**

Sotsiologiya tarixi - jamiyat to'g'risidagi tushunchalar va g'oyalarning tadrijiy shakllanganligi evolyutsiyasini ko'rsatib beruvchi fandır.

Sotsiologiyaning fan sifatida vujudga kelishiga doir tadrijiy bosqichlarni O'rganish bizni sotsiologik tafakkur qilish madaniyatiga, uning jamiyat foydasiga ishlata bilishlikka O'rgatadi. Ayniqsa, bu hozirgi vaqtda, O'zbekistonimizning mustaqilligi sharoitida, milliy istiqloq mafkurasini fuqarolar ongiga singdirishda muhimdir. Sotsiologiya tarixi ajdodlarimizning ruhiy qadriyatlarini to'g'risidagi inson va insonni O'rab turgan ijtimoiy



mavjudlik to'g'risidagi tafakkur tarzlari qanday bo'lganligini ravshan ko'rsatib beradi.

Qadim zamonlardan buyon jamiyatning mavjudligi va rivojlanishi to'g'risidagi bilimlar SHarq va G'arb mutafakkirlari umumfalsafiy g'oyalarining asosiy bilimi sifatida qaralgan. Jamiyat rivoji, siyosat, axloq, fan, din va sanhat muammolari to'g'risidagi ilmiy qarashlar Qadimgi Hindiston, Xitoy, Yunon faylasuflari O'rta Osiyo va Yevropa mutafakkirlari tomonidan aytib O'tilgan.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Yevropadagi sotsiologik dunyoqarash xarakteri va mazmuni mazkur jamiyatdagi ijtimoiy O'zgarishlar bilan izohlanadi. Jamiyatning iqtisodiy va siyosiy hayotida yangi shaklli tuzilmalar paydo bo'ldi. Eski bilimlar O'rnini yangi nazariyalar egallab, falsafiy bilimlarda yangicha yondashuvlar kuchaya boshladi. Xarakterli tomoni shundaki, sotsiologiya yangi pozitiv falsafa tamoyillarini asoslab beruvchi

fan sifatida maydonga chiqdi. Jamiyat tuzilishi to'g'risidagi mavjud falsafiy sholastik g'oyalar tanqidga uchrab, uning O'rniga tabiiy fanlar metodlariga mos keluvchi ijtimoiy tadqiqotlar taklif etila boshlandi.

pozitivizm va pozitiv sotsiologiya asoschisi **Ogyust Kont (1798-1857)** tomonidan yozilgan ishlar orasida 6 jildlik «pozitiv falsafa kursi» va 4 jildlik «pozitiv siyosat tizimi» muhim O'rin egallaydi.

Ijtimoiy fizika yoki sotsiologiya Kont fikricha, ijtimoiy statistik (jamiyatda turg'un bo'lgan tuzilmalar) va ijtimoiy dinamika (ijtimoiy O'zgaruvchanlik jarayoni) dan iborat.

Kontning tushuntirishicha, falsafa va sotsiologiyani pozitiv deb atashning sababi, ular fan mahlumotlariga emas, balki ilmiy kuzatuvlarga asoslanadi. pozitivizm da eng asosiy talab keraksiz tushunchalardan voz kechish hamda tabiiy-ilmiy qarashlarni isbotlovchi «pozitiv» (ijobiy) ijtimoiy nazariyani yaratishdir.

XIX asr Frantsiyasidagi mavjud siyosiy tushunmovchiliklar, iqtisodiy inqirozlar, ijtimoiy tabaqalashuv jamiyat taraqqiyotini inqilobiy emas, balki mahnaviy O'zgarishlar asosida amalga oshirishni qathiylashtirdi.

Kont tarixni harakatlantiruvchi KUCH insonning ongidir, deb hisoblaydi. Uning nuqtai nazariga qaraganda, teologik ruh, axloqiy va siyosiy g'oyalarni doimo hurmat qilish uchun zarurdir, yahni axloq va siyosat to'g'risidagi savollar diniy ong, diniy qadriyatlar asosida yechilgan.

Fan taraqqiyotining metafizik bosqichida jamiyatdagi asosiy boshqaruv mavqelarini faylasuflar egallab kelganlar. Bu bosqich 1300 yildan 1800 yilgacha bo'lgan davrni O'z ichiga oladi. Bu davr fanning empirik kuzatuv mahlumotlariga mavjudotlarning mohiyatini mavhum tavsiflashi bilan xarakterlanadi.

pozitiv bosqich 1800 yildan boshlanadi. Bu bosqich ilm fan va olimlarning ijtimoiy bilim va boshqaruv nazariyalarining ustuvor mavqeini kasb etuvchi bosqichdir.

Frantsuz olimining xizmati shundaki, sotsiologiya fani dasturlari va metodlarini ilmiy izlanishlar vositasi sifatida aniqlay oladi. Kontning fikriga ko'ra, sotsiologiyaning predmeti - bu ijtimoiy hodisalarning mohiyatidir. Sotsiologiya jamiyat to'g'risidagi tabiiy fanlar metodologiyasiga tayanishi kerak: olimlar kuzatuv, qiyoslash, tarixiy, genetik metodlarni qO'llay bilishi lozim. Ushbu metodlar ichida tarixiy va qiyosiy metodlar keng tarqalgan. Kuzatuv va eksperiment metodlari esa XX asrga kelib qo'llanila boshlandi.

Kontning jamiyat taraqqiyotini muvofiqlashtirish va uni barqarorlashtirish muammolariga bag'ishlangan fikrlari katta ahamiyatga ega. Uning fikricha, jamiyatdagi O'zaro moslik siyosiy, iqtisodiy, mahnaviy, biologik qonuniyatlarga bog'liq bo'lib, turli ijtimoiy tuzumlar birligi va ular O'rtasidagi muvofiqlik hisobiga erishiladi. Fan esa, jamiyatning hamma sohalari O'rtasidagi O'zaro munosabatlarning zaruriy mehyorlarini

belgilab beradi.

Kontning tahkidlashicha, jamiyatdagi ijtimoiy muvofiqlik - bu shaxslar va ijtimoiy qatlamlar manfaatlarining bir-biriga mosligidir. Kontning jamiyatni yaxlit organizm sifatida tushunishi, mehnatning ijtimoiy adolat asosida taqsimlanishi, ijtimoiy barqarorlik shartlari va omillari, turli guruh va qatlamlar manfaatlarini moslashtirishda davlat va shaxslarning O'zni to'g'risidagi fikrlari bugungi kunda ham muhimdir<sup>1</sup>.

Kontning qarashlarini ingliz olimi - **Gerbert Spenser (1820-1903)** asarlarida O'z rivojini topdi. Spenserning 1862 - 1896 yillarda chop etilgan «Asosiy manbalar» (1862), «Biologiyani yaratilishi (1864-67), «psixologiyani yaratilishi» (1870-72),» Sotsiologiyani yaratilishi» (1876-96), «Sotsiologiya tadqiqot predmeti sifatida», «Etikaning yaratilishi» (1870-73) kitoblari sotsiologiya tarixida muhim O'rin tutadi.

Spenser Kont izidan borib, sotsiologiya faniga O'zgarib turuvchanlik va «bir maromdagi» evolyutsionizm g'oyasini kiritdi. **Evolyutsiya** - bu oddiy narsa va kuchlarning oddiy ko'payishi yoki kamayishiga olib keluvchi, haqiqiy raqamni, sakrash va tanaffuslar ketma-ketligidan mahrum bo'lgan jarayondir. Spenser tahkidlashicha, istalgan tizimning amal qilish tarzi, ijtimoiy organizmning mehyoriy holati muvozanatidan iboratdir.

Spenserning fikriga ko'ra, istalgan ob'ektning evolyutsiyasi aloqasizlikdan aloqadorlikka, bir toifalikdan har xil toifalikka, noaniqlikdan aniqlikka bo'lgan davrni O'z ichiga oladi. Muvozanatning buzilishi asnosida yangi evolyutsion jarayonga O'tuvchi inqiroz boshlanadi. Hamma voqea va hodisalar mana shu inqiroz va taraqqiyot tsikli orqali yuz beradi.

Ana shulardan kelib chiqqan holda Spenser sinfiy kurash va revolyutsiyani muvozanatdan og'ish yoki ijtimoiy organizmning kasalligi, deb ehlon qildi. Spenser fikri bo'yicha, sotsiologiyani yaratilishi — bu alohida shaxslarning hoxish va intilishlari, ularning individual jihatlari va sub'ektiv fikr O'ylariga qaramasdan amalga oshuvchi evolyutsion jarayonlarning umumiy qonuniyatlarini ochib beruvchi, ijtimoiy mavjudlikdir, omillarni O'rganishdan iboratdir.

Spenser sotsiologiyani yaratilishi muhim ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini his etgan holda ijtimoiy bilimning ob'ektiv murakkabliklarini alohida qayd etadi. Sotsiologik dalillarni, ko'plab ma'lumotlarni O'zaro qiyoslash yo'li bilan O'rganish mumkin. Spenser uchun ijtimoiy dalillar - bu evolyutsion jarayonlar namoyon qiladigan mavjudliklardir<sup>1</sup>.

Spenser XIX asr sotsiologlari ichida birinchi bo'lib ijtimoiy tizim, ijtimoiy institut, ijtimoiy nazorat terminlarini kiritdi. Ijtimoiy institutlar insonni jamoaviy harakatga kirishga oladigan ijtimoiy mavjudotga aylanishini tahminlaydi.

Spenser ijtimoiy taraqqiyot tahsiri ostida institutlarni bir necha turga bo'ladi:

-oila evolyutsiyasi bosqichlarini ishlab chiquvchi institutlar;

-oilaviy munosabatlar O'zgarishini tadqiq etuvchi institutlar;

-urf-odat, anhana, axloq orqali insonlarning kundalik harakatini boshqarishga yo'naltirilgan institutlar;

-jamiyat hamjihatligi va ehtiqlik birligiga tahsir etuvchi diniy institutlar;

-mehnat taqsimlanishi asosida kelib chiquvchi kasb- hunar institutlari.

Spenser jamiyat evolyutsiyasining ikki qutbi deb, jamiyat tuzilishining harbiy va ishlab chiqarish bilan bog'liq tiplarini tan olgan. Chunki, evolyutsiya birinchidan ikkinchisiga O'tish yo'nalishida kechmoqda.

<sup>1</sup> Комаров М.С Введение в социологию М. «Наука» 1994.ст-36.

<sup>1</sup> История социологии.М.Высшая школа.1998.ст-52.

G'arb sotsiologlaridan birinchi bo'lib, G.Spenserning ijtimoiy jarayon va borliq haqidagi g'oyalarini O'rganishga polgpshalik sotsiolog va yurist **Lyudvig Gumplovich** kirishgan edi.

Gumplovich sotsiologiya tamoyilini tushuntirish omili sifatida Spenser tomonidan asoslangan biologik tushunchalarga qarshi chiqdi. Uning tahkidlashicha, sotsiologiyada biologik tushunchalar hech qanday ahamiyatga ega emas, ular faqatgina qiyoslash uchungina xizmat qilishi mumkin, ijtimoiy voqelik xususida esa bilim bera olmaydi.

Gumplovich sotsiologiya obhetti sifatida ijtimoiy guruhlarini olib, voqelikni O'rganishga bag'ishlangan tadqiqot predmeti sifatida, abadiy va O'zgarmas qonunlarga bO'ysunuvchi ijtimoiy guruhlar harakati tizimini qabul qilishni taklif etadi.

Avstriyalik psixolog va sotsiolog **Zigmund Freyd** fanda psixologik nazariyani ishlab chiqish bilan ijtimoiy jarayonlarni anglashning ilgari insoniyat tajribasida 60'lmagan yo'lini asoslab berdi. Uning tahkidlashicha, inson ruhiyatining ong bilan boshqarilmaydigan qismida instriktiv dahvatlar (hohish-istaklar) hamda xotiradan chiqarilgan fikr g'oyalar mujassamlangan bo'lib, bu qism bilan idora etilishi ong O'rtasida ong oldi maydoni (bu maydonchada idrok, tafakkur, xotira, anglangan O'zlik) joylashgandir.

Ong oldi maydonchasi boshqarilmaydigan sohadagi turli xil dahvatlar, hohish istaklarni ongning idrok etiluvchi qismiga O'tkazishga monelik qilib turadi va O'ziga xos tsenzor vazifasini O'tab boradi. Freydning nuqtai nazariga ko'ra, anglanmagan istaklar hamda progressiv dahvatlar bilan shaxsning madaniy darajasi O'rtasida doimiy qarama-qarshilik yuz berib turadi. Madaniyat, uning fikricha, anglanmagan ong istaklaridan voz kechish asosida yuzaga keladi.

Freyd ijtimoiy jarayonlar va jamoalar mohiyatini ochishda ham **libido** (xohish, istak, rohatbaxsh narsalarga moyillik) to'g'risidagi tahlilotni yoqlab chiqdi. U ijtimoiy guruhlardagi liderlarning O'rnini tadqiq etib, odamlar muayyan raxbarlar atrofida hissiy mayllar, emotsional xohish-istaklar negizida uyushadilar, deb hisoblaydi.

Freyd din va diniy ehtiqodlarni jamoada kuzatiladigan nevrozdan boshqa narsa emas, deb hisoblaydi. CHunki inson ongi O'zidan oldingi ajdodlar boshidan O'tkazgan tarixiy voqealarni ramzlar orqali ifodalab beradi.

Nevrozlarga xos beriluvchanlik va tahsirlanuvchanlik asosida odamlarning turli diniy rasm-rusumlarga amal qilishlari, ularning mohiyatini chuqur anglab yetmasliklari Freyd tomonidan dinni «kollektiv nevroz» deb atashga asos bo'lgan.

Umuman olganda, Freyd nazaricha insonni O'z – O'zini ongli idora qilish, har bir mehyorga qathiy rioya qilish, aql va instinkt bahsida to'g'ri yo'l tanlashga undashi bilan O'zining ijtimoiy qimmatini yO'qotmagan.

### 3. **XIX asr oxiri va XX asr boshidagi klassik (mumtoz) sotsiologiya.**

XIX asr sotsiologik nazariyalari rivoji sotsiologiyaning hamma tan olgan universal ijtimoiy fanga aylanishiga sharoit yaratib berdi. Bu imkoniyatlarning yaratilishi V. poreto, F. Tyonnis, E. Dyurkgeym, M. Veber, p. Sorokin va boshqa sotsiologlar ijodi bilan bog'liq.

XX asr boshlaridagi Italiyaning eng ko'zga ko'ringan nazariyotchisi **Vilgpfredo poreto (1848-1923)** edi. Uning asosiy ishi hisoblanmish «Umumiy sotsiologiya tartibi» keyinchalik G'arb sotsiologiyasining klassik ijodi namunasi, deb tan olingan.

poreto haqiqiylik, ishonchlilik va ilmiy-empirik tuzilishi jarayonlarini ishlab chiqishga intilgan. Umuman, u ijtimoiy fanlarning barchasi pozitivizm g'oyalariga tayanadi, deb,

sotsiologiyani huquq, iqtisod, din tarixi va boshqa ijtimoiy fanlarning sintezi, deb hisoblar edi.

poreto tomonidan ishlab chiqilgan pozitiv yondashuv kontsepsiyasi O'zining mohiyatiga ko'ra metodologik xususiyatga ega bo'lib, bitta maqsadga, yahni ijtimoiy nazariy tadqiqotlarni mafkuraviy mohiyatdan ozod qilishga qaratilgan edi.

poretoning sotsiologik tizimida elitalar nazariyasi muhim O'rin tutadi. Jamiyatning sotsiologik tuzilishini u ikkita katta guruhga bo'ladi: O'qimishli odamlardan iborat elita hamda hissiyotlar va ikkilanishlar bilan yashovchi boshqariladigan omma-quyi qatlam.

**poreto fikri bo'yicha, siyosiy jarayon elitaniig xoqimiyat tepasiga kelishi bilan shartlangan bo'lib, ulardan bittasi jamiyatni boshqariluvchilik imkoniyatlarini yuqotsa, uning O'rnini boshqasi egallaydi. poretoning aytishicha, elitaning O'rin almashish tartiboti istalgan jamiyatning universal qonuniyatlaridan hisoblanadi. Siyosiy elitalarining yashash imkoniyatlariga, ijtimoiy boshqarish huquqini beruvchi siyosiy tuzumga, jamiyatning nechog'li ochiqligiga bog'liqdir. Boshqaruvchi sinf jamiyatning vertikal moyilligiga tayanib, O'zini jamiyatdagi buzilishlar-degradatsiyadan saqlagan holda, inqiloblarning oldini oladi va doimiy ravishda yangilanib boradi.**

XIX asr oxirlarida sotsiologiyadagi pozitiv oqimlar ijtimoiy hayotni tushuntirishda qiyinchiliklarga uchray boshladi. Jamiyatdagi ijtimoiy borliqni bilishda tabiiylik - naturalizm tamoyillari va tabiiy - ilmiy metodlarni qO'llashni man qilishga intilishlar kuchayib ketdi.

pozitiv sotsiologiyaga qarama-qarshi O'larok antipozitivistik yo'nalishdagi sotsiologiya ko'proq Germaniyada keng tarqaldi. Sotsiologiyaning rasmiy maktabi namoyondalariga V. Dilgptey, G. Zimmelgp, F. Tennis kiradi.

KO'zga ko'ringan nemis faylasufi, psixolog va sotsiolog **V.Dilgptey (1833-1911)** fikriga ko'ra, tabiiy fanlar tabiiy jarayonlarning borishi hamda uning inson holatiga qanday tahsir qilishini kuzatib boradi, ijtimoiy gumanitar fanlar esa insonning erkin faoliyati, jamoaviy ishlarini O'rganadi.

U asosiy ehtiborni ruh to'g'risidagi fan nazariy muammolarini ishlab chiqishga qaratdi. Bu yo'nalishda Dilgptey ilmiy faoliyatining natijalaridan biri «tushunuvchi psixologiya» va «tushunuvchi sotsiologiya» ning yaratilishidir. Uning tahkidlashicha, «tushunish» sotsiologiyasining asosiy vazifasi, odamlarning O'tgan davr odamlari hayotini his qilish va shu orqali hayotlar mobaynida hali amalga oshirilmagan faoliyatlar qirralarini topishdan iborat.

Dilgpteyning falsafiy va sotsiologik ijodi mahsuli bo'lgan ijtimoiy mavjudliklar, jarayonlarni bilish, ularni tushunish imkoniyatlari, vazifalari va maqsadlari to'g'risidagi qarashlari keyingi davr sotsiologlari uchun tadqiqot manbai sifatida xizmat qildi.

#### **Nemis sotsiologiya jamiyatning birinchi prezidenti Fredinant Tyonnisni sotsiologiyaning formal - analitik maktabi asoschilaridan biri deyish mumkin.**

Tennisning nazariy sotsiologiyasi asosini qarama - qarshi mohiyatga ega ikkita yechimli - «jamo» va «jamiyat» tashkil qiladi. Tennis fikricha, tarixiy jarayon qarama – qarshi-qarashlardagi odamlarning - jamoa va jamiyatdagi birgalikdagi hayotidan iboratdir.

Bu ikkita qarama - qarshi ijtimoiy aloqalarning asosiy manbai sifatida inson erki maydonga chiqadi. «Jamo» ga insonlar O'zlarining tabiiy erklari asosida, «jamiyat» ga esa ratsional erk asosida birlashadilar.

«Jamo»dagi insonlararo munosabatlar tabiiyligi, osoyishtaligi va maromiyligi bilan ajralib turadi. «Jamo» ning bu jihatlari oilaviy - qarindoshchilik munosabatlarida, qO'shnichilik va dO'stlik munosabatlarida, urf-odat, anhana va din orqali amalga oshadi.

«Jamiyat» turidagi munosabatlar turli ko'rinishdagi shartnomalar, savdo munosabatlari va boshqa holatlarda namoyon bo'ladi. Jamiyatdagi aloqalar faqatgina odamlar orasidagi munosabat emas, balki turli guruhlar va tashkilotlar O'rtasidagi munosabatlar hamdir.

Sotsiologiya tarixida **Georg Zimmelgp (1858-1918)** g'oyalarining M. Veber va E. Dyurkgeym g'oyalari kabi XX asr sotsiologiyasi rivojida O'ziga xos O'rni bor. Zimmelgp, O'zining falsafiy va sotsiologik ijodini ijtimoiy munosabatlar tipologiyasini, analitik va formal sotsiologiyani rivojlantiruvchi anhanalar tahliliga bag'ishlanadi.

Agar Zimmelgp tomonidan asoslangan ijtimoiy hayot shakllarini klassifikatsiya qilishga urinsak, unda ularni quyidagicha ajratish mumkin:

1) ijtimoiy jarayon; 2) ijtimoiy tur; 3) rivojlanish modeli.

Zimmelgp shaharlar demografiyasi, din va ehtiқodlar, bilish va boshqalarni sotsiologik tahlil qilish uchun kO'pgina qimmatli g'oyalarni ilgari surdi. Zimmelning g'oyalari zamonaviy sotsiologiyadagi madaniy tanqidiy anhanalarning shakllanishiga kuchli taъsir ko'rsatdi.

Frantsuz sotsiologi **E. Dyurkgeym (1858-19171)** ham Kontga O'xshab sotsiologiya tabiiy fan metodlari asosida ish tutish kerak, deb hisoblaydi. U ijtimoiy faktlar tarkibiga jamoaviy qarashlar, axloqiy hayotning har xil mavjudliklari, anhanalar, urf-odatlar, rasm-rusumlarini kiritgan. Dyurkgeymning fikricha, «ijtimoiy haqiqatga obhektiv yondashishni tahminlab beruvchi asosiy qoida ijtimoiy faktlarga narsa sifatida qaralishidir».

Dyurkgeym qarashlari asosini «sotsiologizm» g'oyasi tashkil etadi. Frantsuz sotsiologi odamlararo ishonchning muhimligini tahkidlab, kishilar yagona umumiy g'oya atrofida birlashishlari lozimligini eъtirof etadi.

E.Dyurkgeymning «ijtimoiy mehnatning taqsimlanishi to'g'risida» deb nomlangan asosiy ishi bevosita «hamjihatlik» muammosini O'rganishga bag'ishlangan. U sotsiologiyaning asosiy vazifasi ijtimoiy integratsiyani tahminlovchi ijtimoiy aloqa va mexanizmlar tabiatini aniqlashdir, deb biladi. Dyurkgeym jamiyat evolyutsiyasini O'rganib, ijtimoiy aloqalarning ikki asosiy turini ajratadi: «mexanik hamjihatlik» va «organik hamjihatlik».

Birinchi turida arxaik jamiyat alohida individlarni O'ziga butunlay buysundirmoqchi bo'ladi. Bunda ijtimoiy hamjihatlik inson axloqini qattiq nazorat qiluvchi diniy ishonch, urf-odat, anhanalar orqali ijtimoiy ongga singdiriladi. Organik hamjihatlik bo'lgan zamonaviy ijtimoiy aloqalarda umuman boshqa narsa kuzatiladi. Bu yerda ijtimoiy birlashuv individlarning iqtisodiy O'zaro aloqalari va mehnat taqsimoti orqali tahminlanadi. Dyurkgeym nuqtai nazaricha, XIX asr kapitalizmga xos ziddiyatlar mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi va turli ijtimoiy salbiy oqibatlar bartaraf etilgan taqdirda O'z-O'zidan hal bo'ladi.

Buyuk nemis mutafakkiri **M. Veber** tomonidan ilgari surilgan bilimlar, g'oyalar, metodologik yondashuv, bilish nazariyasi, ideal tiplar g'oyasi, madaniyat, etika, din sotsiologiyasi haqidagi qarashlari ilmiy jamoatchilik tomonidan eъtirof etilgan. Uning fikricha, sotsiologiya ijtimoiy tarixiy faoliyatlarning subhektiv sohalarini hisobga olish, voqelikni ilmiy metodologiya talablariga mos ravishda obhektiv va empirik jihatdan tadqiq etish imkoniyatlarini yuzaga chiqarish mumkin. Sotsiologiya, Veber tahkidlashicha, ijtimoiy fanlar orasida shunday O'rin tutishi lozimki, uning asosiy vazifasi – insonning ijtimoiy hulqi mohiyati va ahamiyatini tushunish, jamiyat rivojiga sabab bo'lgan qonunlar yechimini ko'rsatib berishdan iborat bo'ladi. Inson hulqini talqin qilish metodiga Maks Veber tomonidan qanchalik katta ahamiyat berilganligiga qarab uning sotsiologiyasini kO'pincha tushunuvchi yoki «interpretativ» sotsiologiya deb ham

atashadi.

M. Veber ijtimoiy harakatlar yoki xulqning 4 ta asosiy turini ajratadi:

- 1) mablag' topishni maqsad qilgan harakatlar - oqilona (ratsional) maqsadli;
- 2) muayyan qadriyatlar tahsirida (diniy, axloqiy va boshqa) sodir etiluvchi harakatlar - oqilona (ratsional);
- 3) odamlarning immutsional reaksiyasiga asoslangan affektiv harakatlar;
- 4) anhana va urf - odatlarga qaratilgan anhanaviy harakatlar.

Veber siyosiy sotsiologiya rivojiga katta hissa qO'shgan. O'zining ijtimoiy harakat nazariyasiga tayangan holda, u hukmronlikning 3 turini: dohiyning affektiv harakatiga ko'r-ko'rona ishonchiga asoslangan xarizmatik, anhanaviy hamda maqsadga yo'naltirilgan ratsional turlarini tadqiq etadi. U Yevropa kapitalizmi sharoitida hukmron bo'lgan ratsional – byurokratik (rasmiy - huquqiy) davlat modelining jamiyatga kuchsiz tahsirini haqqoniy tarzda ko'rsatgan. Veber bu holatdan chiqib ketish yo'lini byurokratik davlat apparatini xalq ommasi ehtiyojlariga yo'naltira oladigan, umumxalq saylovi orqali saylanadigan siyosiy lider (prezident) ni joriy etish imkoniyatlarini beruvchi demokratiyaning rivojida ko'rgan.

### **Tayanch atamalar.**

1. **Kont Ogyustgp (1798-1857)** - pozitivizm va pozitiv sotsiologiya asoschisi. «pozitiv falsafa kursi» (6 tom), «pozitiv siyosat tizimi» (4 tom) asarlarini yozgan.
2. **Ijtimoiy statistika** - jamiyatda turg'un bo'lgan tuzilmalar.
3. **Ijtimoiy dinamika** - ijtimoiy O'zgaruvchanlik jarayoni.
4. **Gerbert Spenser (1820-1903)** - ingliz olimi. «Asosiy manbalar» (1862), «Biologiyaning yaratilishi» (1864-67), «psixologiyaning yaratilishi» (1870-72), «Sotsiologiyaning yaratilishi» (1876-96), «Etikaning yaratilishi» (1870-73) kitoblarini yozgan.
5. **Lyudvig Gumplovich** - polyak olimi. Ijtimoiy jarayon va borliq haqidagi Spenserning g'oyalarini O'rgangan.
6. **Zigmund Freyd** – avstriyalik psixolog va sotsiolog. psixologiya nazariyani ishlab chiqish bilan ijtimoiy jarayonlarni anglashning ilgari insoniyat tajribasida bo'lmagan yo'lini asoslab bergan.
7. **Vilgpfredo poreto (1848-1923)** - italiyalik nazariyotchi. «Umumiy sotsiologiya tartibi» asarini yozgan. G'arb sotsiologiyasining klassik ijodi namunasi, deb tan olingan.
8. **V. Dilgptey (1833-1911)** - nemis faylasufi, psiholog, sotsiolog. Ruh to'g'risidagi fan nazariyasini muammolarini O'rgandi. Ilmiy faoliyatining natijalari «tushunuvchan psixologiya» va «tushunuvchan sotsiologiya» dir.

### **4- Mavzu: Ijtimoiy munosabatlar, fan va tahlil sotsiologiyasi.**

**Reja:**

**1.Ijtimoiy munosabatlar sotsiologiyasi.**

## **2. Milliy mafkura - ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismi.**

### **3. Fan sotsiologiyasi.**

#### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi T., «SHarq» 1999
2. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi T., «O'zbekiston» 2000
3. Karimov I.A. Ozod vo obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz T., «O'zbekiston» 2000
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Oliy Majlis senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi ma'ruza. «Xalq so'zi» 2005 yil 29 yanvar.
5. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. «Xalq so'zi» 2006 yil 11 fevral.
6. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi halqni-halq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin, «Tafakkur». 1998. №5.
7. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» 2000. iyun.
8. Karimov I.A. Fan Vatan ravnaqiga xizmat etsin. T.2.T.,1996.
9. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. 2008.
10. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.2009.
11. Aliqoriev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya T., ToshDU. 1999 y.
12. Bekmuradov M. Sotsiologiya asoslari T., «Fan» 1994 y.
13. Bekmatov A. Sotsiologiyaga kirish, Andijon. 1995 y.
14. Xolbekov A. Idivov U. Sotsiologiya Lug'at T., «Ibn Sino» 1999 y.
15. Bekmuradov M. Ota-Mirzaev O. Aliqoriev N. va boshqalar. Sotsiologiya T., 2000
16. E Giddens. Sotsiologiya. T., «SHarq», 2002.
17. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. T., 2002.
18. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. UrDU 2003.

### **1. Ijtimoiy munosabatlarning sotsiologiyasi.**

Ijtimoiy birdamlik tushunchasi ijtimoiy munosabatlarning tizimida muhim O'rin tutadi. Chunki birdamlik - bu ko'pgina mahnaviy omillarning majmuasidan tashkil topgan sotsiologik kategoriya bo'lib, u ijtimoiy hayotda faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal qilishdagi hamkorligining ko'rinishidir. SHuni tahkidlab O'tishimiz joizki, sotsiologiya faniga jiplashuvni bildiradigan tushuncha sifatida bu termini O. Kont kiritgan edi.

Bu muammoga ko'pgina mutafakkirlar O'zlarining ehtiborlarini qaratganlar. Ayniqsa E. Dyurkgeym, G. Spenserlar bu muammoni chuqur tahlil qilganlar. Lekin ular O'z tadqiqotlarini turli xil yo'nalishlarda olib bordilar. E. Dyurkgeymning fikricha, ijtimoiy birdamlik bu ahloqiy tamoyil va oliy universal qadriyat bo'lib, u jamiyatning har bir ahzosi tomonidan tan olinadi. O. Kont va G. Spenserlarning tadqiqotlarida ijtimoiy hamjihatlikning asosini iqtisodiy manfaatlar tashkil qilishi markaziy O'rin egallaydi. G. Spenser O'zining birdamlik tahlilida majburiy va

ko'ngilli hamjihatlikni ko'rsatadi. Uning fikricha, kishilik jamiyati O'zining rivojlanish yo'lida ikki davrga - harbiy va sanoat davrlariga bo'linadi. Harbiy turdagi jamiyat ierarxik tartibi va kuchli markazlashgan nazorati bilan xarakterlanadi. Sanoat turidagi jamiyat esa osoyishta ijtimoiy hamkorlikning erkin shakllarini ifoda etadi. Muammoni xuddi ikkita jihatga ajratib tahlil qilishni E. Dyurkgeymning ham ilmiy faoliyatida ko'rish mumkin. Yuqorida ehtirol qilinganidek, u O'z tahlimotida hamjihatlikning mexanik va organiq turlarini ajratadi. Rivojlanmagan eski jamiyatlarda hukmronlik qiladigan birdamlikni Dyurkgeym mexanik birdamlik deb ataydi.

Mexanik birdamlik - bu "jamoat turidagi" birdamlik bo'lib, u bu jamoadagi individlarning O'xshashliklari bilan belgilanadi va ular tomonidan ijtimoiy vazifalar bir xil turda bajariladi. G'arbning ko'pgina olimlari ijtimoiy mulkka asoslangan kooperatsiyaning sermaxsulligini inkor etib keladilar. Ularning fikricha, butun jamiyat bilan ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishning iloji yo'qdir. SHuning uchun ularni, yahni bu vositalarni guruhlar mulki qilib berishni taqlif qiladilar. Agar ishlab chiqarish vositalari ijtimoiy mulk xususiyatiga ega bo'lsa, "mahmuriyat" xalqdan ajralib qoladi va shu sababli byurokrat boshqaruvchilar tashkiloti vujudga kelishi mumkin. O'z-O'zidan tabiiyki, bu jarayonlar tufayli ishchilar O'zlarining mehnatlarida shaxsiy manfaatdorlikni his qilmaydilar.

Mazkur taxminlarning aksariyatida ijtimoiy hayotning ko'plab sohalarida O'z isbotini topdi. Ayniqsa, mustamlakachilik davrida bizda soxta birdamlilik asosida kooperatsiyalashtirish ko'plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Mehnatning ijtimoiy taqsimoti va kooperatsiya niqobi ostida bizning hudud xom-ashyo yetishtiradigan respublikaga aylandi. Jamiyatimizda tub mahnodat birlashma jarayoni faoliyat ko'rsatmadi. Buning natijasida mamlakatimiz agrar respblika maqomiga ega bo'ldi. Mana endi shukurlar bo'lsinkim, O'zimizning milliy davlatchiligimizga ega bo'ldik. Mamlakatimiz rivojlangan, kuchli va qudratli bo'lishi uchun jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida barqarorlikka ega bo'lish lozim. Buning uchun milliy qadriyatlar asosida shakllangan birdamlik tuyg'ulari bilan uyg'unlashgan insonlarning O'zaro hamkorligi O'ta muhim mahno kasb etadi.

**Begonalashuv muammosi** - sotsiologiya fanining muhim masalalaridan hisoblanib, uni bir qator taniqli sotsiologlar O'z tadqiqotlarida O'rganganlar.Zamonaviy jamiyat hayotida quyidagi begonalashuv turlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

- 1) Iqtisodiy
- 2) Siyosiy.
- 3) Madaniy.
- 4) Ijtimoiy.
- 5) psixologik.

Ushbu begonalashuv turlari O'zlarining mahlum bir shakllariga egadirlar. Masalan, iqtisodiy begonalashuv uchta shaklga ega:

1. Faoliyatdan begonalashuv.
2. Faoliyat boshqaruvidan begonalashuv.
- 3.Faoliyat natijalaridan begonalashuv.

Siyosiy begonalashuv siyosiy hokimiyatdan; madaniy begonalashuv-mahnaviyatdan va madaniyatdan; ijtimoiy begonalashuv muloqotdan, insonlarning bir-biridan; psihologik begonalashuv O'z-O'zidan begonalashuvdan iborat bo'ladi.

Begonalashuv jarayoni va tanazzul bir-birilariga bog'lik hodisalardir. Agar jamiyatda ishlab chiqarish surhatlari keskin pasaysa, xO'jalik aloqalari uzilsa, pulning kadri tushib ketsa, narxlar tez surhatlarda oshib ketsa, boshqaruv tuzilmalari izdan chiqsa



va siyosiy tanglik vujudga kelsa, biz jamiyatning hamma sohalari tanazzulga uchragan, degan fikrga kelishimiz mumkin. O'z navbatida begonalashuv jarayoni qanchalik kengaysa, tanazzul ham chuqurlashib boraveradi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonida mehnatning taqsimlanishi rO'y beradi. Bir qarashda bu taraqqiyot uchun qO'yilgan katta qadamdir.

Lekin bunda ijtimoiy mulkka asoslangan shunday ishlab chiqarish munosabatlari shakllanadiki, uning asosida bevosita ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarish vositalaridan uzoqlashib, asta-sekinlik bilan O'z mehnatining natijasidan begonalashib boradi. Endi

bu ishlab chiqaruvchi shaxs uchun mehnat unumining ham qizig'i yO'q. Marksizm tahlimoti bo'yicha, xususiy mulk ijtimoiylashtirilgach, ishlab chiqarish vositalariga ishlab chiqaruvchilar umumiy egalik qilishlari kerak edi. Lekin ijtimoiy amaliyotda esa buning aksi bo'lib chiqdi. Siyosiy hokimiyatni bosib olgan proletariat ishlab chiqarish vositalarini endi davlat mulkiga aylantiradi. 73 yillik tarix davomida bizga uqtirib kelingan ijtimoiy mulk mutloq davlat mulki edi, bu mulk esa mulkchilikning eng jirkanch, adolatsiz turi bo'lib chiqdi. Mehnat kishisi xususiy mulkdan begona etilgan edi.

**Siyosiy jabhada ham jamiyatning kO'pgina ahzolari siyosiy hokimiyatdan begonalashtirildi. Yahni, siyosiy hokimiyat bu – xalq hokimiyati, umumxalq hokimiyati, deb ehlon qilingan bo'lsada, aslida u mahlum bir guruh – elitaning xususiy mulkiga aylandi. Buning asosida butun bir xalq davlat siyosiy hokimiyatidan begonalashdi va bu begonalashgan omma bilan nomenklaturaning orasida ulkan jarlik paydo bo'ldi. O'z navbatida bu jarayonlar chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tanazzulni keltirib chiqardi, totalitar davlat O'z-O'zidan parchalanib ketdi. Jamiyatda sog'lom muhitni yaratishda mahnaviyat va madaniyatning roli katta. Madaniy sohadagibegonalashuv ham anchagina chuqur salbiy oqibatlariga olib keladigan mahnaviy tanazzulni keltirib chiqaradi. CHunki u individlarning barkamol shaxs bo'lib shakllanishlariga salbiy tahsir ko'rsatadi. Agar jamiyat ahzolari O'z mahnaviyatlari, boy madaniy meroslaridan uzoqlashib ketib, undanbegonalashsalar, ular O'zlarining kelib chiqishlaridan tortib, to O'z millatlarining milliy urf-odatlarini, anhanalarini inkor qila boshlaydilar. Agarda yaqin O'tmishimizga murojaat etsak, ushbu mulohazalarimizning yaqqol isbotini ko'ramiz. Masalan, boy madaniy merosimizdan begonalashuvimiz, atoqli adib CHingiz Aytmatovning tahlilida, bizlarni manqurtlarga aylantiray dedi, yahni biz O'z xalqimiz tarixi, milliy ozodlik harakatlari va ularning sarkardalari jasoratlaridan, dinimiz va O'zligimizdan uzoqlashib qoldik.**

Davlatimiz mustaqillikka erishib, madaniy begonalashuvni bartaraf etishni boshladik. Sotsiologiyadagi muhim begonalashuv hisoblangan ijtimoiy begonalashuv insonlarni muloqotdan, bir-birlaridan uzoqlashishlari natijasida yuzaga keladi. Inson O'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy xususiyatga egadir. O'zaro faoliyat tufayli paydo bo'lgan ehtiyojlar asosida insonlar doimo bir-birlari bilan munosabatlarda, muloqotlarda bo'ladilar. Muloqotning ijtimoiy mahnosi shundaki, u madaniyat shakllari va ijtimoiy tajribalarni uzatish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

**Ruhiy begonalashuv**-bu insonning O'z mohiyatidan uzoqlashishidir. Bu muammoni nemis mutafakkiri **Ernix Fromm** juda yaxshi ishlab chiqqan. Zamonaviy jamiyatni E.Fromm inson mohiyatini "mashinalashtirish", "kompyuterlashtirish" va «robotlashtirish» jarayonlari tufayli begonalashuvning bir mahsuli deb tahriflaydi.

psixologik va ijtimoiy begonalashuvni bir-birlariga yaqinligi shundaki, insonlar O'zaro munosabatlarda va amaliy muloqotda begonalashsalar, O'z-

O'zlaridan begonalashuv ham yuz beradi. Chunki insonlarning bir-birlaridan begonalashishlari oqibatida ular da ikkilanish, zerikish va hayotga qiziqishni so'nishi vujudga kelishi mumkin. Buning natijasida insonning O'z kelajagiga, orzuniyatlariga ishonchi yo'qolib, u O'zini begona deb hisoblaydi va bu jarayon ko'pincha salbiy oqibatlarga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyat hayotidagi turli xil begonalashuv jarayonlari tezroq ilmiylik va uyg'unlik asosida bartaraf qilinsagina, jamiyat ijtimoiy sog'lom sharoitda taraqqiy etadi va salbiy hodisalarning tahsiri O'z vaqtida bartaraf etiladi. Masalan, mehnatdan begonalashishni bartaraf etish uchun birinchi navbatda insonlarning O'z mehnatlari natijalaridan manfaatdor bo'lishlari va uning oqibatida esa mehnatga bo'lgan munosabatlarini tubdan O'zgartirib, ularni qiziqish va kuch g'ayrat bilan ishlashlarini tashkil etish kerak. Ishlab chiqarishni boshqarishdan begonalashuv muammosini bartaraf etish ham juda muhim mahno kasb etadi. Buning uchun ishlab chiqarish munosabatlarini chuqur demokratiyalashtirish, korxonalar, tashkilot va muassasalardagi mavjud boshqaruv tizimlarini ijtimoiy adolat mehyorlari bilan takomillashtirish va ishchi xizmatchilarga xo'jalik egasining aniq vazifasi, huquqi hamda mashuliyatlarini topshirish kerak.

Madaniyatdan begonalashuvni bartaraf etish uchun madaniy merosga munosabatni takomillashtirib borish, jamiyatning har bir ahzosi mahnaviy qadriyatlardan yaxshi xabardor bo'lishi va madaniy qurilishga yetarli mablag' ajratilishini tahminlash zarur. Ijtimoiy begonalashuvni bartaraf qilish uchun insonlarni bir-birlari bilan munosabatlari, muammolarini haqiqiy birdamlik va hamkorlik asosida qurish kerakki, shunda har bir inson boshqalar uchun kerakligini chin yurakdan his qilsin. Ruhiy begonalashuvni bartaraf etish choralari ijtimoiy begonalashuvni bartaraf etishning uzviy davomidir. Inson O'zini kimgadir kerakligini ruhan seza olsagina u hech qachon tushkunlikka tushmaydi va yakkalanish, iztirobga tushish xavfidan halos bo'ladi. Oqibatda uni O'z-O'zidan, O'z mohiyatidan begonalashuviga deyarli hechqanday sabab qolmaydi.

## **2. Milliy mafkura - ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismi.**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy isloxo'tlar jamiyat hayotining barcha sohalarini chuqur qamrab olib, davlatimizni rivojlangan mamlakatlar safidan tezroq O'z munosib O'rnini egallashiga xizmat qilmoqda. Albatta, ushbu ijtimoiy jarayonning bir tekisda kechishi muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Mazkur qiyinchiliklar ijtimoiy munosabatlarning alohida turi bo'lgan milliy mafkurani yaratish harakatlarida ko'proq namoyon bo'layotgani biz jamiyatshunoslarni ko'proq tashvishga solmoqda. Chunki, milliy mafkura mustaqil davlatning asosiy mahnaviy poydevorlaridan hisoblanadi. prezidentimiz tahkidlaganlaridek – Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat O'z yo'lini yo'qotishi muqarrar<sup>1</sup>. Milliy mafkuramiz esa biror bir siyosiy partiya yoki ijtimoiy harakatlarning emas, balki umumxalq manfaatlarini ifodalashi juda muhimdir. Ushbu mafkuraning mazmuni va mohiyati millatimizning O'ziga xos bo'lgan tafakkur tarziga mos kelishi uni real hayotdan ajralmasligini tahminlaydi. Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi O'rnini aniq ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun O'rtasida O'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani jamiyat mafkurasi deb

<sup>1</sup> Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халкни қалъ, миллатни миллат қилишга хизмат этсин. Т. 1998. 4-бнт.

bilish mumkin. Respublika prezidenti tomonidan ilgari surilayotgan fikrlardan ma'lumki, milliy mafkuraning shakllanishiga millatning O'ziga xos xususiyatlari: milliy urf-odatlar, qadriyatlar, anhanalar va udumlar negizida shakllanadigan hamda rivojlanadigan tafakkur tarzi bevosita asos bo'ladi.

SHu jihatdan qaraganda, milliy g'oya va tafakkur O'zaro bog'liq tushunchalardir. SHuning uchun ularni bir-birlaridan sira ajratib olishi mumkin emas. SHu i nazardan, qaysi bir jamiyatda ushbu masalaga to'g'ri munosabatda bo'lib, uning negizida milliy mafkura shakllansa, O'sha jamiyatda taraqqiyot, erkinlik va ozodlik qaror topadi. O'rta asrlarda yashab O'tgan avlod-ajdodlarimiz hayot yo'llarini tahlil qilib ko'rsak, shunga amin bo'lamizki, al Forobiy, al Beruniy, Ibn Sino, A.Temur, Ulugbek, Navoiy, Bobur va boshqa ko'plab yuksak tafakkur egalari bo'lgan bobokalonlarimiz yashagan ijtimoiy – madaniy muhitda shakllangan tafakkur tarzi va milliy g'oyalar naqadar teran va ilmiy asosga qurilganligini ko'ramiz. Demak, ajdodlarimiz yashagan O'sha davrlarda ushbu masalalarga katta ehtibor qaratilgan. SHuning oqibati O'larok, Turon eli yuksak rivojlangan ilm-fanva madaniyat O'chog'i bo'lgan. Lekin baxtga qarshi, Yevropadagi mashhur Renesans davridan ancha ilgari yaratilgan bu taraqqiyot yo'lini biz asta-sekinlik bilan unuta boshladik. Milliy g'oya, milliy mafkuraning asoslaridan bo'lgan mahnaviy boyliklarimizga qanchalik ehtiborimizni kamroq qaratsak, taraqqiyot yo'lidan shunchalik chetga chiqib keta berdik va milliy g'oya O'rnini "mahalliychilik" g'oyasi egalladi. Buning natijasida markazlashgan ulkan davlatimiz parchalanib, millatimiz tarqoq va qoloqlik darajasiga tushib qoldi. Yagona milliy g'oyamizni mahalliychilik g'oyasiga aylantirishimiz, buning natijasida esa tarqoqlik va kuchsizlik darajasiga tushishimiz sababli avval chorizm mustamlakasiga, keyinchalik esa sobiq SHO'ro imperiyasining arzon xom-ashyo yetishtirib beradigan "viloyati"ga aylandik.

Mana endi biz 130 yildan ortiq vaqt davom etgan mustamlakachilikdan qutulib, yana markazlashgan davlatchiligimizga erishdik. SHu O'rinda aytishimiz joizki, bizdan oldin O'tgan avlod ajdodlarimiz yo'l qO'ygan xato va kamchiliklarini aslo qaytarmasligimiz zarur. Buning uchun yoshlarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashimiz kerak. Jamiyat hayotini sotsiologik tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Vatandoshlarimiz ushbu milliy mafkura mohiyatini borgan sari chuqurroq tushunib borayotganliklarini qayd qilish mumkin.

### **3.Fan sotsiologiyasi.**

Fanning tabiat hamda jamiyat hayotidagi O'rni va roli beqiyos bo'lib, inson faoliyatining ijtimoiy funktsiyasini, dunyoqarashi, ijtimoiylashuv jarayonlaridagi ishtirokini, uning siyosatda, madaniyatda, tahlimdagi tahsir kuchini O'rganish masalalarini O'zining tadqiqot predmeti sifatida belgilaydi.

Fan sotsiologiyasi mazkur tadqiqot yo'nalishlarining funktsional tizimini kengroq ijtimoiy doiralarda ishga tushiradi, shuningdek nazariy jihatdan asoslab beradi, amaliy faoliyatlarni rejalashtiradi va boshqaruv miqyosida mavjud tashkiliy formalarni optimallashtirish yo'li bilan rivojlantiradi.

Fanni uning tashkil etuvchi tizimiy hamdatarkibiy jihatlarining funktsional tahlili statistik ma'lumotlar bilan birga amaliy sotsiologiyaning metodlari: so'rov, anketalashtirish, test va hokazolarga tayanib amalga oshirilishi mumkin. Bunda ilmiy faoliyatni yuzaga chiqarish usullari, yahni mablag' bilan tahminlash tizimi, shtat jadvallari, ilmiy kadrlarni tayyorlash sxemasi aniq ko'rsatilishi zarur. Zero, fan sotsiologiyasi tadqiqot masalalarining oqilona ko'rinishini qulay variantlarda jamlash, ra-

solashtirish, ish vaqtini taqsimlash, jamoa sonini aniqlash, ilmiy xodimlarning yosh jihatdan tartibi ularning psixologik jihatdan mosligi va hokazolarni aniq bayon qiladi.

Bozor iqtisodiyoti siyosatining ijtimoiy hayotga kirib kelishi fanga ham O'z tahsirini O'tkazdi. Biroq yangi islohotlarning amalga oshirilishi turli ijtimoiy tabaqalarda turlicha kechayotganligi jamiyatning yangi munosabatlarga kO'nikishi juda sekin kechayotganligi sababli har bir sohada, shu jumladan, fanda ham talay qiyinchiliklarni yuzaga keltirmokda. Holbuki, har bir fan uchun kerakli mahlumotlarni tO'plash, tahlil etish, tuzatish, hisobot tayorlash sotsiologiya predmeti orqali amalga oshiriladi.

Jamiyatning kutilmagan inqiroz pallasiga tushib qolishiga yo'l qO'ymaslik borasida fan sotsiologiyasi kuchli mahnaviy tahsir etuvchi manbaga aylanishi, O'tish davrida dinamizm ruhida shiddatli surhatlar bilan ish yuritmogi zarur.

Fan sotsiologiyasi jahon miqyosida keng miqyosdagi muloxazalarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, 1970 yillardan boshlab A.A. Zvorqkin (Rossiya) bu muammolarni hal qilishga kO'p urindi. Lekin totalitar rejim, ijtimoiy siyosiy munosabatlardagi byurokratizm oqibatida bu masalalar hal etilmay qoldi. Vaholangki, turli xil muammolarni sotsiologik O'rganish natijalaridan hozirgi kunda ham, bozor munosabatlari sharoitida unumli foydalanish mumkin. Ijtimoiy-psixologik muammolar ilmiy jamoa va muassasalar doirasida hal qilinishi lozim. Jamoa va individual mehnat qilish, ilmiy faoliyatda ilmiy xodimning shaxs sifatidagi roli, fan uchun mutaxassislar tayyorlash, ularning yetukligini tahminlash va takomillashtirish kabi masalalar fan sotsiologiyasi uchun markaziy muammolardan hisoblanadi.

Fan sotsiologiyasiga qaratilgan asosiy ehtiborni jahon miqyosida AQSH davlati misolida keng ehtirol etish mumkin. Amerikalik sotsiolog J. Jillen: "Amerika, grajdanlar urushi tufayli buzilgan ijtimoiy-siyosiy tartiblarni tiklash uchun, fikrlaydigan shaxslarga va ijtimoiy fikr bilan hisoblashuvchi fuqarolarga kuchli ehtirol sezdi",- deb sharxlaydi. Amerika birinchilar qatorida sotsiologik metodlar asosida ish tutish tartiblarini ilmiy muassasalarga keng yoydi. Sotsiologiya fani tizimlashgan tarzda siyosiy arboblal va ishbilarmonlar madadi tufayli tez va jadal rivojlandi.

Fan sohasida sotsiologiya metodlarining tadbiqu, XIX asr oxirida sotsiologiya muammolariga bag'ishlangan tarmoq jurnalining chiqishi bilan boshlandi. 1895yil CHikago Universitetida "**American Journal of Sociology**" jurnali chiqishi faqat fan sohasida emas, balki siyosat va iqtisod sohaslarida ham muhim voqea bo'ldi. Jurnal O'zining asosiy maqsadini quyidagicha ifodalagan edi:

- 1) ijtimoiy kontseptsiyalal va nazariyalal uchun fond tashkil etish;
- 2) sotsiologiyani mustaqil ilmiy fan sifatida tan olish;
- 3) sotsiologiyani umumiy moddiy farovonlikka kO'maklashiga xizmat qildirish;
- 4) har qanday "O'ylamay mantiqiy fikrlovchi"larga qarshi ish olib borish.

Jurnal sahifalarida ilmiy tadqiqotlar natijalarining (ijtimoiy) mahlumotlar bilan muntazam tarzda bayon etishi, ilmiy yo'nalishlarning xarakteri, mohiyati, taqrizi, nashrlar tahlili, himoya qilingan ishlar bO'yicha sharx berilishi, fan sotsiologiyasining keng ehtirol etilishi, jahon miqyosidagi mutaxassis-olimlarning diqqat ehtiborlarini O'ziga jalb qilib kelmoqda.

Fan davr talabi bO'yicha innovatsion loyixa joriy qilish kerak ekan, avvalambor, fan sotsiologiyasi O'zining ijtimoiy mahlumotlari bilan birinchilar qatorida katnashishi lozim. Raqobatbardosh yuqori sifatli texnologiya asosida mahsulotlar

marketingi, shuningdek ilmiy muassasa, jamoa, intellektual ilmiy muhitning qulay variantlari, bandlik, "ishchi" O'rinlari muammolari va hokazo masalalar bilan xalqaro miqyosida ish olib borish kerak.

Fan va innovatsiya faoliyatining samarasi uchta komponent-tarkibiy qismdan iborat: fan, ishlab chiqarish va bozor va ishlab chiqarish bir-birlari bilan yaqin murosa kilmasalar, ular O'rtasidagi aloqa tezkor tarzda bo'lmasa, byurokратиya qulfi buzilib zamonaviy hamkorlik yo'lga qO'yilmas ekan bozor va investitsiya masalalari O'z-O'zidan chetga suriladi.

QO'yilgan talab va maqsadni amalga oshirishda fan sotsiologiyasi O'z-kuchini tezkor ko'rsatishi, ilmiy muassasalar O'z navbatida zamonaviy ruhda ishlashi, kuchli ish yuritish uslubini qO'llash kerak bo'ladi. Ilmiy jamoalar mehnat jarayonini samarali olib borib, ishlab chiqarishga O'z tahsirini ko'rsatishi, jahon andozalariga mos bo'lgan yuqori darajadagi mahsulotlar bilan ehtiyojni qondirishga intilish zarur.

CHuqurlashgan va keng qamrovli tizimiy O'zgarishlar yuz berayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy O'zgarishlar jamiyatimizning barcha sohasiga O'z tahsirini ko'rsatayotgan bir paytda, fan tizimida ham talay qiyinchiliklar ko'rinadi. Fan tizimining muammolari hayot tarzi muammolari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ayniqsa, kadrlar masalasi, ularning shakllanishi, zamon talabiga (raqobatbardosh talab-ehtiyojlarga) javob beruvchi intellektual ilmiy potentsial masalasiga jiddiy yondoshishni talab qiladi.

Ilmu fan shunday bir sohaki, qarib qolish, keksayish, safdan chiqib qolish kabi, holatlar uning tabiatiga begonadir.

SHuni aytish joizki, mutaxassis ilmiy xodimlarning boshqa sohalarga ishga ketib qolishi, yahni ilmiy potentsialning buzilishi fanni har tomonlama tahlil qilish, rivojlantirish yo'llarini izlashga majbur qiladi. Binobarin, ilmiy potentsialning soni va sifati fan rivojining bosqichi va natijasiga bevosita tahsir qiladi.

Xodimlarni turli xil tomoyillarga asosan quyidagicha baholash mumkin:

- 1) **Mutaxassislik mezon.** Bunda mutaxassis ilmiy xodimlarning fan tarmoqlari va mutaxassisligi bO'yicha taqsimlanishi ifodalanadi.
- 2) **Institutsional mezon.** Bunga ilmiy darajali mutaxassislarning fan tarmoqlari, ijtimoiy institutlarga taqsimlanishi kiradi. O'z navbatida institutsional qismlarni:
  - a) oliy O'quv yurtlari;
  - b) O'zRFA ning ilmiy tadqiqot institutlari;
  - v) tarmoq vazirligining oliy O'quv yurtlari va tadqiqot institutlari;
  - g) boshqaruv tizimlari (huquq-tartibot, ijrochi, sud organlari);
  - d) moliya xO'jalik tashkilotlari va tizimlari tashkil etadi.
- 3) **Ilmiy faoliyat va O'ziga xoslik mezon.** Bunda kasbiy mahlumoti O'zgacha, lekin fan sohasida (spetsifika-O'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan) mutaxassis hisoblangan xodimlar xususida tahlil qilinadi.
4. **Demografik-etnik mezon.** Bunda xodim demografik, yosh, jins, etnik, milliy va hokazo belgilari orqali ifodalanadi.
5. **Regional mezon.** Fan sohasidagi ilmiy xodimlarning, hududiy mintaqa bO'yicha taqsimlanishi kiradi.

Ilmiy xodimni baholashda, uning ilmiy darajasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmasada, u tayyorlagan dissertatsiya fan uchun ahamiyatli, shu sohaga kiritilgan ilmiy hissa deb tushuniladi.

SHaxsning shakllanishi uchun kadrlar bilan uzluksiz, kompleks ravishda quyidagi

tartibda ish olib borish zarur;

- 1) mafkuraviy faoliyatlarni takomillashtirish;
- 2) kadrlarni ilmiy tadqiqot rejalari bO'yicha to'g'ri taqsimlash;
- 3) yuqori ilmiy saviyadagi mutaxassis kadrlar tayorlashni yo'lga qO'yish;
- 4) ilmiy tadqiqot ishlari natijalari bilan davlat-jamiyat talablarini bajarishi va ilmiy xodimlarning shaxsiy ehtiyojlarini tO'la qondirish;
- 5) jadal surhatlarda kadrlarni tayorlash va O'stirish uchun ishlab chiqarish korxonalarini bilan birgalikda ish olib borish .

Ilmiy xodimlarning ijodkorlik qobiliyatini ustirishda raxbarlarning boshqaruv qobiliyati hal qiluvchi rolga O'ynaydi. Jamoa har bir ilmiy xodimning ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish uchun raxbar bilan xodimlar O'rtasida O'zaro ishonchga tayangan hamkorlik munosabati O'rnatilishi zarur. Jamoa bilan xodimlarning ish natijalari samarasi muntazam baholab borilishi lozim. Bunda :

- 1) ish natijalarining xilma-xil sohalari uchun ahamiyat kasb etishini anglash kerak;
- 2) raxbarlik tomonidan jamoaning erishgan yutuqlarini muntazam baholab borish orqali mahnaviy psixologik muhitni yaxshilash lozim;
- 3) yuqori saviyada bajarilgan ishlarni munosib ravishda taqdirlash, qolganlariga kerakli bo'lgan sharoitni yaratib, yaxshi natijaga keltirish;
- 4) baholashni mahorat bilan yuqori malakada, muntazam, O'z vaqtida, asosli tarzda olib borish zarur.

«Ilm maskanlarida faqatgina fikr erkinligi, chinakam ijod va izlanish hukmron bo'lmog'i zarur.»<sup>1</sup> Ilmiy faoliyatning samarali olib borilishida ommaviy axborot vositalari yetakchi rolga O'ynaydi. Holbuki, u yoki bu korporatsiyaning ilmiy, ishlab chiqarish sohasidagi, hayot tarzidagi tahsirini ifodalash, ijtimoiy fikrni to'g'ri bayon etish, samarali ishlarni ommalashtirish, ijtimoiy iqtisodiy muammolar hal qilinishi siyosatini to'liq olib borishning asosiy yo'lidir. Bunda asosiy diqqat ilmiy elitaga qaratiladi. (elita ilmiy muhitning eng sara namoyondalari, davlat siyosatida dasturiy, moliyaviy tahminot va huquqiy masalalar hal qilinishida ishtirok etuvchi yuqori lavozimdagi olimlar kiradi.)

Fanda nashr ishlari, nashriy mehnat tahminoti muhim va dolzarb O'rinni egallaydi. SHuni aytish joizki, ilmiy muloqot, bilimning rivoji, tarqatilishi, ilmiy saviya nashr ettirish orqali ehtirol etiladi. Fanda ilmiy elitaning bergan intervyu va maqolalari orqali davlat siyosatining asosiy strategik maqsadlari bayon etilishi; ilmiy muhitni isloh qilish, O'zgartirish usullari bO'yicha foydali taqliflar berilishi mumkin. Bu juda katta ahamiyatga ega, chunki ilmiy muhit islohi, uning xarakteri va yo'nalishi, ilmiy siyosatning olib borilishi, mablag' manbalari va ularning hajmi hamda muhimligi diqqatga sazovordir.

Fan ahliga, ziyolilarga samarali ishlash uchun zarur sharoit yaratib berish davlatning burchidir.

Hozirgi vaqtda fan tahminotining kontseptual vaziyati quyidagicha:

- ilmiy tadqiqotlarning tO'la tahminlov kontseptsiyasi;
  - muhim ilmiy yo'nalishlarga xomiylik qilish kontseptsiyasi;
  - fanning bozor jarayoniga moslashishi kontseptsiyasi;
- Ilmiy tadqiqotlarning tO'latahminlov kontseptsiyasining asosiy mohiyati shundash iboratki, uni tashkil qiluvchi elementlari amaliy (konkret ilmiy natijalar oluvchi) fan va fundamental (nazariy kontseptsiya va modellardan tashkil

<sup>1</sup> Ислом Каримов «Бунёдкорлик йулидан» Тошкент – «Узбекистон» - 1996 й, 90-б).

topgan) fan bilan hamohang rivojlanishi lozim. Bunda ayniqsa, fundamental fan rivojiga kO'proq urg'u beriladi. Turli xil fundamental fan yo'nalishlari, tarmoqlari, uning maktabi O'z-O'zidan rivojlangan emas, ularning birortasini yo'qotish fundamental fan tizimga katta zarba berishi mumkin. Bundan chiqadigan xulosa shundan iboratki, bozor iqtisodiyoti sharoitida tahminlov masalasi jiddiy va og'ir bo'lsada, davlatning fundamental fanga munosabati paternalizm (katolik dinidagi xudoga sodiklik) yoki islomdagi iymon darajasidagi sodiqlik kabi bo'lishi lozim. Bu borada prezidentimiz – «Ayniqsa fundamental fanlarga alohida ehtibor berish kerak. CHunki fundamental fanlar taraqqiyot asosidir» - degan fikrni ilgari suradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida fan tahminlovi quyidagicha:

- 1) davlat byujetidan to'g'ridan-to'g'ri sarmoyalar ajratish;
- 2) grant va innovatsion loyihalar orqali mablag' ajratilishi;
- 3) korxonalar, firma va korporatsiyalar tomonidan byudjetdan tashqari hisob bo'yicha mablag' ajratilishi asosida olib borilmokda.

Lekin shuni aytish joizki, grant va innovatsion loyihalar bo'yicha tahminlov epizodik xarakterga ega bo'lib, u fanning asosiy muammolarini yechishda yordam bera olmaydi. Korxonalar, firma, korporatsiyalar tomonidan ajratilgan byudjetdan tashqari tahminlov juda ham kam (yo'q hisobida), holbuki, ko'p ishlab chiqarish kompaniyalari fanga investitsiya ajratishga qodir emaslar.

Muhim ilmiy yo'nalishga xomiylik qilish kontseptsiyasida mamlakatdagi mavjud iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay fanning bahzi bir zaruriy fundamental yo'nalishlari uchun davlat tomonidan yordam berilishi ko'zda tutiladi. Natijada fanda muayyan jiddiy institutsional va iqtisodiy jihatdan obhektiv zarurat kelib chiqishi mumkin. Fanning bozor iqtisodiyotida islohotlanishi, moslashuvi zarur bo'lib, u O'z O'rnida fan tarmoqlari va sohalarini nechog'li maqbul rivojlantirilishiga bog'liq. Demak, zaruriy ilmiy yo'nalishlarni avval nazariy, so'ngra institutsional shaklda, huquqiy asosda tahminotini rejalashtirish yo'lga qO'yiladi.

Davlat boshqaruvi tahminoti ilmiy yo'nalish doirasidagi maktablarning hozirgi kunda faqat "omon" qolishi uchun emas, balki jahon andozalari bo'yicha zamonaviy talab va taqlifga mos ravishda barpo qilinishiga ko'maklashishi kerak. Zero, voqelikni umumiy va tadbqiqiy izchillikda tasvirlash obhektiv taraqqiyot qonunlarini ochib berish, ilmiy faoliyatda moddiy texnika va informatsion tahminlovni muxtasar tarzda tahlil qilish imkoniyatini tug'diradi.

## **Tayanch atamalar.**

**1. Ijtimoiy birdamlik**- bu ko'pgina mahnaviy omillarning majmuasidan tashkil topgan sotsiologik kategoriya bo'lib, u ijtimoiy hayotda faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal qilishlaridagi hamkorligining ko'rinishidir.

**2. Begonalashuv** - odamlar, ijtimoiy guruhlarning bir-biri bilan yonma-yon yashashlariga qaramay ularning munosabatlaridagi azaliy birlikning buzilishi va unga olib keladigan jarayon.

**3.Mafkura** – muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad muddaolari, manfaatlari, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini O'zida mujassam etadigan g'oyalar tizimidir.

**4.Milliy mafkura** - biror millatning barcha manfaatlarini ifodalagan, millatning O'ziga xos tafakkur tarziga mos keladigan g'oyalar tizimidir.

**5. Ilmiy elita** - ilmiy muhitning eng sara namoyondalari, davlat siyosatida dasturiy, moliyaviy tahminot va huquqiy masalalar hal qilini shida ishtirok etuvchi yuqori lavozimdagi olimlar.

## **5-Mavzu: Madaniyat, din va axloq sotsiologiyasi.**

### **Reja:**

**1.Madaniyat sotsiologiyasi.**

**2. Din sotsiologiyasi.**

**3.Axloq sotsiologiyasi.**

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi T., «SHarq» 1999
2. Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi T., «O'zbekiston» 2000
3. Karimov I.A. Ozod vo obod Votan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz T., «O'zbekiston» 2000
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Oliy Majlis senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi ma'ruza. «Xalq so'zi» 2005 yil 29 yanvar.
5. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. «Xalq so'zi» 2006 yil 11 fevral.
6. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi halqni-halq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin, «Tafakkur». 1998. №5.
7. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» 2000. iyun.
8. Karimov I.A. Fan Vatan ravnaqiga xizmat etsin. T.2.T.,1996.
9. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. 2008.
10. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.2009.
11. Aliqoriev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya T., ToshDU. 1999 y.
12. Bekmuradov M. Sotsiologiya asoslari T., «Fan» 1994 y.
13. Bekmatov A. Sotsiologiyaga kirish, Andijon. 1995 y.



14. Xolbekov A. Idivov U. Sotsiologiya Lug`at T., «Ibn Sino» 1999 y.
15. Bekmuradov M. Ota-Mirzaev O. Aliqoriev N. va boshqalar. Sotsiologiya T., 2000
16. E Giddens. Sotsiologiya. T., «SHarq», 2002.
17. Sotsiologiya. O`quv qo`llanma. T., 2002.
18. Sotsiologiya. Ma`ruzalar matni. UrDU 2003.

## **1. Madaniyat sotsiologiyasi.**

Madaniyat moddiy va mahnaviy ishlab chiqarish, ijtimoiy va O`zaro munosabatlar, siyosat, oila, axloq, xulq, huquq, tahlim, tarbiya, ijod, ilm - fan, xizmat ko`rsatish, turmush tarzi qabilar bilan birga rivojlanadi. Jamiyatning taraqqiyot darajasini aks ettiradi.

Madaniyat tushunchasi keng va tor mahnolarda ishlatiladi. Keng -mahnoda - insoniyatning butun tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan barcha moddiy va mahnaviy boyliklarning yig`indisini aks ettiradi. Tor mahnoda madaniyat atamasi jamiyatning mahnaviy estetik turmush darajasini ifodalash uchun qo`llaniladi. Madaniyat atamasi keng mahnoda qo`llanilib, jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va mahnaviy hayotida qO`lga kiritgan yutuqlar majmui, biror ijtimoiy guruh yoki xalqning mahlum davrda qO`lga kiritgan shunday yutuqlari darajasini, O`qimishlilik, tahlim - tarbiya ko`rganlik, ziyolilik, mahrifatlilik hamda turmushning mahrifatli kishi ehtiyojlariga mos keladigan shartlari yig`indisini bildiradi. BMT Bosh Assambleyasining qaroriga kura 2000 yil "Xalqaro jahon madaniyati yili" deb ehlon qilinganligi bejiz emas.

Madaniyat sotsiologiyasi-«tushunuvchan» ("izohlovchi") sotsiologiya 70-yillarda Germaniya va Frantsiyada vujudga kelgan oqim. Madaniyat sotsiologiyasi ijtimoiy hayotning murakkab shakllari, aqliy va mahnaviy hayoti, yahni sanhatni, din sohasini, fanni va hokazolarni tahlil etishga qobiliyatsiz bo`lgan pozitivistik sotsiologiyaning nazariy-metodologik chegaralanganligiga aks tahsir sifatida vujudga kelgan.

**Madaniyat** - insonning faoliyati, uning oqibatida yaratilgan moddiy va mahnaviy qadriyatlar bo`lib, shaxsni shakllantirish va kamolotida muhim omil bo`lgan ijtimoiy hodisadir.

Ilmiy adabiyotlarda madaniyatni moddiy va mahnaviy madaniyatga bo`lish rasm bo`lgan. Madaniyatning bunday bo`lish inson faoliyatining ikki asosiy sohasi - moddiy va mahnaviy ishlab chiqarish bilan bevosita bog`liqdir.

**Moddiy madaniyat** moddiy ishlab chiqarish bilan bog`liq ijtimoiy faoliyatning barcha sohalari va natijalarini O`z ichiga oladi. Moddiy madaniyat tizimiga uy-joy, kiyim-bosh, uy-rO`zg`or buyumlari, istehmol vositalari deb ataladigan narsalar ham kiradi.

**Mahnaviy madaniyat** mahnaviy ishlab chiqarish, ijtimoiy ong shakllarini yaratish bilan bog`liq bo`lgan faoliyatning barcha sohasini qamrab oladi. Mahnaviy madaniyat namoyon bo`lishining turli shakllari har xil tasavvurlar va g`oyalar, nazariyalar, tahlimotlar, ilmiy bilimlar, sanhat asarlari, axloqiy va huquqiy normalar, falsafiy, siyosiy qarashlar, mifologiya, din va hokazolar ana shunday faoliyat natijasidir.

Moddiy va mahnaviy madaniyat bir-biri bilan uzviy bog`liq. Birinchidan, har ikkalasi ham madaniyatning uzviy O`ziga xos qismlari ekanligini unutmazlik kerak, ikkinchidan, inson faoliyatining maxsuli bo`lgan kO`pgina narsalar ham aqliy, mahnaviy, ham jismoniy mehnatning natijasi sifatida paydo bo`ldi.

Madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi:

- 1) O'zidan oldingi avlodlar yaratgan qadriyatlarni O'zlashtiribdan boshlanadi;
- 2) u yangi qadriyatlar yaratish yo'lida tayanch vazifasini O'taydi.

Ana shu ikki jarayon - eskilik bilan yangilik O'rtasidagi obhektiv zaruriy bog'lanish **vorislik** deb ataladi. Lekin bunda taraqqiyotga xizmat qiladigan progressiv vorislikni unga tO'siq bo'ladigan reaksion vorislikdan farqlash lozim bo'ladi. Madaniyatga ijobiy (pozitiv) va salbiy (negativ) ta'sir etuvchi vorislik ham mavjud.

Madaniyat bevosita qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, uning turlari quyidagilar:

- 1) Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar;
- 2) Anhanalar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo'ladigan axloqiy qadriyatlar;
- 3) Insonning aql idroki va amaliy faoliyat zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko'nikmalari, bilim va tajribalari, qobiliyat va istehdodlarida namoyon bo'ladigan qadriyatlar;
- 4) Odamlar O'rtasidagi jamoaviylik, hamkorlik, xayrixohlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo'ladigan qadriyatlar;
- 5) Kishilarning yoshi, kasbi, jinsi, irqiy xususiyatlari bilan bog'lik bo'lgan qadriyatlar.

Yuqorida bayon etilgan qadriyatlar O'z navbatida:

- 1) umuminsoniy qadriyatlar
- 2) mintaqaviy qadriyatlar
- 3) milliy qadriyatlar
- 4) diniy qadriyatlar turlariga bo'linadi.

Madaniyat sotsiologiyasida ijtimoiy institutlar muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy institut deganda kishilarning ijtimoiy faoliyatlari tashkillanadigan muassasalar va ularda xulqning muvofiqlashtiriluvchi tushuniladi.

Madaniyat shakllari asosan 3 xilda farqlanadi:

- 1) Elitar madaniyat;
- 2) Xalq madaniyat;
- 3) Ommaviy madaniyat.

1. **Elitar madaniyat** -(frantsuzcha - "eng sara" so'zidan olingan) - har qanday ijtimoiy tizilmaning boshqaruv, madaniyat, fanni rivojlantirish funktsiyalarini amalga oshiruvchi oliy, imtiyozli qatlamdir. Elita haqidagi nazariyalar dastavval platon, Niopse qarashlarida bayon qilingan bo'lib, tizimli ko'rinishga XX asr boshlarida V. pereto , G. Moska, Mixelgpslar tomonidan keltirilgan hozirgi G'arb sotsiologiyasida elita turli xil talqin etiladi. Bunda elita xokimiyatga yo'nalgan, siyosiy jihatdan eng faol odamlar (Moska), jamiyat eng ko'p obrO', makon, boylikka ega bo'lgan, ommaga nisbatan aqliy va axloqiy ustunlikka ega odamlar (X. Ortega-i-Gisset), jamiyatning noijodiy ko'pchiligidan farq qiluvchi qism (Goinbi), eng malakali mutaxassislar, menejerlar va boshqaruv tizimidagi oliy xizmatchilardir, deb izohlaydi.

2. **Xalq madaniyati** - maxsus tayyorgarligi bo'lmagan shaxslar tomonidan bunyod bo'lgan madaniyat. Xalq ijodining mualliflari odatda nomahlumdir. Jumladan, afsonalar, ertaqlar, dostonlar shular jumlasidan bo'lib, ular yakka (masalan, baxshilar), guruhiy (kushik yoki uyin ijrosi) yoki ommaviy (masalan, sayllar, xalq bayramlari) ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

3. **Ommaviy madaniyat** - XX asr O'rtalarida ommaviy mulokot va axborot vositalarining jamiyat hayotiga chuqur kirib borishi va barcha ijtimoiy guruhlar uchun yetarli bo'lishi natijasida shakllangan va mohiyatan barcha yoshdagi aholi uchun tushunarli bo'lgan madaniyat namunalari (estrada, musika, tsirk). Ommaviy madaniyat

barchaga qaratilgan bo'lib, muttasil ravishda kundalik hayot uchun ishlab chiqiladi va ommaviy axborot vositalari faoliyatida yorqin namoyon bo'ladi.

## 2. Din sotsiologiyasi.

Ijtimoiy hayotning muhim jabxasi bo'lgan din va diniy ehtiqod masalasi sotsiologiya fanining muhim obyektlaridan biri hisoblanadi. Sotsiologiya jamiyat hayotini O'rganar ekan, shu hayotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan va ayni paytda unga kuchli ta'sir O'tkazuvchi omil - din doimo uning diqqat markazida bo'lgan. Kont jamiyat taraqqiyotini davrlarga bo'lar ekan, asosiy mezonlardan biri sifatida dinga murojaat qiladi. Unint fikricha insoniyat O'z rivojida uch bosqichni bosib O'tadi. Bular quyidagilar: teologik, metafizik va ilmiy bosqichlar. Har uch bosqichda ham din muayyan rol O'ynaydi.

Din quyidagi O'ziga xos belgilarga ega:

1. Muayyan ehtiqod va tahlomotning mavjudligi. Har bir din dunyoni O'z nazaricha izohlaydi va ishonuvchilarda muayyan ehtiqod shakllantiradi.
2. Marosim va rasm rusumlar. Har bir din O'ziga xos marosim va rasm rusumlarga ega.
3. Diniy marosim va rasm rusumlarning muayyan qismi faqat belgilangan joylarda jamoa bo'lib bajarilishi. Masalan, yahudiy va xristian dinida ibodatning asosiy qismi sinagogda va cherkovda bajariladi. Islom dinida erkaklar tomonidan O'qiladigan namoz asosan jomhe masjidlarida O'qiladi. Din sehrgarlikdan avvalo mana shu belgi bilan, yahni muayyan marosimlarni muayyan davrlarda bajarish bilan farqlanadi. Sehrgar va shomonlar g'ayritabiiy harakatlarni individual holatda bajarsalar, dindorlar diniy marosim va ibodatlarni asosiy qismini jamoa bo'lib bajaradilar. Sanab O'tilgan belgilarning uchtasi ham dunyoviy dinlarning barchasida mavjud. Bu dinlar quyidagilar: iudaizm, xristianlik, islom.

**Iudaizm** ular ichida eng qadimiysi bo'lib, miloddan taxminan ming yil oldin shakllangan. Bu din O'sha davrdagi dinlardan farqli O'larok, yakka xudoni tan olardi.

Milodning dastlabki asrlarida yahudiylar dunyoning ko'p mamlakatlariga tarqab ketdilar, lekin biror mamlakatda iudaizm rasmiy din sifatida tan olinmadi. KO'p mamlakatlarda bu din vakillari tahqib ostiga olindi. Ikkinchi jahon urushi yillarida natsistlar tomonidan ko'plab yahudiylar qirib yuborildi. Urush tugagach, Isroil davlati tashkil topdi va unda iudaizm rasmiy din sifatida ehtirol etildi.

**Xristianlik** dastavval sekta sifatida iudaizm tarkibida vujudga keldi va Kichik Osiyo, Yunoniston, Rimda tarqala boshladi. Imperator Konstantin davrida bu din Rim imperiyasining rasmiy dini deb ehlon qilindi. Xristianlikning provaslavie, katolitsizm, protestantlik kabi bir necha tarmoq va oqimlari mavjud.

**Islom** dini eramizning VII asrida shakllandi, Bu dinning asosini 5 rukn tashkil qiladi. 1) Iymon; 2) Namoz; 3) RO'za; 4) Zakot; 5) Haj.

Islomda sunniylik va shia yo'nalishlari bo'lib, ular ham O'z navbatida bir qator mazhablarga bo'linadi. Musulmon dini dunyoning 5 qithasida va deyarli barcha mamlakatlarda mavjud. Saudiya Arabistoni, Liviya, BAA, Iordaniya, Jazoir, pokiston, Eron kabi qator mamlakatlarda islom rasmiy din deb ehlon qilingan. Islom dinida ham mO'htadil va aqidaparast oqimlar mavjud. Uch olamiy dindan tashqari buddaviylik, induizm, kunfuchilik kabi dinlar ham ko'p millionlik tarafdorlariga ega. Induizm eramizdan oldingi 4 ming yilliklarda shakllangan. Bu din tarafdorlari asosan Hindistonda yashaydilar. Bu din odamlarning kastalarga bo'linishini ilohiy sabab bilan izohlaydi.

Buddaviylik, kunfuchilik va daosizm dinlari uchun umumiy xususiyat shundaki,

ularning tarafdorlari xudoni ehtirol etmaydilar.

Buddaviylik er.avv. VI asrlarda Nepalda yashagan **Sidart Gautama** tahlilotidan boshlanadi. Bu din Tailand, Birma, Nepal, SHri-Lanka, Xitoy, Yaponiya, Koreya singari mamlakatlarda tarqalgan.

Kunfuchilik eramizdan oldingi VI asrda yashagan Kun-Fu-CHI tahlilotiga asoslangandi. U Buddha bilan bir vaqtda yashagan bo'lib, insonning tabiat bilan uyg'unlashish yo'llarini axtargan. G'arb va SHarq olimlari din va jamiyat muammosi ustida ko'p asrlardan buyon bosh kotirib kelmokdalar. Bu masala Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan ulkan allomalar Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy, Bobur kabi yuzlab olimlar chuqur fikr bildirganlar. Bu olimlar dinning jamiyatda tutgan O'rnini tahlil qilishda kuzatish, qiyoslash, tarixiylik usullaridan keng foydalandilar. Ular bir dinni madh etib, boshqasini tanqid qilish yo'lidan bormadilar. Xususan, Beruniy O'zining «Hindiston» kitobida turli qabilalar, elatlar va xalqlar hayotida dinlar qanday rol O'ynaganini chuqur tahlil qilib berdi. Lekin din sotsiologiyasi XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllanib, bu M. Veber nomi va ilmiy faoliyati bilan bog'liq. M. Veber ijodida dinni sotsilogik tahlil qilish markaziy O'rinni egallaydi. K.Marks barcha dinlarni afhyun deb ehlon qilsa, Veber din va jamiyat munosabatlarini tahlil qilib, umuman din to'g'risida emas, muayyan davrdagi muayyan din yoki diniy oqim to'g'risida fikr yuritdi. M. Veberning eng katta xizmatlaridan biri, uning xristian dinidaga protestanlik mazhabining iqtisodiy hayotga O'tkazgan tahsirini kashf etishida bo'ldi. Boylik orttirishga qarshi bo'lgan xristian dini mazhablari iqtisodiy taraqqiyotga mahlum darajada to'siqlik qilganlar. protestanlik esa boylikni xudoning nehmati, unga intilish bandalarning burchi, deb iqtisodiy taraqqiyot va kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga turtki berdi.

Veber talqinida, protestanlik kapitalizm vujudga kelishidagi asosiy sabablaridan biri edi.

Veber dinlarni tahlil qilib, ular sanoat kapitalizmi rivojlanishiga g'ov bo'lmokda degan xulosaga keldi.

Islom dinidagi oqimlar, mazhablar, yo'nalishlar turlicha bo'lib, ularning barchasi ham faqatgana O'zlari mansub bo'lgan mazhab yoki yo'nalish haqiqiy islom dini ekani, boshqalar esa yo'ldan adashganlar, deb dahvo qilishadi. Boshqa dinlar singari islomda ham aqidaparastlik (fundamentalistik) va mo'htadil oqimlar O'rtasida kurash borgan. Aqidaparast oqimlarning vakillari dinni ilk paydo bo'lish davridagi holatga qaytarmoqchi bo'ladilar. Bu ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishini orqaga burish uchun urinish ifodasidir.

Markaziy Osiyoda aqidaparastlarning keskin xurujlaridan biri XX asr boshlarida yuz berdi. Xijozdan kirib kelgan aqidaparast oqimlar Markaziy Osiyoda ijtimoiy tanglikni keltirib chiqardilar. Bidhatga qarshi kurash niqobida ular ijtimoiy hayotda yuz bergan barcha yangiliklarni yo'q qilish uchun kurash boshladilar.

Aqidaparastlarni ijtimoiy taraqqiyotni ortga qaytarish uchun kilgan harakatlariga qarshi taraqqiyparvar mahrifatchilar harakati keldi. Tarixda jadidchilik nomini olgan bu harakat namoyondalari xalqni ilm-mahrifatli qilish, diniy ehtiqodda mutaassiblikdan mo'htadillik tomon yuz tutish g'oyalari bilan chiqdilar. XX asr boshlarida diniy aqidaparastlik atamasi muomalada deyarli bo'lmagan. Uning O'rnida «qadimchilar» atamasi keng qo'llanilgan. Qadimchilar dinni "asl" holatiga qaytarish, yangiliklardan himoya qilish uchun harakat qilganlar. Usuli jadidiya tarafdorlari, yahni mahrifatchilar mehyorlarini belgilashda jamiyatda yuz bergan va berayotgan O'zgarishlarni hisobga olish, yangiliklarni qO'llash tarafdorlari edi. Bu ikki yo'nalish O'rtasida tortishuvlar avvalo baxs, munozara, keyinroq to'qnashuv va qon to'kishlar shaklida yuz berdi.

Qadimchilar kuch ishlatish yo'li bilan yengishga harakat qilganlar. Bu usul diniy aqidaparastlikka xos bo'lgan ekstremistik usuldir. Aqidaparastlar nazariy va mafkuraviy bahslarni xunrezlikka aylantirishga uringanlar.

Mahrifatchilar harakati qadimchilar yo'li millat uchun xatarli yo'l ekanini xalqqa tushuntirish maqsadida yo'lga chiqdilar. SHu maqsad yo'lida ular mahrifat va mafkura sohasini ham nazariy ham amaliy faoliyat olib bordilar. Qadimchilar jim turmadilar. Avvaliga ular mahrifatchilarni nazariy jihatdan yengmoqchi bo'ldilar. Lekin nazariy jihatdan yenga olmasliklariga kO'zlari yetdi. Dunyoda kO'p marta takrorlangan hodisa, aqidaparastlikning diniy, nazariy tortishuvlarida yengilishi va zO'ravonlikka O'tishi Turkistonda ham qaytarildi. Aqidaparastlar endi qarshi terror yo'lga O'tdilar. Oktyabrgp tO'ntarilishi arafasida, undan keyingi dastlabki yillar aqidaparastlarning mahrifatchilarga qarshi xunrezliklariga eng avjiga mingan davri edi. 1918 yil fevralida Buxoro qozisi mahrifatchilarni kofir deb ehlon qiladi. Ularni ko'rgan joyda O'ldirish to'g'risida fatvo chiqardi. Mahrifatchilar dindor bo'lib, hech qachon islom diniga qarshi faoliyat olib bormaganlar. Buxoro qozisi fatvosi bilan yangilik tarafdorlarinini kaltaklash, O'ldirish boshlandi. Bundan foydalangan kO'p qadimchilar O'z raqiblaridan O'ch oldilar, kO'p yangilik tarafdorlari yO'qotilib yuborildi. 1918 yil martda amr farmon chiqardi. Unga ko'ra, jadidchilikda gumon qilinganlar Arkka olib kelinishi kerak edi. Bir necha kun ichida Arkka maxbuslar tO'lib ketdi. Jallodlar qO'li-qO'lga tegmasdi. Natijada yangi jallodlar tayinlandi, shogirdlar ham ishga solindi, boshqa xonliklarda keng kO'lamda xunrezliklar bo'lmasada, qadimchi aqidaparastlar tahsirida sodir etilgandir. Mahrifatchilarning yetakchilari jon saqlash uchun amirlikdan tashqariga chiqib ketishga majbur bo'ldi. M.Bexbudiy qadimchi aqidaparastlar qurboni bo'ldi. 20-30 yillarda tirik qolgan jadidlarni kommunistik aqidaparastlar qirib bitirdilar. SHunday qilib, jadidlar ikki aqidaparast terroristi kuchlar diniy aqidaparastlar va kommunistik aqidaparastlar tomonidan tahqib va qirg'in qilindilar.

XX asr sO'ngida ham diniy aqidaparastlar ijtimoiy tanglikni keltirib chiqarishga urindilar. SHO'rolar tizimining oxirgi yillarida hokimiyatning bO'shashgan va kishilar ongida mafkuraviy bo'shliq vujudga kelganidan foydalanib, aqidaparastlar O'zlarining mavqelarini mustahkamlab olishga harakat qildilar. Ularning bu harakati O'zbekiston mustaqillikni qO'lga kiritgan dastlabki yillardan ham davom etdi. O'zlarini yetarli kuchga ega, deb hisoblagan aqidaparastlar O'zbekistondagi Konstitutsiyaviy tuzumni zO'rlik yo'li bilan ag'darishga urindilar. 1999 yil 16 fevralda Toshkentdagi portlashlar, Farg'ona va boshqa viloyatlardagi salbiy hodisalar, 2005yil 12-13 may kunlari Andijonda sodir etilgan terroristik harakatlar shundan guvohlik beradi.

XX asr O'rtalarida sotsiologiya fanida "fuqarolik dinlari" tushunchasi paydo bo'ldi. Bu tushuncha ilohiy kuchlar va hodisalarga emas, ijtimoiy turmushdagi narsa hodisalarga sig'inishni anglatadi. Masalan, Buyuk Britaniya, AQSH kabi davlatlarda bayroq, madhiyaga cheksiz hurmat bilan qaraganlar. Sobiq Sovet Ittifoqida Marks, Engelgps, Lenin shaxslari amalda ilohiylashtirilgan edi. Ayniqsa, Lenin shahninga biror yomon gap aytish man qilingan edi. Bu hodisalar XX asr ikkinchi yarmidagi diniy sotsiologiya yo'nalishlarida fuqarolik dinlari deb ataladi.

SHunday qilib, din sotsiologiyasi ijtimoiy fikrlar din atamasi bilan bog'liq barcha ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy xulqni O'rganadi. Mustaqil O'zbekistonda dinga milliy qadriyat sifatida qaralishi xalq ongida ushbu hodisaga nisbatan to'g'ri holis munosabatning shakllanishiga zamin bo'ldi.

### **3.Axloq sotsiologiyasi.**

**Axloq** - ijtimoiy ong shakli sifatida muayyan xalq elat yoki uyushmaning asrlar davomida shakllangan xulq - atvor, hatti-harakatlar, his-tuyg'u va kishilar O'rtasidagi O'zaro real munosabatlari tizimini ifoda etadi. Axloq muayyan xalqning atrof muhitga, kishilarga va O'z-O'ziga bo'lgan munosabatlar sifatida, bir jihatdan mahalliy-milliy talablariga uyg'un muvofiqligini tahminlovchi umuminsoniy xususiyatga ham egadir.

Axloq va ijtimoiy munosabatlar uchun mushtarak manbalardan biri, tabiiyki til hisoblanib, u ijtimoiy axborotni saqlovchi, ifodalovchi va yetkazuvchi muhim vosita bo'lib, kishilar hatti harakati, fehl-atvorlarini boshqarish omilidir. Til muloqot kaliti-ijtimoiy munosabatlarga tarixiy-tabiiy mahsulidir.

Axloq va jamoatchilik fikri hodisalarining bog'liqligi insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichi va undan keyingi davrlarida namoyon bo'la boshlagan bo'lib, u qabila hamda elatlar maishiy va ijtimoiy ongida O'z tahsirini O'tkaza boshladi.

Axloq asrlar davomida odamlarni jamoaga, uyushuvga, boshqalar manfaatini shaxsiy manfaatlardan yuqori qO'yib, yondashuvga undab kelgan. Bu xususda ulug' donishmandlar ibratli fikr qarashlarini ilgari surganlar.

SHarq axloq qoidalari nafaqat shaxsni uyushuvga undaydi, balki uyushgan holda ham kishining shaxs sifatidagi bir butunligi barqaror turmog'i, jamoaviy integratsiya doirasida ham ruhiy botiniy yaxlitlik sanalmog'i zarurligi, umumiy bir butunlik kO'plab serjilo va mustaqil yaxlitliklar yigmasidan iboratlitini yorkin ifodalaydi. Jamoada shaxs bir butunligi yemirilmaydi, umumlashtirishlar negizida qurbon etilmaydi, balki mantiqiy muvofiqlik mezoni doirasida uyg'un birlashuv jarayoni tabiiy ravishda amalga oshiriladi. Ayni paytda shuni ehtiborda saqlash kerakki, har qanday uyg'unlashuv O'lchovsiz, chegarasiz bo'lmasligi, har bir harakatda mezon hisi va aqliy xushyorligi bo'lishi xalqimiz fehl-atvoriga xos anhanaviy belgidir.

Movarounnahr xalqlari axloq tizimi jamoatchilik fikrini salmog'ini, uning haq va islom qoidalari nehogli muvofiq kelishiga bog'liq ekanligini alohida qayd etadi. SHu jamoa ahzolarining to'g'ri va halolligi gunoh ishlardan qanchalik O'zlarini forig' tuta bilishlari bilan ham O'rganishiga ehtibor qaratadi. Ayni chog'da jamoa ahzolari gunoh yo'lga kurgudek bo'lsalar, ularni tarbiyalash ishidan bO'yin tovlamaslik zarurligi ham uqtiriladi. Xazrat Bahovuddin Nakshbandiy xalqni ayblash noto'g'ri va behuda ish ekanligini uqtiradi<sup>1</sup>. Xalq to'g'ri yo'ldan adashgan bo'lsa, unga tushunish kO'zi bilan qaramoq lozimligini, xalqni bevosita emas, bilvosita usullarda tarbiyalamoq lozimligini tayinlaydi.

Inson bir umr shakllanadi, tarbiyalanib boradi. Aslida inson O'z hayotini butun umr davomida mahqulroq tartibga tushirish, jamiyat talablariga muvofiqroq yo'nalishlarga solish tashvishlari bilan yashab O'tadi. SHu boisdan ham jamoatchilik fikri jamiyat axloqiy qarashlari, talab va yo'riqlariga har jihatdan bog'liq bo'lib keladi. Insoniyatning ongli faoliyati boshlangan ilk davrlarda insonning tashqi dunyo bilan bog'liqligini anglatuvchi ilk mafkuraviy yo'nalish - **totemizm**, yahni ibtidoiy jamoa kishisining O'z kelib chiqishini turli xil hayvon-qushlarga olib borib taqash nuqtai nazari chuqur ildiz otdi. Bu xususiyat har xil elatlarda turlicha namoyon bo'lib, tegishli hayvonlarda O'z O'tmishini ko'rish, shu hayvonlar bilan bog'liq tasavvur, ramzlar, odat hamda irimlar tizimini yuzaga keltirdi. Masalan, hindlarda sigir, qozoqlarda uchqur ot, inglizlarda burgut, turon turk- O'zbeklarda afsonaviy Humo qushi va hokazolar. Totemizm xalqlar mahnaviyatining shakllanishida, tabiiyki muhim bosqich hisoblanib, u ilk mafkuraviy silsila sifatida elatlarning etnik jihatdan O'z-O'zini anglash qobiliyati hamda etnik

<sup>1</sup> Абул Мухсин Мухаммад Бокир Ибн Мухаммад Али Баховуддин Балогардаон Т. Ёзувчи. 1993. 80-бет.

asoslardagi jamoatchilik fikrini tarkib toptirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Bu davr mahnaviyatida axloqiy qoidalar garchi qog'ozlarda ifodalanmagan bo'lsa-da, urug' umumiy qarashlarida muhrlangan og'zaki yo'sinda ifodalanuvchi barcha axloqiy talablar so'zsiz va bekamu-ko'st bajarilib borishi bilan ehtiborlidir.

Matriarxat tuzumining patriarxat tuzumi bilan almashinuvi jamoatchilik fikridagi axloq mohiyatini ham tubdan O'zgartirib yubordi. Istehmol munosabatlarida ishlab chiqarish munosabatlariga, taqsimotdagi adolat va tenglik shart - sharoitlaridan ishlab chiqarish natijasida erishilgan nehmatlarni O'zlashtirishdagi tengsizlik holatlariga O'tilishi patriarxat hukmronligi davriga tamomila chek qO'yildi. Axloqiy qarashlar manzarasi ham tubdan O'zgarib, ota obrazi ilohiylashtirila boshlandi, otaga sig'inish, otaga xurmat, izzat-ikrom chegaralari kengaydi. KO'pxotinlilik, qullar va chO'rilar asrash, erkaklarning rO'zg'or tashvishlaridan uzoqlashuvi, urug' tarkibidan erkak boshchiligida alohida oilalarning ajralib chiqa boshlashi, erning oiladagi hukmron mavqei va boshqalar, shular jumlasidandir. Tabiiyki, patriarxat axloq qoidalarining jamiyat hayotida mustahkam O'rnashuvi uchun yana ming yillab vaqt qurbon qilindi. SHuni tahkidlash joizki, O'zbek xalqi O'z mahnaviyati mazmunida patriarxat va patriarxat davrlari asoratlarini eng yaxshi anhanalarini saqlab qola bilgan.

SHuni alohida qayd qilish lozimki, har qanday axloqiy qoida va talablar jamiyat tomonidan ehtiroy etilib, jamoatchilik fikrida mustahkamlangan holdagina umrboqiylik kasb etadi. SHu boisdan ham axloq jamoatchilik fikrining asosi va unga bevosita bog'liq ijtimoiy ong ko'rinishidir.

Har qanday siyosiy tizim birinchi galda axloq asoslarini O'zgartirishga intiladi. Hozirgi kundagi ijtimoiy munosabatlar mazmuniga bozor iqtisodiyoti unsurlarini tezkor kirib kelishi axloqiy qarashlar va bu qarashlarning ifodasi bo'lgan jamoatchilik fikri mazmunida ham katta O'zgarishlar bo'lishiga olib kelishi shubhasizdir.

SO'ngi yillarda umuminsoniy qadriyatlar va umumplanetar axloq normalarini ishlab chiqishga bo'lgan sahy harakatlar bir muncha quloch yozdi. Jahon faylasuflarining XV anjumanida Amerika olimi **Archi Bom** umumjahon axloq qoidalarini ishlab chiqish zaruriyati pishib yetilganligi, uni sinovdan O'tgan umuminsoniy munosabatlar, gumanistik tamoyillar asosidagina tarkib toptirish zarurligini uqtiradi. Buning uchun esa planetamizning barcha ahzolari uchun umumiy yagona axloq qoidalarini tuzib beruvchi qO'mita tashkil etish zarurligini O'rtaga qO'ydi.

Xalqaro axloq qoidalari kuch yoki qurol vositasida hayotga joriy etilmaydi. Umuminsoniy tamoyillar negiziga quriluvchi bu axloqiy qoidalar faqat jamoatchilik fikri orqaligina boshqariladi va nazorat qilib boriladi.

Xulosa sifatida quyidagilarni alohida qayd etib O'tish zarur:

- 1) axloq jamoatchilik fikrining uyg'onishi, shakllanish va amal qilishning uzviy manbalaridan sanalgan holda xalq axloqi yaxlitligining yuzaga kelishida jamoatchilik fikri ham muhim O'rin tutadi, bu ikki ijtimoiy hodisa hamma holatlarda mustahkam aloqada bo'lib turadi, bir-birini to'ldirib, boyitib boradi;
- 2) Jamoatchilik fikri O'zining shakllanish manbalarining salmog'i, kishilarning uyushqoqlik darajasi, aholining hissiy emotsional, mantiqiy intellektual imkoniyatlariga, shuningdek, milliy, iqlimiy, mahalliy va regaonal shart-sharoitlarga bog'liqdir;
- 3) Axloq va jamoatchilik fikrining O'zaro aloqadorlik mehyori jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyasiga, yalpi taraqqiyot uchun tanlangan rivojlanish dasturiga, mantiqiy yo'nalishlar O'ziga xosligiga, xalq mahnaviyatiga va milliy O'ziga xosliklar omillariga bog'liqdir;

- 4) Sovet tuzumi davrida «avval iqtisod keyin siyosat» aqidasining amal qilishi, iqtisod, siyosat «avval materiya sO'ng ong» degan moddiyunchilik shiorlarining g'oyaviy tahsirtazyiqi ostida shakllantirilganligini puxta hisobga olish zarurdir. Mahnaviyatning birlamchiligi, umuminsoniy tamoyillar ustuvorligini ehlon qilib, ozod jamiyat qurishga kirishgan O'zbekistonda nafaqat iqtisodiy, balki chuqur mahnaviy bO'xtonlar botqog'idan muvaffaqiyat bilan chiqilmoqda;
- 5) Jamoatchilik fikri xalq anhana va urf - odatlariga mustahkam tayanadi va ularning jamiyat hayotida amal qilishiga imkoniyat yaratadi. Zero, anhanalar axloqiy qarashlarning progressiv jihatlarini avloddan - avlodga yetkazuvchi muhim omili, xalqning O'ziga xos qiyofasini saqlab qolish va himoyalash mezonidir;
- 6) Axloq kategoriyasining muayyan urug', qabila, elat va xalq miqyoslaridan xalqaro miqyoslarga O'sib O'tish, umuminsoniy tamoyillar negizida umumplanetar axloqning tarkib topishida jamoatchilik fikri O'ziga xos kO'prik vazifasini O'taydi. Ayni chog'da jamoatchilik fikri va axloq jamiyatda umumiy murosa va madoraning turg'un maromini tahminlash jarayonidagi muvofiqlikda rivoj topa boradi, bir - birini tO'ldiradi, bir - biriga uyg'un tarzda mukammallashadi.

### **Tayanch atamalar.**

1. **Axloq**-ijtimoiy ong shakli sifatida muayyan xalq, elat yoki uyushmaning asrlar davomida shakllangan xulq-atvor, xatti-harakatlar, xis-tuygu va kishilar O'rtasidagi O'zaro real munosabatlari tizimini ifoda etadi.
2. **Totemizm** - uning urug'i degan mahnoni bildiradi. O'z urug'ini qandaydir hayvonlar, qushlar, hashoratlar olib borib taqaydigan qarashlar.Tegishli xayvonlarda O'z O'tmishini ko'rish, shu hayvonlar bilan bog'liq tasavvur, ramzlar, odatlar va irimlar yuzaga keltirish. Masalan: hindlarda sigir, qozoqlarda uchqur ot, inglizlarda burgut, turon turklari-O'zbeklarda afsonaviy Humo qushi va hokazolar.
3. **Matriarxat tuzumi** - ONA urug'i davri. Oilada ona mavqei baland bo'lib, urug' onaga qarab yuritilgan, qarindoshlik ona tomonidan belgilangan. Odamlarning asosiy mashg'uloti termachilik, ovchilik bo'lgan.
4. **patriarxat tuzumi**- ota urug'i davri. Jamoa hayotida erkaklar asosiy O'rin tutib, qarindoshchilik ota tomonidan hisoblangan davr.
5. **Madaniyat** - (arabcha «madaniyat»-madinalik, shaharlik, tahlim-tarbiya ko'rganlik)- kishilarning tabiatni, borliqnip O'zlashtirish va O'zgartirish jarayonida yaratgan moddiy mahnaviy boyliklar hamda bu boyliklarni qayta tiklash va bunyod etish yo'llari va usullari majmui.
6. **TSivilizatsiya** - (lot. fuqarolik, fuqarolikka oid, davlatga oid degan mahmolarni bildiradi) - jamiyat rivojidadagi bosqich bo'lib, ijtimoiy va madaniy rivojlanish darajasi sifatida madaniyat tushunchasi bilan bog'liq.
7. **Dunyo dinlari** — Iudaizm, Xristianlik va Islom.
8. **Jadidchilar** - (arabcha "yangi usul") mahrifat tarqatuvchi, yangilikka intiluvchilarga nisbatan qo'llanilgan.
9. **Qadimchilar** - dinni ilk paydo bo'lgan davrdagi holatga qaytarish tarafdorlari. XX asr boshlarida Markaziy Osiyoga Xijozdan kirib kelgan.



## **6-Mavzu Ijtimoiy stratifikatsiya va yoshlar sotsiologiyasi. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi.**

### **Reja:**

- 1. Ijtimoiy stratifikatsiya sotsiologiyasi.**
- 2. Yoshlar sotsiologiyasi.**
- 3. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi.**

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi T., «SHarq» 1999
2. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi T., «O'zbekiston» 2000
3. Karimov I.A. Ozod vo obod Votan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz T., «O'zbekiston» 2000
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Oliy Majlis senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi ma'ruza. «Xalq so'zi» 2005 yil 29 yanvar.
5. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. «Xalq so'zi» 2006 yil 11 fevral.
6. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi halqni-halq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin, «Tafakkur». 1998. №5.
7. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» 2000. iyun.
8. Karimov I.A. Fan Vatan ravnaqiga xizmat etsin. T.2.T.,1996.
9. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. 2008.
10. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.2009.
11. Aliqoriev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya T., ToshDU. 1999 y.
12. Bekmuradov M. Sotsiologiya asoslari T., «Fan» 1994 y.
13. Bekmatov A. Sotsiologiyaga kirish, Andijon. 1995 y.
14. Xolbekov A. Idivov U. Sotsiologiya Lug'at T., «Ibn Sino» 1999 y.
15. Bekmuradov M. Ota-Mirzaev O. Aliqoriev N. va boshqalar. Sotsiologiya T., 2000
16. E Giddens. Sotsiologiya. T., «SHarq», 2002.
17. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. T., 2002.
18. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. UrDU 2003.

### **1. Ijtimoiy stratifikatsiya sotsiologiyasi.**

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz har bir siyosiy tarixiy davrda aholini tabaqalarga bo'lish orqali boshqarish, jamiyat tarkibid sinflar, strata, ijtimoiy guruhlarning bo'lishi kabi, ijtimoiy hodisalariga duch kelamiz. Qadimiy Misr va Vavilonda aholi zadogonlar va qullarga, Afina va Rimda fuqarolar va nisbatlarga, Xindistonda braxmanlar va xizmatkorlarga ajratilgan. Qadimgi Turon mamlakatida asosan aholining:

- a) Urug' qabilaviy kelib chiqishidan;
- b) Kasbiy mansubligidan;

v) diniy ehtiқodiy qarashlaridan;

g) shajaraviy sulolaviy kelib chiqqan holda tasnif etib kelingan.

Turon tarixidan maھlumki, jamiyatni ana shunday tasnif etish har bir ijtimoiy guruh, strataning ijtimoiy O'zni va rolini obhektiv baholash, ulardan samarali foydalanish, umumdavlat miqyosida ularning murosaviy konsensusini tahminlash, siyosiy boshqarish imkonini bergan.

Jamiyatni O'rganish tamoyillari, ijtimoiy iqtisodiy vokelikka yonda shuv xususiyatlari doimiy ravishda O'zgarib, takomillashib boradi. Totalitar tuzum davrida ijtimoiy taraqqiyotning bosh sababi sinflararo kurash deb qaralganligi sababli jamiyatdagi muammolarga umumiy yondashib, bir sinf vakillari bilan ikkinchi sinf sinf vakillari qarashlaridagi tafovutni aniqlash barcha ijtimoiy fanlar xususan sotsiologiyaning ham asosiy ilmiy tadqiqot tamoyillaridan hisoblanib kelingan.

Jamiyatning tinchlik sharoitida mO'htadil va odatiy holatlardan barcha ijtimoiy ziddiyatlarni asosan muayyan sinflar, urug' va tabaqalar ichidagi qarama-qarshiliklar tarzida namoyon bo'lib keladi. Ijtimoiy guruhlardan tabiiy amal qilish holati bo'lgan ichki, botiniy muammo va ziddiyatlarning sinflararo ziddiyatlarga kO'chishi, yahni bir guruh ziddiyatlarning boshqa guruhlar tomonidan O'zlashtirilishi ziddiyatlarning ijtimoiylashuvi umumjamiyat kataklizmiga, sinflararo, davlatlararo urushlarga olib kelgan bunday yondashuv tabiiyki jamiyat ijtimoiy guruhlarning siyosiy- ijtimoiy, mulkiy-mahnaviy baravarlashtirishga ijtimoiy psixologiya masalasini O'rganishning negizi mazmunidan, yahni ichki jihatlaridan tashqi tomonlariga burib to'liq ehtiyoji va zaruratidan kelib chiqqan bo'lib, kishilar tomonidan voqealik O'zgarishlari mohiyatini bilish milliy O'zlikni anglashga bo'lgan intilishlariga yo'l bermaslikni ifodalalar edi.

Bunday yondashuv aholini mahnaviyat zabun qilar O'z haq-huquqlari uchun kurash O'zlikni muxofaza etish, O'zgalarga kerakali bo'lishdan ijobiy fazilatlar rivojiga yo'l bermasdan, egalum, surbotlik, boqimandalik, yal kovlik, ijtimoiy mulkka nisbatan yulgichlik xususiyatlarini tarkib topti rar edi.

Ikkinchi katta ijtimoiy qusur bu ijtimoiy vokelikni idrok etishda induktiv yondashuvning mutloklashtirishdan iborat edi. Induktiv metod, yahni xususda umumning tO'la nomoyon bo'lishi g'oyasi har qanday holatda umumiy ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan kathy nazar amal qilishi mukarrar, deb qarashdan kelib tan olmaslik oqibatida tabiat va jamiyatga unglab bo'lmas darajadagi katta zararlar yetkazildi.

Induktiv metodni mutloqlashtirishning mahnaviy O'z-O'zini anglash borasida juda zararli ekanligi SHarq va G'arb mutafakkirlari ZardO'sht, Lao TSzin, Konfutsiy, platon, Aristotelgp, TSitseron, Imom Buxoriy, al-Moturidiy, Forobiy, Beruniy va boshqalar O'z asarlarida asoslab berganlar.

Totalitar tuzum davrida tabiatning noyob istehdodlari oyoq osti qilinganligi, hammani barobarlashtirish shiori ostida qarab kelinganligi kishilarni "jamiyatning vintiklari" va ularni istagan paytda birini ikkinchisi bilan almashtirish mumkin deb yondoshish uslubi keng kO'lamda amalda bo'lib keldi.

Ijtimoiy adolatni qaror topshirish tarixi insoniyat tomonidan O'z-O'zini anglash jarayonlari boshlanishi bilan bog'liq. Dunyoni ilk kitoblaridan sanalmish "Avesto"da aholining barcha qatlamlari, kavmlari va guruhlari uchun umumiy turmish tarzi qoidalari tafsif etiladi. Antik dunyo qonunshunosi Solon tomonidan yaratilgan ilk qoidalar majmui ham turli xil ijtimoiy guruhlar O'rta asrda totuvlik va murosa meyorlaridan iboratdir. Stratifikatsion tasniflarni O'rganganda, olamni yaxlit bir butunlik tarzida tasavvur etish, yahni "Olamiy uyg'unlik" nazariyasiga monantlik jihatlarini ham ehtiborga olishimiz kerak bo'ladi. Bu nazariya tarafdorlaridan biri

platon olamiy jon olamni ruhlantirib, O'zi sonli nisbatlarga, gormonik tartibga bO'ysunadi deb qaraydi. platondan farqli, Aristotel tartibsizliklardan vujudga keladigan olamiy uyg'unlikka bir muncha O'ziga xos yondashadi va uni jondagi manba emas balki faqat narsalar tabiatidagi manba deb cheklanadi.

Stratifikatsiya sotsiologiyani asosiy tushunchalaridan biri sifatida jamiyatning ijtimoiy tarkibi, ijtimoiy guruhleri va ularni tabaqalanishi belgilari tizimini O'zida aks ettiradi. Hozirgi zamon stratifikatsion yondashuvining nazariyotchilari ijtimoiy guruhlarning ishlab chiqarishidagi ishtiroki, jamiyatning asosan mulkka bo'lgan munosabat asosida tabaqalashuvi xususidagi marksistik yondashuvini inkor etib jamiyat, malhumot, ruhiyat, maishiy shart sharoitlar, bandlik darajasi, daromad kO'lamlari va boshqa belgilarga ko'ra tabaqalanishini asoslab beradilar. Ular yuqoridagi belgilarga ko'ra ajraluvchi ijtimoiy guruhlardan tashqari, yuqori tabaqa, O'rta tabaqa va quyi tabaqa doimiy amal etishini tahkidlaydilar.

Keyingi 20 yilda rivojlangan G'arb, xususan AQSHda O'rta tabaqa kontseptsiyasini O'rta sinf kontseptsiyasi bilan ayni uyg'unlashtirish tendepsiyasi yuz bermokda. O'rta sinf jamiyatni O'ziga xos milliy, irkiy intelleptual va moliyaviy tenglik va barqarorlik meyorlari sifatida O'ziga xos ijtimoiy kontsensensus vazifasini ham O'tamoqda. SHu boisdan O'rta sinf hissasining ortishi jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik sharti sifatida ham talqin etilmokda. O'rta sinf vakillari miqdori esa ulardagi kO'chmas mulk hajmi, bankdagi mablag'lari, turli manbalardan olgan foidalari, boshqa daromadlardan davlatga tO'lanadigan soliklari salmog'iga ko'ra yilma yil aniqlab boriladi. G'arb mamlakatlari turmush tarzini O'ziga xos barometri vazifasini O'tayotgan O'rta sinf fenomeni garchi rivojlangan Yevropa davlatlari uchun ijtimoiy - iqtisodiy qadriyat darajasida kelinayotgan bo'lsada, bu qadriyat O'rta sinf vakillarini yuqori va qO'yi sinf vakillari bilan mahnaviy yakinlashtirish imkonini bermadi.

Insoniyatning 5 ming yillik utmishi kishilarning xavf umumiy bo'lganda birlashuvlari tarixidan iboratdir. Keng xalq ommasining nechog'lik kO'p miqdori birlashuvi uning xavfqa qarshilik salmog'ini shunchalik oshirib tO'rgan. Ammo xavf tazyiqi susayishi bilan birlashuvlari ham yemirilib borgan.

Insoniyat tarixida stratalar xalqning madaniy takomillashganlik belgilari sifatida ham baholanib kelingan. Xususan, gilamdo'zlar, do'ppido'zlar, temirchilar, bog'bonlar va boshqa kasbiy stratalar muayyan mehnat faoliyati orqali nafaqat O'ziga xos iqtisodiy-ijtimoiy hayot yo'rig'ini amalga oshirganlar, balki O'z qavmlari siru-sinoatlarining O'zgalar mulkiga aylanmasligi erishilgan komillik qadriyatiga putur yetmasligi xususida ham qayg'urganlar.

Xalqimiz O'z stratalarini himoya qilib kelgan, zero, bu himoya nafaqat kavmlar, shakllangan kasb-va ijtimoiy guruhlar mavqeini muxofaza etish shakllarida balki axloqiy yondashuvlar tizimini turmush tarzi yaxlitligini, xalq urf-odatlarini va anhanalarini saqlash uchun kurash lavhalarida ham nomoyon bo'lib kelgan.

O'zbek xalqi stratalarining tarkibi va tizimi tahlili etnoregional xususiyatlarini ham hisobga oladi. Mahlumki, O'zbek xalqi tarixan shakllangan 92 urug'-etnoelement mahsulidir. Bu etno-tasnif tarkibidagi har bir urug' alohida stratifikatsion tadqiqot talab etuvchi etnik birliklardir. Mazkur urug'larning ijtimoiy-tarixiy O'rni tahlil etilganda uning nafaqat O'zbek xalqi etnogenezisini O'rganishdagi ahamiyati oydinlashadi, balki uning umumturkiy makroetnosida tO'tgan tarixiy O'rni va ijtimoiy mavqesi yuzaga chiqadi.

O'zbekistonda keng tarmoqli yaxlit stratifikatsiya tadqiqot ishlarini amalga oshirish zaruriyati va dolzarbligi bugungi kunda O'zbek xalqi milliy O'zligini to'g'ri idrok etish,

milliy mentalitet imkoniyatlaridan samaraliroq foydalanishga yo'l yechadi. Bugungi kunda O'zbekiston ijtimoiy jarayonlar tarkibi va tizimini xarakterlovchi 12 ta stratifikatsion tizimlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ular quyidagilar.

- 1) Ijtimoiy kasbiy tasnifga ko'ra tiplar.
- 2) Qavm-sulolaviy asoslarga ko'ra tiplar.
- 3) Madaniy-estetik darajalarga ko'ra tiplar.
- 4) Yosh davrlariga ko'ra tiplar.
- 5) Etno-hududiy tiplar.
- 6) Diniy-konfessional tiplar.
- 7) partiyaviy-ehtiqodiy farqlarga ko'ra tiplar.
- 8) Urug'-qabilaviy tiplar.
- 9) Muayyan manfaatlar doirasida uyushgan korporativ tiplar.
- 10) Jinsiy tasnifga ko'ra tiplar.
- 11) Huquqbuzarlikka moyillikka ko'ra tiplar.
- 12) Madaniy-ramziy intilishlarga, qiziqishlariga ko'ra aholi tiplari.

O'zbekistondagi ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlarini O'rganishda konkret sotsiologik tadqiqot metodlari, xususan, anketa, intervgpyu test, hujjatlarni O'rganish usullariga real holatlar taqozosi asosida yondashiladi va ular orqali olingan birlamchi ma'lumotlar kontent analiz usulida qayta ishlanadi.

Jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalarni O'rganishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

-Tadqiqot davomida ijtimoiy stratalarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, ularning ijtimoiy tarkib va tuzumdagi O'rni va mavqeini hurmat qilish;

-Stratalar ijtimoiy statikasi va dinamikasi jarayonlarini ilmiy baholashda tizimiy va yaxlit yondashishi;

-O'zbekistondagi ijtimoiy stratalarning milliy mentaliteti, regional-hududiy xususiyatlarini alohida ehtiborga olish;

-Ijtimoiy stratalar tarkib topishiga sezilarli tahsir O'tkazuvchi siyosiy - iqtisodiy, ijtimoiy, diniy-konfessional, mafkuraviy omillarni O'rganish;

-Ijtimoiy stratalar tasnifini tuzishda siyosiy tahlil usullaridan foydalanish.

## 2.Yoshlar sotsiologiyasi.

Bugungi kunda O'zbekistonda yashovchi aholining 60%idan ziyodini 24 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil qiladi. Demograflarning tadqiqotlariga qaraganda, mamlakatimiz aholisining yuqori surhatlar bilan ushbu yoshlar chorak asrda ham davom etadi. 2015 yilga borib O'zbekiston aholisi 1,5 barobar ortib jami 36 mln 330 ming kishidan ortishi kutilmoqda. SHu davr mobaynida mehnatga yaroqli aholining soni ham 2 barobar oshib, 2015 yilda 20 mln kishini tashkil etadi.

Bu raqamlar faqat yurtimiz aholisining son jihatdan O'sishinigina ko'rsatib qolmay, u navqiron millat sifatida katta intellektual imkoniyatlarga ega ekanini ham namoyon etadi. prezidentimiz Islom Karimov «O'zbekiston–kelajagi buyuk davlat» degan g'oyani ilgari surganida albatta yuqoridagi ko'rsatkichlarga asoslanganligi tabiiy.

Milliy mafkuramizning muxtasar shioriga aylangan ushbu so'zlar nafaqat ruhlantiruvchi dahvat, balki amaliy natijaga aylanishi uchun davlat jamiyatning eng faol qatlami bo'lgan yoshlarga katta etibor qaratmokda. «Sog'lom avlod uchun» ordenining tahsis etilishi, «Kamolot», «Umid», «Mirzo Ulug'bek» jamg'armalarining tuzilishi, yoshlar muammolari instituti faoliyatining yo'lga qO'yilishi, O'zbekiston Respublikasining tahlim

to'g'risidagi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi va hayotga jadal joriy etilayotganligi, televidenie va radioda maxsus yoshlar kanalining tashkil etilishi kabi faktlar ushbu so'zlarning amaliy isbotidir.

Yoshlarni har tomonlama yetuk komil insonlar qilib tarbiyalash bilangina, dunyoda O'zbekistonning iqtisodiy, siyosiy O'rni yuksalishiga erishish mumkin. SHu bois yurtboshimiz «biz istehdodli, fidoiy bolalarimizga farzandlarimizga bilim va kasb chO'kqilarini zabt etish uchun qanot berishimiz kerak»<sup>1</sup>—degan edilar.

Tahlim tizimidagi yangi milliy modelimiz jamiyatdagi potentsial kuchlarni ruyobga chiqarishga mO'ljallangan. Tahlim jarayoniga davlatning katta ehtibori, kO'plab sarmoyalar sarflanishi mamlakatimizda aholining yalpi komillik yo'liga chiqib olishiga real shart sharoitlar tug'dirmoqda.

Yoshlarning intellektual ruhiy kamoloti ularning mahnaviy O'z-O'zini anglashi jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir.

Yoshlar milliy O'zligini anglash sharoitida ular ijtimoiy manfaatlarini O'rganish hamda nazariy jihatdan tadqiq muhim ahamiyatga ega bo'lib, bular quyidagilar:

-fikrlar xilma-xilligi nuqtai-nazaridan mustaqillik sharoitida ijtimoiy manfaatlar mavjud kontseptsiyalar orqali tahlil etiladi va zamonaviy sharoitlarga xos bo'lgan qarashlar tarzida ifodalab beriladi;

-ijtimoiy manfaatlarni jamiyat taraqqiyotidagi O'rni, ahamiyati hamda zamonaviy siyosiy jarayonlarda siyosiy va iqtisodiy manfaatlarni O'zaro uyg'un tarzda O'rganadi;

-ijtimoiy manfaatlar mohiyati, mazmuni hamda jamiyat rivojidadagi O'rni masalalarini sotsiologik jihatdan tahlil etadi;

-jamiyatda ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va mahnaviy omillarning ijtimoiy manfaatlariga tahsiri O'rganadi;

-hozirgi davrda ijtimoiy taraqqiyotga xos jarayonlar rivojida etnik manfaatlarning O'sib, milliy va umuminsoniy mazmun kasb etish xususiyatlarini nazariy tadqiq etadi.

Sotsiologiya fani yoshlarni jamiyatdagi ijtimoiy va ruhiy O'ziga xos holatga ega bo'lgan yirik ijtimoiy guruh sifatida O'rganadi. Bu ijtimoiy va ruhiy holatda ularning nafaqat yoshdagi tafovutlari, balki ijtimoiy iqtisodiy, shuningdek ijtimoiy siyosiy mavqei ham O'z ifodasini topadi. Yoshlar deganda, mahnaviy dunyosi shakllanish jarayonida bo'lgan, asosan 16-30 yoshlardagi inson tushuniladi.

Biroq yoshlarning ijtimoiy jihatdan bir-biridan farqlanishi ayrim mutaxassislarni yoshning «yuqori» chegarasini turli guruhlarning ijtimoiy iqtisodiy va kasbiy sifatleri shakllanishi davomiyligiga qarab aniqlashga undamoqda. Jumladan, yosh ishchining bir kasb boshini qat'iy tutishi asosan 25 yoshlarda amalga oshsa, yosh olim 35 yoshida shakllanib ulguradi. Yosh chegaralari u yoki bu mamlakatdagi mavjud tarixiy sharoit hamda ijtimoiy tuzumga bevosita bog'liqdir. KO'pgina mamlakatlarda yoshlikning qO'yi chegarasi tegishli mehyoriy-huquqiy hujjatlarda yozib qO'yilgan. Mustaqil kasb faoliyati bilan shug'ullanish, komillik yo'liga chiqib olishiga real shart-sharoitlar tug'dirmoqda.

Yoshlarning intellektual-ruhiy kamoloti ularning mahnaviy O'z-O'zini anglashi jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida ular ijtimoiy ideallarning susayib ketishiga yo'l qO'ymaslik muhimdir.

Yosh chegaralari u yoki bu mamlakatdagi mavjud tarixiy sharoit hamda ijtimoiy tuzumga bevosita bog'liqdir. KO'pgina mamlakatlarda yoshlikning qO'yi chegarasi tegishli mehyoriy-huquqiy hujjatlarda yozib qO'yilgan. Mustaqil kasb faoliyati bilan shug'ullanish huquqi O'z xatti-harakatlari uchun fuqaro sifatida javob berish qobiliyatiga, nikohga kirish huquqi yoshlikning quyi chegarasini aniqlashni taqozo etadi.

<sup>1</sup> Каримов.И.А. Баркамол авлод орзуси Т. «Шарк».1999.132-бет.

Hozircha bu jahon tajribasida 14-16 yoshni tashkil etadi. Jamiyatning alohida bir qatlamini tashkil etuvchi yoshlar vaqt

O'tishi bilan O'zga, yanada barqarorroq ijtimoiy qatlam (masalan, ishchi, ziyoli va boshqa) vakiliga aylanadi. Bugungi yosh vatandoshlarimiz asosan O'rta saxsus O'quv yurtlari O'quvchilari va talabalar tashkil etadiki, ular hayot tarzining asosiy qismi O'qish va kelajak hayotga tayorgarlikdan iboratdir.

Yoshlik-bu axloqiy idealni izlash, maqsadlarni va hayotiy pozitsiyani shakllantirish, kasb tanlash, oilaviy hayotga tayyorgarlik pallasidir. Hayotga kadam qO'yayotgan yigit-kizlar uchun ular faoliyati ijtimoiy foydali bo'lishigagina emas, balki bu faoliyat O'z shaxsiy maqsadlariga, intilishlariga muvofiqligi, hayot rejalarining amalga oshishiga mumkin qadar tO'laroq kO'maqlashish g'oyat muhimdir.

Jamiyat O'z oldiga mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish vazifasini qO'ymoqda. Bu O'z qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash deganidir. SHundagina ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. prezidentimiz tahkidlaganidek «shunda odam olomon bo'lib, har lahzada serkaga ehtiyoj sezib emas, aksincha, O'z aqli, O'z mehnati, O'z tafakkuri, O'z mahsuliyati bilan ong tarzda ozod va hur fikrli inson bo'lib yashaydi. Bunday odamlar uyushgan jamiyatni, ular barpo etgan mahnaviy ruhiy muhitni aslo buzib bo'lmaydi. Ularni O'z aql-idrok va qalb amri bilan tanlab olingan hayotiy maqsadlardan chalg'itib ham bo'lmaydi».

Sotsiologiya fani nazarini yoshlarga qaratish, ularning muammolari, uy-fikrlari, tashvishlarini bilib yoshlar siyosatini ilmiy asosga kuchirish yuqorida tahkidlangan ijobiy natijalarni berishi mumkin.

### **3.Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi.**

Jamiyatda insonlar faoliyati hatti-harakatlari va xulq atvorlarini ijtimoiy mehyorlar boshqaradi. Ijtimoiy mehyor- jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan ijtimoiy muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir. Ijtimoiy mehyorning xulqiy, axloqiy, diniy hamda urf odatlariga oid turlari mavjud. Ijtimoiy mehyorning afzalligi shundaki, yoshligidanoq muayyan moslashtirib borilgan shaxslar kO'pchilik tomonidan qabul qilingan tamoyillar doirasidan chetga chiqmaydi va boshqalardan ham shuni kutadi. Jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmasdan, balki unga tO'siq bo'luvchi mehyordan og'ish holatlari ham mavjud bo'lib, sotsiologiyada bu narsa «Deviantlik holatlari», undan tug'iluvchi xulq atvorni «Deviant xulq-atvor» deb nomlanadi. Deviant xulq-atvor jamiyatda O'rnatilgan axloq mehyorlarga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat , ijtimoiy hodisa bo'lib, yolg'onchilik, dangasalik, ugirlik, ichkilikbozlik, giyoxvandlik, O'z joniga qasd qilish va boshqa kO'plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi. Deviant xulq-atvor deganda quyidagilar nazarda tutiladi: A) Jinoyatchilik. Muayyan davlatda O'rnatilgan qonun va mehyorlarga nisbatan ayrim shaxslarning salbiy munosabati jinoyat, mazkur shaxs esa jinoyatchi hisoblanadi.

V) Ichkilikbozlik. 1) Alkogolni har zamonda istehmol qilish.

2) Alkogolni kO'p istehmol qilish.

3) Alkogolizm- spirtli ichimliklarga patalogik O'rganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik.

S) Giyohvandlik. Giyohvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarga doimiy ruju qO'yish va tibbiy ko'rsatmalarsiz istehmol qilish.

D) Fohishabozlik. Ikki turga bo'linadi. 1. Konkubinat – nikohsiz birga yashash. 2. Fohishabozlik – pul uchun O'z tanasini sotish. G'arb mamlakatlarida asosan ikkinchisi qoralansada, SHarqda ikkala holatga ham mehyordan og'ish sifatida qaraladi. Ulardan tashqari, xalqimizda mahalliychilik, urug' aymoqchilik boqimandalik kabi salbiy holatlar ham mehyordan chekinishning diqqat talab ko'rinishlaridan hisoblanadi. Deviant xulq-atvor bir shaxsning salbiy xulq-atvordan iborat faoliyatini, shuningdek, muayyan guruhning og'ma xulq-atvorlarini ham ifodalovchi tushunchadir.

Mahlumki, ijtimoiy mehyor va ulardan chekinishlar haqidagi qarashlar insonning ijtimoiylashuv jarayoni bilan bir vaqtda paydo bo'lgan. Qadimgi xalqlarning diniy-mifologik tasavvurlari, xususan Misr, Hindiston va Xitoy diniy qonun qoidalaridagi axloqiy mehyorlar bu sohadagi dastlabki qarashlar edi. Ushbu «Qonunlar»da barcha huquqlar insonga xudolar tomonidan beriladi va qonun buzuvchilarni xudolar jazolaydi, deb hisoblangan.

O'rta asrlarda aholi mehyorlari diniy qarashlar tahsiri ostida rivojlandi va ulardan chekinish diniy nuqtai-nazardan baholangan. Yevropada xristian dini barcha sohada hukmronlik qilgan bo'lsa, SHarq dunyosida axloqiy huquqiy mehyorlar va ular haqidagi tahlimotlar islom falsafasi tahsirida rivojlandi. XVIII asr mutafakkirlari ijtimoiy mehyoriy va undan chekinish muammosini yanada chuqurroq tahlil qildilar. Monteskgpe, Russo, Bekkorio, Gelgpvetsey, Didro, Golgpbox, Morelli va Furgpelar O'z ilmiy izlanishlaridan ijtimoiy mehyorlar, qadriyatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarini topishga intildilar.

XIX asr oxirlarida tabiiy fanlarda erishilgan ilmiy yutuqlar ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga ham O'z tahsirini ko'rsatdi. Xususan, sotsiologiyada ijtimoiy mehyordan og'ish holatlarini tushuntiruvchi dastlabki tahlimot, Dyurkgeymning "Anomiya" g'oyasi edi. Dyurkgeym fanga O'zi kiritgan "Anomiya" atamasi orqali qonunchilikni, qonunlarning tan olinmasligi va ularga amal qilinmaslikni tushunadi.

Deviant xulq atvor muammolarini tahlil qilishda Merton ishlab chiqqan tahlimot sotsiologiyada yetakchi O'rin tutadi. Dyurkgeymning "Anomiya" g'oyasini rivojlantirib, Merton deviant xulq atvoriga quyidagicha tahrif beradi: "Deviant xulq atvor jamiyatda ehlon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq atvor standartlari bilan aholi xulq atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarni bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir".

SHaxslarda yuz beruvchi deviant holatlarning paydo bo'lishi shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan 3ta omilni ko'rsatish mumkin. Bular shaxs xususiyatlari, muammoli holat va ijtimoiy nazorat institutlaridir.

a) SHaxs xususiyatlarining shakllanishida asosan 3ta omil muhim ahamiyat kasb etadi, bular:

-irsiy omillar;

-psixofiziologik omillar;

-shaxsning bilim darajasi.

b) Muammoli vaziyat shunday holatki u subhektdan yechimini talab qiladi, uning yechimi ijtimoiy mehyorlarda ko'rsatilgan bo'lsada, u yoki u sabablarga ko'ra, ushbu mehyorlarni qO'llash qiyinroq bo'ladi.

Eng katta muammoli vaziyat ziddiyatli holatlarda, yahni turli shaxslar yoki guruhlarining mahnfatlari bir-birilariga to'qnash kelganda yuz beradi. SHu O'rinda tahkidlab O'tish joizki O'z joniga qasd qilishlarning 40 foizi oilaviy mojarolardan paydo bo'ladigan ziddiyatlar oqibatida sodir etiladi. Jamiyatda shaxs shakllanishiga tahsir etuvchi muammoning va uni hal qilish imkoniyatlarining murakkabligi darajasiga ko'ra

muammoli holatning 4ta asosiy holati kO'zga tashlanadi:

1. Hech qanaqa muammo yO'q holat, bunday holat hech qanaqa qaror qabul qilishni talab qilmaydi;

2. Muammo bor, biroq qiyinroq yoki osonroq bo'lsada, uning yechimi ham ijtimoiy mehyorlarda ko'rsatilgan holat;

3. Mavjud muammoni subhekt ijtimoiy mehyorlar doirasida hal qila olmaydigan holat;

4. Muammoni hech qanaqasiga hal qila olmaydigan holat. Ushbu turlicha holatlar keng kO'lamda biridan ikkinchisiga O'tib turadi. Jamiyat ahzolari shaxsiy nuqtai-nazarlarining shakllanishiga, ularning deviant xulq atvorga nisbatan ijtimoiy faol munosabatlarini tarkib topishiga tarbiyaviy jarayonlar uchun bevosita mutasaddi shaxslar, tashkilotlar xabarlarining O'rni va roli kattadir. "Bahzilarga mumkin, boshqalarga mumkin emas", "Hozir yaxshi ertaga yomon" va shu kabi munosabat holatlarining ikkilamchi fehl atvor shaklida, yahni parallel standartlar yo'nalishida amal qilishiga izn berish juda xavflidir shu boisdan har qanday holatlarda ham mansabdor shaxslar turli jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalarining rahbarlari, pedagog tarbiyachilar, qonunni himoya qiluvchi tashkilotlar vakillarining xulq-atvor mehyorlarini buzishi qathiy qoralanadi.

Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik giyohvandlik, O'z-O'zini O'ldirishlar bilan bog'liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va ijtimoiy oqibatlariga ko'ra mohiyatdan farqli jihatlariga egadir.

Birinchi farq, ijtimoiy zararli odatlarning uzoq davom etishi deviant xulqi turmush tarzining uzviy bo'lagiga aylanib ketishidan iborat bo'ladi. Doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrof-muhitdan norozilik, ishdagi tushunmovchiliklar va hokazolar, bularning bari mavjud vaziyatni O'zgartirishga urinadi. Bu O'rinda ijtimoiy institutlardagi kamchiliklar, shu jumladan, ziddiyatlar rivojlanishining oldini oluvchi va ularga qarshi kurashuvchi ijtimoiy nazorat tizimlari ham salbiy rolga O'ynaydi.

Ikkinchi farq, yuqoridagi holatlarni hal qilishning mahlum qiyinchiliklarga egaligidir. Mahlumki, har qanday holatda ham, kO'p "qurbon" berib bo'lsada, to'g'ri yechimga erishish mumkin. Lekin hamma gap shundaki, subgpekt "qurbon" bera oladimi: xotini (yoki eri) bilan ajrashib keta oladimi yoki yO'qmi. Kathiy qarorga kela olmay, kO'pincha subhekt O'rinbosuvchi vositalarga, ichkilik va giyohvand moddalarga murojaat etadi. Biroq bu yo'l ziddiyatning chuqurlashuviga va turmush tarzini zararlantiruvchi faktorga olib keladi.

SHaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni jamiyatning va atrofdagi odamlarning qathiy nazorati ostida amalga oshadi. Insonlar bolalarni faqat O'rgatibgina qolmasdan xulq atvor mehyoriy talablarining to'g'ri bajarilishini nazorat etishadi va bu bilan ijtimoiy nazorat vakili vazifasini bajarishadi.

Agar nazoratni yakka shaxs amalga oshirsa, bu individual tavsifga ega bo'ladi va agar butun bir jamoa, oila, do'stlar, maktab, mahalla tomonidan amalga oshirilsa, ijtimoiy tavsifga ega bo'ladi. hamda ijtimoiy nazorat deyiladi.

Ijtimoiy nazorat vakillari insonlar xulq-atvorini boshqarishning eng muhim vositasi bo'lib, deviant xulq-atvorining oldini olishda ham ushbu jamoalarning O'rni katta bo'ladi.

Inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti bu - oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda sog'lom oila muhitning O'rni beqiyosdir. Keyingi yillarda yurtimizda oila haqida sog'lom avlod haqida O'ylash,



oilani mustahkamlash borasida bir qancha ishlar amalga oshiriladi. Xususan, yurtboshimiz tomonidan 1998 yilni "Oila yili" deb ehlon qilinishi fikrimizning isbotidir.

prezidentimiz I.A.Karimov O'zining "Barkamol avlod orzusi" asarida shunday fikrlar yuritadi. Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos anhanalar, qadriyatlar, urf odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi.

Inson hatti-harakati, xulq atvori va faoliyatini tahlim muassasalari, mahalla, mehnat jamoasi, umumdavlat miqyosida esa, huquqni muhofaza etuvchi organlar (sud, prokuratura, militsiya) ham nazorat qilib boradi va ushbu shaxsga nisbatan ijtimoiy nazorat institutlari vazifasini bajarishadi.

### **Tayanch atamalar**

**1. Ijtimoiy strata**-jamiyat ahzolarining mulk, kasb, irq, millat,jins, hudud, mayl, maqsadlar, didlar asosida bo'lingan alohida uyushmasi.

**2. Konsensus**- murosa.

**3. Olamiy uyg'unlik**-olamni yaxlit bir butunlik tarzida tasavvur etishi.

**4. Yoshlar sotsiologiyasi**- jamiyatning O'ziga xos qatlami bo'lgan yoshlarni O'rganuvchi soha.

**5. Yoshlar tarbiyasi**- bugunning eng dolzarb vazifasi bo'lib, yoshlarda Vatanparvarlik, hurfikrlilik, bilimlik sifatlarini rivojlantirishdan iborat.

**6. Ijtimoiy mehyor**- jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib shaxs yoki guruh hulq-atvorini muayyan ijtimoiy muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir.

**7. Jinoyatchilik**- muayyan davlatda O'rnatilgan qonun va mehyorlar nisbatan ayrim shaxslarning salbiy munosabati.

**8. Anomiya**- qonunchilikni, qonunlarni tan olinmaslik va ular amal qilinmaslik.

**9. Deviant xulq-atvor**- jamiyatda O'rnatilgan ahloq mehyorlarga mos kelmaydigan insoniy faoliyat, hatti-harakat, ijtimoiy hodisa.

### **7-Mavzu: SHaxs, jamiyat, davlat, ijtimoiy boshqaruv, iqtisod va mehnat sotsiologiyasi.**

**Reja:**

**1.SHaxs, jamiyat va davlat sotsiologiyasi**

**2.Ijtimoiy boshqaruv sotsiologiyasi**

**3.Iqtisod sotsiologiyasi**

**4.Mehnat sotsiologiyasi**

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi T., «SHarq» 1999
2. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi T., «O'zbekiston» 2000
3. Karimov I.A. Ozod vo obod Votan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz T., «O'zbekiston» 2000
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Oliy Majlis senati

- va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi ma'ruza. «Xalq so'zi» 2005 yil 29 yanvar.
5. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. «Xalq so'zi» 2006 yil 11 fevral.
  6. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi halqni-halq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin, «Tafakkur». 1998. №5.
  7. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» 2000. iyun.
  8. Karimov I.A. Fan Vatan ravnaqiga xizmat etsin. T.2.T.,1996.
  9. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. 2008.
  10. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.2009.
  11. Aliqoriev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya T., ToshDU. 1999 y.
  12. Bekmuradov M. Sotsiologiya asoslari T., «Fan» 1994 y.
  13. Bekmatov A. Sotsiologiyaga kirish, Andijon. 1995 y.
  14. Xolbekov A. Idirov U. Sotsiologiya Lug'at T., «Ibn Sino» 1999 y.
  15. Bekmuradov M. Ota-Mirzaev O. Aliqoriev N. va boshqalar. Sotsiologiya T., 2000
  16. E Giddens. Sotsiologiya. T., «SHarq», 2002.
  17. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. T., 2002.
  18. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. UrDU 2003.

### **1. SHaxs, Jamiyat va davlat sotsiologiyasi.**

SHaxsning paydo bo'lishi, uning jamiyatdagi O'rni va mohiyati doimo sotsiologiya fanining muhim va bahs talab sohalaridan biri bo'lib kelgan. Insonning mohiyatini O'rganish eramizdan oldingi davrlarda Xitoyda boshlangan edi. Buyuk faylasuf Konfutsiy va uning izdoshlari inson shaxsining mazmuni, mohiyati, shakllanishi va rivojlanishiga doir qimmatli fikrlar bildirganlar. Eramizdan oldingi 298-238 yillarda yashagan olim Sengp-TSzi shunday deb yozgan edi: "Tug'ma xususiyatlar bu-samoviy munosabatlar hosili bo'lib, ularga tahlim yoki ularni odamning O'zi yaratishi vositasida erishib bo'lmaydi. Inson yovuz tabiatga ega. Insondagi ezgulik manfaatlar uchun orttirilgan fazilatdir. Hozirgi inson tug'ilishidan boshlab foyda olishga intiladi. Bu shunga olib keladiki, kishilar O'zaro raqobatlashadilar bir birlariga yon bermaydilar. SHuning uchun ham tarbiya yo'li bilan inson tabiatini O'zgartirish yaratilgan qoidalar asosida tahlim berib, ularni adolatlilikka va mashuliyatlilikka O'rgatish lozim".

Abu Nasr Farobiy "Arastu falsafasi" asarida qadimgi yunon olimining inson haqidagi fikrlarini quyidagicha sharhlaydi: "Arastu insonda, hayvonlarda bo'lmagan boshqa imkoniyatlar, ruh va ruhiy kuchlardan paydo bo'lolmaydigan sabab va asoslarni topadi. Inson tabiati va unda mavjud bo'lgan tabiiy kuchlarni tushuntirish borasida ular faqat ruh faoliyatiga qaraganda yuksakroq faoliyat uchun moslashganlar degan fikrga keladi..."<sup>1</sup> Bu O'rinda Arastu, nega bunday bo'lishini O'rganishga majbur bo'ldi va inson nutq egasi ekanligini topdi, nutq esa aql bilan bog'liqdir...

Insonning muhim xususiyatlaridan biri -uning ijtimoiy mavjudot ekanligidir. Inson O'zining ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida O'zi kabi insonlar bilan birlashishga intiladi. Insonning ijtimoiylashuvi sunhiy xarakter kasb etib, u shaxs sifatida boshqa insonlar O'rtasidagina shakllana oladi. Agar u insoniy munosabatlardan holi bo'lsa, O'zidagi yovuzlik va hayvoniy tabiatidan holi bo'la olmaydi.

<sup>1</sup> Форобий. А. Н. Фозил одамлар шахри Т. 1993 102-бет.

Insondagi bu tabiiy xususiyatni Abu Nasr Forobiy quyidagicha ifodalaydi: "Har bir inson O'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikga erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir O'zi bunday narsalarni qO'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi.

Bunday jamoa ahzolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikga erishish uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. SHuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga O'rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi"

SHu bilan birga inson fikrlovchi mavjudotdir. U ko'rgan va eshitganlarini yodda saqlaydi, O'z hayoloti, tasavvurlash qobiliyati vositasida bilimlarni, ma'lumot va axborotlarni tahlil etadi, umumlashtiradi, transformatsiyalaydi, boshqalarga uzatadi, bilim va tajribalarini takomillashtiradi, O'z maqsadlari, orzulari va istaklarini tasavvurlay oladi.

Hozirgi davr sotsiologiyasida "inson" deganda Yerda yashayotgan mavjudot turlaridan biri tushuniladi. Inson alohida olingan tur vakilini ifodalovchi umumiy tushunchadir. Inson bioijtimoiy mavjudot bo'lib, u bir vaqtning ichida ham tabiatga, ham ijtimoiy hayotga mansubdir.

Individ esa inson zotining alohida olingan nusxasi, uning vakillaridan biridir. SHaxs esa u yoki bu inson sifatida namoyon bo'lib, u ma'lum va betakror individlikga ega bo'ladi. Individning jamiyatga kirish jarayonlari uning ijtimoiylashuvini tahminlaydi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishish natijasida uning jamiyatdagi qadriyatlar va mehyorlarni O'zlashtirib berish uchun zamin yaratadi. Bu jihatdan u ijtimoiy tahsir obyekti. SHuningdek, individ ijtimoiylashuv oqibatida jamiyatdagi turli munosabatlarda faollashadi va bunda u ijtimoiy munosabatlar obyekti sifatida harakatlanuvchi shaxsga aylanadi.

Zamonaviy jamiyatning paydo bo'lishi bilan insonning ijtimoiy va siyosiy munosabatlardagi O'rni yuksalib bordi. Insonlararo munosabatlar yuksalib, siyosiy institutlarni nazorat etish, inson huquq va erkinliklarini himoya etish, jamiyatda tenglik O'rnatish imkoniyatlari paydo bo'ldi. XX asrga kelib eng takomillashgan va zamonaviy kishilik birliklarini fuqarolik jamiyati, deb atash boshlandi.

Kishilik jamiyati-bu iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va mahnaviy sohalarida kishilar orasida yuzaga keladigan va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan munosabatlar yig'indisi bo'lib, jamoa turmush tarzining tarixiy shakllangan formasidir.

Fuqarolik jamiyati g'oyasi oliy maqsad sifatida bir necha asrlardan beri yashab kelmoqda erkaklar va ayollarni bir biri bilan bog'lab turuvchi ko'plab ijtimoiy, fuqaroviy, diniy, iqtisodiy, madaniy aloqa va munosabatlar yanada rivojlanadi. Fuqarolik jamiyati shaxs uchun keng imkoniyatlar yaratib, unda har bir shaxs boshqalar bilan birlashishi yoki boshqalar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi mumkin. Fuqarolik jamiyati shuningdek insonni ulug'vorlikni, yuksaklikga ko'taradi.

Hozirgi zamon rivojlangan mamlakatlarida barpo etilgan fuqarolik jamiyatlari to'g'risidagi tasavvurlardan kelib chiqadigan bo'lsak, u holda fuqarolik jamiyati bu:

-avvalo, jamiyat hayoti faoliyatining iqtisodiy ijtimoiy va mahnaviy sohalarida ixtiyoriy ravishda shakllangan, boshlang'ich nodavlat tuzulmalarini O'z ichiga qamrab olgan insoniy birlikdir.

-ikkinchidan, jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, milliy, mahnaviy, axloqiy, diniy, ishlab chiqarish, shaxsiy va nodavlat munosabatlar majmuasidir.

-uchinchidan, erkin individlar ixtiyoriy ravishda shakllangan tashkilotlar va fuqarolarning turli davlat organlari tazyiqlari yoki bir qolibga tushib qolishlaridan qonunlar vositasida himoyalangan jamiyat bo'lib, unda ular O'zligini namoyon qila olishlari uchun doimiy

imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

SHu bilan bir qatorda hozirgi davrda fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari shakllandi. Bular asosan quyidagilar:

Iqtisodiy sohada: nodavlat tashkilotlar, kooperativ shirkatlar. ijara jamoalari, aktsiyadorlik jamoalari, uyushmalar, korparatsiyalarning mavjudligi;

Ijtimoiy sohada: oila, partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlari, ish va yashash joylaridagi O'z-O'zini boshqarish organlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari. jomoatchilik fikrini aniqlash, shakllantirish va ifoda etishning zamonaviy shakllari: ijtimoiy ixtiloflarni kuch bilan emas, balki qonunlar doirasida hal qilish amaliyotining mavjudligi;

Mahnaviy sohada: so'z, vijdon va fikrlar erkinligi, O'z fikrini ochiq bildira olishning real imkoniyatlari: ijodiy, ilmiy va boshqa uyushmalar mustaqilligining ham qonuniy, ham ommaviy jihatdan tahminlanganligi.

Fuqarolik jamiyatining belgilari, mezonlari va insitutlarini tasavvur qila olgan har bir kishiga ko'rinib turibdiki, bunday demokratik jamiyatning asosini O'z-O'zini boshqarish va jamoat tashkilotlari O'zaro munosabatlarining majmuasi tashkil qilar ekan. Fuqarolik jamiyati insonlarda O'z-O'zini anglash, ularning obhektiv rivojlanishdagi mashuliyat hissini sezish qobiliyatining yuksalishida hamohang ravishda shakllanib boradi. Bu jamiyatda shakllangan imkoniyatlar fuqarolari siyosiy, axloqiy va huquqiy madaniyatlari darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi<sup>1</sup>. Qadimgi davrdan boshlab to O'rta asrlargacha bo'lgan zamonda davlat keng talqin etilgan, lekin u O'zi tashkil qiladigan va ifodalaydigan jamiyatdan alohida emas edi.

Nikkolo Makiavelli adabiyotlarga "Stato" degan maxsus termini kirgizib, u davlatni, uning qandaydir aniq shaklidan qathiy nazar jamiyatning alohida siyosiy tashkiloti sifatida talqin etdi.

" Davlat" tushunchasi odatda mahlum bir hududda oliy hokimiyatga ega tashkilotni anglatadi. Davlatning mohiyatini yanada chuqurroq va har tomonlama anglash uchun uning muhim belgilarini bilish lozim.

Davlat O'zining tuzilishi jihatidan 3 ga bo'linadi:

**1.Unitar davlat.**

**2.Federativ davlat.**

**3.Konfederativ davlat.**

Unitar davlatda yagona konstitutsiya, yagona hudud va tartiblar amal qiladi va oddiy davlat shaklidir.

2.Federativ davlat bir qancha davlatlarning yagona konstitutsiya va qonunlar doirasida birlashuvidan tashkil topadi.

3.Konfederativ davlat shakli tO'la mustaqil, suveren davlatlarning ixtiyoriy birlashuvi va bunda xalqaro shartnomalar ko'rinishida amalga oshiriluvchi hokimiyat amal qiladi.

Hozirgi davrda bunday davlat shakli mavjud emas.

**Davlat boshqaruv shakliga ko'ra 2 xil bo'ladi:**

1.Monarxiya

2.Respublika.

Monarxiya- yakka shaxsning hokimiyati bo'lib, asosan nasldan-naslga O'tuvchi xarakterga ega bo'ladi. Monarxiya 2 turga bo'linadi: Mutloq monarxiya va konstitutsion monarxiya. Mutloq monarxiyada monarx cheklanmagan hokimiyatga ega bo'ladi. Konstitutsion monarxiyada esa monarxning hokimiyati parlament tomonidan cheklangan

---

<sup>1</sup> Киргизбоев М.Фукаролик жамияти «Ёшлик»журнали 1996й 6-сон

bo'ladi.

**Respublika**-xalq hokimiyatiga asoslangan davlat bo'lib, u ham prezidentlik va parlamentar respublika shakliga bo'linadi.

O'zbekiston respublikasi prezidentlik respublikasi bo'lib, prezident davlat boshlig'i, Vazirlar mahkamasining Raisi, Qurolli Kuchlarning Oliy Bosh qO'mondoni hisoblanadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach prezidentimiz rahnamoligida huquqiy davlat qurish uchun astoydil sahy-harakatlar boshlandi.

Huquqiy davlat - konstitutsion davlatchilikning real amalga oshishidir. Huquqiy davlat-suveren xalq irodasiga buysunuvchi, insonning erkinligi va boshqa huquqlarini himoya qiluvchi, O'z faoliyatini qonunlar doirasida amalga oshiruvchi davlatdir. Bunday davlatda shaxs bilan hokimiyat O'rtasidagi munosabatlar konstitutsiyada belgilab qO'yiladi.

Davlat bilan fuqarolar O'rtasidagi munosabatlarda ustivorlik inson huquqlariga qaratiladi, qonunlar davlat va uning hatti-harakati bilan buzilmaydi. **Huquqiy davlatning belgilari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:**

-rivojlangan fuqarolik jamiyatining mavjudligi;

-barcha fuqarolarning huquqiy tengligi;

-huquqning umumiyliigi, uning barcha fuqarolar, tashkilotlar, muassasalar, jumladan, davlat hokimiyatiga ham teng taalluqli bo'lishi;

- xalq va davlat suverenitetining konstitutsion huquqiy jihatlardan muvofiqlashganligi;

-qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatlarining bo'linishi, ular faoliyatining hamkorlikdagi birligi;

-individ erkinligini cheklash faqat barcha kishilar erkinligi va huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Huquqiy davlat shaxsning mutloq erkinligini bildirmaydi. Har bir shaxsning erkinligi boshqa kishining erkinligiga zid kela boshlasa, xuddi shu yerda uning erkinligi tugaydi.

O'zbekiston Respublikasida milliy istiqlol sharofati bilan bozor munosabatlariga O'tish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish uchun qulay shart - sharoitlar yaratishga qaratilgan islohatlar tobora chuqurlashib bormoqda. Davlat va hukumatimiz milliy mustaqillikning dastlabki davridan boshlab kuchli ijtimoiy siyosat yuritib kelmoqda. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi ham huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishdir. Hozirgi davrda bunday davlat va jamiyat barpo etishning konstitutsion va qonuniy asoslari yaratildi. Demokratik tipdagi milliy davlatchilik shakllandi. Fuqarolik jamiyat sifatida kO'p partiyalilik va O'z - O'zini boshqarish organlari - jamoat birlashmalari tizimi shakllandi.

## **2.Ijtimoiy boshqaruv sotsiologiyasi.**

Ijtimoiy munosabatlarning unumli tarzda kechishini har xil mezonlar yordamida O'rganadigan fan sohasi ijtimoiy boshqaruv deb nomlanadi.

Bu fan umumsotsiologiya fanining XX asrning boshlarida Teylor, Veber, Fayola kabi olimlar asos soldilar. XX asr O'rtalaridan boshlab boshqaruv muommalarining yechilishida sistemali yondashuv qo'llanila boshladi.

Hozirgi davrda korxonalar va tashkilotlarni unumli boshqarish davr talabidan kelib chiqib, samarali boshqaruv mexanizmlarini yaratish va joriy etishni taqoza etadi.

Zero, kuchayib borayotgan integratsion jarayonlar va axborotlar tizimining xalqaro darajaga yetib borishi, raqobatning kuchayishi va boshqalar ijtimoiy boshqaruvga bo'lgan munosabatini foydali tomonga keskin O'zgartiradi va boshqaruv tizimida ijtimoiy O'zgarishlarga bo'lgan moslashuvini tezlashtiradi.

Ijtimoiy boshqaruvning takomillashuv istiqbollari O'zbekistonda barcha islohotlarni yanada tezroq va samaraliroq amalga oshirish, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, O'z-O'zini boshqarish tuzilmalarini takomillashtirish va oxir oqibatda aholining turmush darajasini oshirish imkonini yaratadi.

**Ijtimoiy jarayonlarni bashorat qilish va boshqarish quyidagi asosiy vazifalarni ko'zlaydi:**

-istiqbolni baholash, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlarini aniqlash va unga oqilona yetishning samarali vositalarini belgilash;  
-mehyorlarni aniqlash, istiqboldagi asosiy ijtimoiy talab va uni qondirish imkoniyatlarini belgilash;  
-tahdidlarni taxminlash, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga aks tahsir etish mumkin bo'lgan O'zgarishlarni aniqlash va tahlil etish.

Ijtimoiy bashorat quyidagi turlarga bo'linadi:

**1.Istiqboldagi holatlarni bashorat qilish** - jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti haqida olimlarning O'tgan zamon, hozirgi zamon va istiqbol anhanalarini bashorat etishdir.

**2. Mehyorlar bashorati** - istiqboldagi kutilayotgan ijtimoiy hayotga mos mehyorlarni topish, yahni shu holatga olib keluvchi shart - sharoitlarni aniqlash.

**3.Tahdidlar bashorati** - ijtimoiy taraqqiyot jarayonining izdan chiqishi holatining tahliliga asoslangan bashorat.

Ijtimoiy boshqarishni amalga oshirishda ijtimoiy axborot muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy axborot 3 guruhga bo'linadi:

1. Ijtimoiy guruhlar tuzilmasi va holati haqidagi axborotlar.

2. Odamlarning mehnat va turmush sharoitlari haqidagi axborotlar.

3. Odamlarning hayot faoliyati va turmush tarzi haqidagi axborotlar. Boshqaruv nuqtai-nazaridan ijtimoiy axborot-tashkiliy, nazariy hisobga olish natijaviy axborotlardan iboratdir. Ijtimoiy boshqaruv jarayoni ham sifat ko'rsatkichli ham miqdor ko'rsatkichli axborotlar orqali amalga oshiriladi. **Sifat ko'rsatkichli axborotlar** ijtimoiy hodisa va jarayonning ta'rifiy xususiyatlari va tarkibiy tuzilishining ko'rinishlari haqidagi ma'lumotlardir. **Miqdor ko'rsatkichli axborotlar** ijtimoiy hodisa, jarayonlarning miqdor O'lchov shaklida aniqlangan kattaliklaridan iboratdir.

Bu axborotlar EHM ga asoslangan holda matematik modellashtirishni va u orqali ijtimoiy bashorat qilishni, tahlil qilish va baholashni amalga oshirish imkonini beradi.

### **3.Iqtisod sotsiologiyasi.**

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, iqtisodiy hayot sotsiologiyaning tadqiqot ob'ektiga aylandi. Xuddi shu davrda ishlab chiqarishda inson omili anglab yetildi va va bu borada tafakkur shakllanib bordi. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki davridayoq prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan bozor iqtisodiyotiga O'tishning 5 ta tamoyili ishlab chiqildi. Bular quyidagilar:

1. **Iqtisodning siyosatdan ustun bo'lishi.**

2. **Davlatning bosh islohotchi ekanligi.**

3. **Qonunlar ustivorligini tahminlash.**

4. **Kuchli ijtimoiy siyosat olib borish.**

5. **Bozor iqtisodiyotiga bosqichma - bosqich O'tish.**

O'zbekiston Respublikasi prezidenti tahkidlaganidek: "bizning bozor munosabatlariga O'tish metodimiz respublikaning O'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, anhanalar, urf - odatlar, turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga,

O'tmishdagi iqtisodiyotni bir yoklama, besO'naqay rivojlantirishning mudhish merosiga barham berishga asoslanadi"<sup>1</sup>.

Iqtisodiy nazariyalar va qarashlar hamda tasavvurlarga iqtisodiy munosabatlar hamisha ham aynan muvofiq bo'lavermaydi.

Iqtisodiy qarash va qonunlar bahzan ishlab chiqarish munosabatlariga shubha bilan qaraydi.

Asrimizning 60-yillarida rivojlangan G'arb mamlakatlarida iqtisodiy sotsiologiya fanining ijtimoiylashuvi tendentsiyasi kuchayib, uning imkoniyatlari ham ortib bordi. Iqtisodiy sotsiologiyani bugungi kunda global va xususiy masalalarni hal qiluvchi fan sifatida tasavvur qilish mumkin.

## **8-Mavzu : Mahalla O'z-O'zini boshqaruv va ijtimoiy fikr sotsiologiyasi.**

### **Reja:**

- 1. Mahalla va mahalliy boshqaruv sotsiologiyasi.**
- 2. Mahalla O'z-O'zini boshqaruv tizimining muhim ijtimoiy organi. Mahalla demokratiyasi .**
- 3. Jamoatchilik fikri tushunchasi. Jamoatchilik fikrining nazariy asoslari.**
- 4. Jamoatchilik fikrining ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi.**

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi T., «SHarq» 1999
2. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi T., «O'zbekiston» 2000
3. Karimov I.A. Ozod vo obod Votan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz T., «O'zbekiston» 2000
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Oliy Majlis senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi ma'ruza. «Xalq so'zi» 2005 yil 29 yanvar.
5. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. «Xalq so'zi» 2006 yil 11 fevral.
6. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi halqni-halq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin, «Tafakkur». 1998. №5.
7. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» 2000. iyun.
8. Karimov I.A. Fan Vatan ravnaqiga xizmat etsin. T.2.T.,1996.
9. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. 2008.
10. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.2009.
11. Aliqoriev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya T., ToshDU. 1999 y.
12. Bekmuradov M. Sotsiologiya asoslari T., «Fan» 1994 y.
13. Bekmatov A. Sotsiologiyaga kirish, Andijon. 1995 y.
14. Xolbekov A. Ildirov U. Sotsiologiya Lug'at T., «Ibn Sino» 1999 y.
15. Bekmuradov M. Ota-Mirzaev O. Aliqoriev N. va boshqalar. Sotsiologiya T., 2000
16. E Giddens. Sotsiologiya. T., «SHarq», 2002.
17. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. T., 2002.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Узбекистон бозор муносабатларига ытишининг ызига хос йули. Т.1993й

**Smelzer** O'zining " Iqtisodiy hayot sotsiologiyasi " maqolasida iqtisodiy sotsiologiya " yO'rgak " dagi holatida qanday uyg'onganligi va iqtisodiy turmushning borgan sari yangi tomonlarini qamrab olishligi juda tahsirli qilib tasvirlangan.

Iqtisodiy hayotni ijtimoiy talqin etishga birinchi bor **Teylor** ehtibor berdi. U ishchilarning mehnatga bo'lgan ehtiborini O'rgandi va 1884 yili mehnatga haq tO'lash tizimiga asoslangan nazariyani ishlab chiqarish jarayoniga tadbiiq etdi. Bu g'oyaning asosi quyidagicha:

1. Eng qisqa vaqt ichida ishchi qancha kO'p hajmda ish bajarsa, unga shuncha haq tO'lash;
  2. Ishning hajmini emas, balki samaradorligini va yaxshiligini rag'batlantirish;
  3. Ishchilarga kam ish haqi berish va kO'p berish zararlidir;
4. Ishlovchida yuksak haq oluvchi bo'lishga intilish hissini uyg'otish, yuksaklikka intilib yashash.

Teylor kontsepsiyasi Amerika sanoatida Ford tomonidan ishlab chiqarishga tadbiiq etildi, konveyer ishlab chiqarishi sharoitida mehnatning samaradorligi rag'batlantirildi.

Mahlumki, dunyoda aholining urbanizatsiyasi tez rivojlanmoqda. Bularning hammasi tahlil tizimini yangicha yo'lga qO'yishni taqozo etadi. Ommaviy ishlab chiqarish, standart ravishda istehmol qilish va ommaviy madaniyatni vujudga kelish imkoniyatini yaratadi.

Ishlab chiqarishning yuksak rivojlanishi, yuksalishi zamonaviy mikro-elektronika va komppiyuter texnologiyasiga asoslanadi. SHuning uchun mamlakatimizda joriy etilgan tahlilning yangi modeli - kadrlar tayarlash milliy dasturi jamiyatimizda tub O'zgarishlarni vujudga keltirish asosidir. prezidentimiz tahkidlaganidek " Biz oldimizga qanday vazifa qO'ymaylik, qanday muommani yechish zaruriyati tug'ilmasin, gap oxir oqibat baribir kadrlarga va yana kadrlarga taqalaveradi. Mublag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimiz kelajagi O'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq ".

Hozirgi davr iqtisodiyotini ijtimoiylashtirilgan deyish mumkin. CHunki, bu yerda insonning O'zi, uning intellektual salohiyati asosiy O'ringa chiqadi, bu esa inson maqsadlarining rO'yobga chiqishi jarayonining tobora ijtimoiylashuviga olib keladi. XXasr butun ijtimoiy hayotning insoniylashtirilganligi bilan xarakterlidir

#### **4.Mehnat sotsiologiyasi**

Jamiyat taraqqiyotidagi barcha O'zgarishlar inson omilining faollashuviga, insonlarning mehnat va intellektual salohiyatidan imkoni boricha unumli foydalanishga, barcha mehnatkashlarning ijodiy quvvatlarini tO'la ishga solishga hamda shaxs, jamiyat va davlat O'rtasidagi manfaatdorlik va munosabatlarning mutanasibligini tahminlashga bog'liqdir.

Mehnat sotsiologiyasi mehnat sohasidagi ijtimoiy mehnat munosabatlari, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarni O'rganadi va ularni boshqa omillar bilan birga boshqarishni tahminlaydi.

Mehnat sotsiologiyasining yaratilishi ancha uzoq tarixga ega va katta manbalarga ega bo'lsa ham, hali u fan sifatida tO'la shakllanmagan. Mehnat sotsiologiyasi bO'yicha olib borilgan nazariy va amaliy sotsiologik tadqiqotlar juda katta izlanishlar lozimligini ko'rsatmoqda.

Mehnat sotsiologiyasi mehnat sohasi bO'yicha barcha ijtimoiy axborotlarni tO'plashga, ishlab chiqarish zahiralardan tO'la foydalanishga, hamda mehnatni



boshqarishning optimal strategiyasi va texnikasini belgilashga xizmat qiladi.

Bizning yosh, mustaqil va kelajagi buyuk davlatimizni taraqqiy ettirishda mehnat sotsiologiyasining xalq xo'jaligidagi jarayoni katta ahamiyat kasb etish bilan birga, mamlakatda huquqiy, demokratik tuzumni rivojlantirishga, ijtimoiy adolat o'rnatishga, mehnat unumdorligini oshib borishiga yordam beradi. Mehnat sotsiologiyasi, bozor munosabatlari sharoitida mehnat muammolarini to'la-to'kis yechib berish va uning istiqbollari belgilashni nazariy va amaliy jihatdan o'z oldiga qo'ymoqda. Bugungi kunda mehnatni boshqarishning barcha turkum omillarini hisobga oluvchi axborotlar bazasini yaratish va uning sotsiologik monitoringini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai-nazardan mehnat insonlarning tabiatga to'g'ridan-to'g'ri tahsiri jarayonidan iborat bo'lib, uning natijasida istehmol bahosi, moddiy va mahnaviy manfaat paydo bo'ladi. Mehnat, asosan inson faoliyatining shakli, turmushning muhim sharti sifatida ko'rib chiqiladi.

Mehnat tabiatan jamiyatni tabiatdan, insonni hayvonot olamidanda ajralib chiqishiga sabab bo'ldi va imkon tug'dirdi.

### **Mehnat jarayoni O'z ichiga uch jarayonni oladi:**

- 1) insonning foydali faoliyati yoki mehnatning o'zi;
- 2) mehnat mavzusi yoki bu faoliyatning nimaga yo'naltirilganligi;
- 3) ishlab chiqarish qurollari, bular bilan inson ushbu mavzuga tahsir ko'rsatadi.

Sotsiologiyada " **mehnat sharoitlari** " kategoriyasi muhim ahamiyatga ega. U mehnat sharoitining inson uchun normal yoki zararli bo'lishi mumkinligi mezonidan kelib chiqadi.

Normal mehnat sharoitlari inson salomatligiga zarar keltirmaydi. Zararli mehnat sharoitlari (shaxtalarda, domna va marten pechlarida) ishlash inson salomatligi uchun xavflidir va ko'pincha inson hayotiga tahdid soladi. Bundan tashqari, mehnat sharoitlari sotsiologlar tomonidan ekstrimal, nisbatan normal va qulay sharoitlarga bo'linadi. Ko'p hollarda ular mehnat mazmuni va uning tashkil qilinishiga bog'liqdir. Mehnatni tashkil qilish deganda, odatda, ish tashkil qilish tartibi, usullari, shakli tushuniladi, yahni "inson-jihozlar, mashinalar, asboblarda" tizimida muvofiqlikning bo'lishi, ishga ijobiy samara berishi nazarda tutiladi.

Ishlab chiqarishni boshqarishda, biznesda, huquqiy idoralarda mehnatni rag'batlantirish va asoslash katta ahamiyat kasb etadi. **Rag'batlantirish** - mehnatning samarasiga ko'ra ishchi xodimlarni moddiy va mahnaviy mukofotlash tizimidir.

Mehnat faoliyati yakka tartibda va guruhli bo'lishi mumkin. **Mehnat jamoasi** - bu shaxs uchun ahamiyatli va ijtimoiy nuqtai nazardan qimmatli bo'lgan, aniq maqsadlarga yo'naltirilgan odamlarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faoliyati amalga oshadigan uyushmasidir. **Mehnat jamoasi** - bu o'zaro hamfikir bo'lgan, g'oyaviy mushtaraklik ustun bo'lgan odamlarning manfaatli birlashuvidir.

Mehnat tashkilotlari ikki asosiy guruhga bo'linadi:

**1. Ishlab chiqarish tarmoqlari jamoalari:** sanoat, qurilish, qishloq va o'rmon xo'jaligi, ishlab chiqarishga xizmat qilish, suv transporti, moddiy texnika tahminoti va boshqalar.

**2. Noishlab chiqarish tarmoqlari jamoalari:** sog'liqni saqlash, ijtimoiy tahminot, xalq tahlimi, sanhat, ilm - fan, davlat mahmuriy organlari apparati, boshqaruv organlari, jamoat tashkilotlari va boshqalar.

Mamlakatimizda mehnat tashkilotlari hayotida talaygina o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, yag'pni xususiy mulkchilikga o'tish jarayoni jadal surhatlar bilan ketmoqda.

Hozirda ishlab chiqarish, ilmiy tekshirish, muhandislik tashkilotlari, oliy o'quv

yurtlari, ilmiy-texnikaviy, ijodiy ittifoqlar va boshqa subgpektlar shartnoma asosida tuzilgan jamoalar tashkil qilinmoqda. Xalqaro integratsiyaning iqtisodiy, ilmiy, moliyaviy kabi yangi shakllari paydo bo'lmoqda. Ular xalqaro kapitallarning qO'shilishi negizida tashkil qilingan. SO'nggi yillarda mayda savdo korxonolari, yakka tartibdagi tadbirkorlik va mayda guruhli mehnat korxonolari kengaymoqda, ular faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda.

SHaxsning shakllanish jarayonida jamoaning va unda tashkil etilgan mehnatning ahamiyati katta. Mehnat shaxsning barcha muhim sifatlariga tahsir ko'rsatadi. U inson psixologik jarayonlarini yO'naltiruvchi va muvofiqlashtiruvchi mexanizm sifatida rol O'ynaydi.

Olimlarning tagpkidlashicha, yaqin yillarda mamlakat iqtisodida sezilarli O'zgarishlar rO'y beradi. Foyda keltirmaydigan korxonalarining yopilishi, xususiylashtirish, ishlab chiqarishda avtomatlashtirilgan texnologiyalarning joriy etilishi malakali kadrlarga bo'lgan extiyojni oshiradi.

Ishlab chiqarish jarayonida mehnat jamoalarida va tashkilotlarida ko'pincha ixtiloflar, nizolar ham ruy beradi. Ularning sababi juda xilma-xildir. **Nizo**- vujudga keladigan ziddiyatlarni bartaraf qilishning samarasiz yo'lidir, chunki nizo paytida odamda hissiyotlar ustun kelgani sababli, fikrlash susayadi, O'z xulqini nazorat qilish qobiliyati pasayadi.

Mamlakatda mehnat jamoalari bozor munosabatlarning tarkib topishi asosida ko'p hollarda O'z xodimlarining axloqiy sifatleri va dunyoqarashlarini O'rganishlari zarur bo'lib bormoqda. Bunda raxbarning O'z qO'li ostidagi xodimlari bilan munosabatlari har kimning qobiliyatiga ko'ra xizmat vazifalariga qO'yilishi, mutaxassislarning malakalarini muttasil oshirib borish, jamoada normal insoniy munosabatlar iqlimining buzilishiga ehtibor berish katta axloqiy va mahnaviy ahamiyatga ega bo'ladi. CHunki normal bozor munosabatlarning shakllanishi normal axloqiy psixologik muhitni, sog'lom raqobatni, shaxsiy manfaatning jamoat manfaati bilan uyg'unlashuvini talab qiladi.

#### **TAYaNCH TUSHUNCHALAR.**

**Inson** - Yerdan yashayotgan mavjudot turlaridan biri

**Individ** - inson zotining alohida olingan nusxasi, uning vakillaridan biri.

**SHaxs** - O'ziga xos, intellektual,irodaviy, ruhiy, shaxsiy sifat va belgilarga ega individ.

**Kishilik jamiyati** - bu iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va mahnaviy sohalarda kishilar orasida yuzaga keladigan va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan munosabatlar yig'indisi bo'lib, jamoa turmush tarzining tarixiy shakllangan formasidir.

**Ijtimoiy boshqaruv** - ijtimoiy munosabatlarning unumli tarzda kechishni har xil mezonlar yordamida O'rganuvchi fan sohasi.

**Mehyorlar bashorati** - istiqboldagi kutilayotgan ijtimoiy hayotga mos mehyorlarni topish, yahni shu holatga olib keluvchi shart-sharoitlarni aniqlash.

**Tahdidlar bashorati** - ijtimoiy taraqqiyot jarayonining izdan chiqish holatining tahliliga asoslangan bashorat.

## **8-MAVZU: MAHALLA, O'Z-O'ZINI BOSHQARUV VA IJTIMOYIY FIKR SOTSILOGIYASI.**

### **REJA:**

1. Mahalla va mahalliy boshqaruv sotsiologiyasi.
2. Mahalla o'z-o'zini boshqaruv tizimining muhim ijtimoiy organi. Mahalla demokratiyasi. Z.Jamoatchilik fikri tushunchasi. Jamoatchilik fikrining nazariy asoslari.
4. Jamoatchilik fikrining ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi.

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi T., «SHarq» 1999
2. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi T., «O'zbekiston» 2000
3. Karimov I.A. Ozod vo obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz T., «O'zbekiston» 2000
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Oliy Majlis senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi ma'ruza. «Xalq so'zi» 2005 yil 29 yanvar.
5. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. «Xalq so'zi» 2006 yil 11 fevral.
6. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi halqni-halq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin, «Tafakkur». 1998. №5.
7. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» 2000. iyun.
8. Karimov I.A. Fan Vatan ravnaqiga xizmat etsin. T.2.T.,1996.
9. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. 2008.
10. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.2009.
11. Aliqoriev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya T., ToshDU. 1999 y.
12. Bekmuradov M. Sotsiologiya asoslari T., «Fan» 1994 y.
13. Bekmatov A. Sotsiologiyaga kirish, Andijon. 1995 y.
14. Xolbekov A. Idivov U. Sotsiologiya Lug'at T., «Ibn Sino» 1999 y.
15. Bekmuradov M. Ota-Mirzaev O. Aliqoriev N. va boshqalar. Sotsiologiya T., 2000
16. E Giddens. Sotsiologiya. T., «SHarq», 2002.
17. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. T., 2002.
18. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. UrDU 2003.

### **1. Mahalla va mahalliy boshqaruv sotsiologiyasi.**

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish jarayonlari boshqaruv tizimini muntazam shakllantirish va takomillashtirib borishni O'zining ilmiy qadriyatlariga va davlatchiligi tarixida shakllangan angpanalariga tayanib ish ko'rishni taqozo etmoqda. Zero, O'tish davridagi vaziyatni to'g'ri baholagan mamlakatimiz rahbariyati zamon ruhiga moslashuvchi ilg'or mamlakatlarning yutuqlari bilan tarixiy merosimizni uyg'unlashtirish asnosida milliy boshqaruv tizimlari poydevorini mustahkamlab bormoqda. Bu O'rinda O'zini O'zi boshqaruv tizimining milliy ifodasi va O'zbekistondagi ijtimoiy hayot tarzining mahalliy ko'rinishidagi shakli bo'lgan

mahallaning O'rnini tahkidlash joizdir. Bozor iqtisodiyotiga va umuminsoniy tamoyilariga asoslangan huquqiy demokratik jamiyat qurish jarayonida, mahalla jamiyatining asosiy tayanchi bo'lib qolishi tabiiydir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Birinchi chaqiriq 14-sessiyadagi magpruzasida prezidentimiz I.A.Karimov: ppMahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning O'zini-O'zi boshqarish organlari bajaradigan vazifalar doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich topshirish lozim. Bunda eng muhimi aholining kasb va ijtimoiy tarkibi manfaatlarini yanada tO'larok ifodalash va himoya qilishda nodavlat jamoat tuzilmalarining huquq va mavqelarini oshirish darkor ppKuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati saripp degan siyosiy qurilish dasturining mohiyati ana shunda yakqol namoyon bo'ladi. Aynan shundan yondashuv fuqarolarining O'zlariga O'z hayoti va butun jamiyat hayotini boshqarishda va tashkil etishda keng ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadipp<sup>1</sup>–deb alohida ko'rsatib O'tdi.

SHu boisdan, O'zbekistonda jamiyat qurilishi tizimini mustahkam poydevorini yaratishda mahallaning O'rni katta ekanligini va O'zini-O'zi boshqarish organlarining boshqaruv tuzilmasining bugungi kun talabalari ruhida O'rganib uning nazariy hamda amaliy ahamiyatini sotsiologik jihatdan yoritish muhim ilmiy ahamiyatga egadir.

Mahalliy O'zin-O'zi boshqaruv organlari tarkibini fuqarolar yig'inlari xususan mahallalar tashkil etadi. Jamiyatda O'zini-O'zi boshqaruv tizimining muhim organi bo'lgan mahalla bu hududiy, kasbiy, turli yoshga oid va boshqa shu kabi turli xil ijtimoiy guruhlardan tashkil topgan ijtimoiy tizimdir. U mana shu ijtimoiy guruhlarning qiziqishi va irodasini O'zida mujassamlashtirib, ularni ijtimoiy hayotga joriy qiluvchi umumiy hamda alohida holatlarni namoyon qiladi. Bugungi kundagi O'zini-O'zi boshqaruv tizimining taraqqiy etib borishi – demokratik jamiyat taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biridir. CHunki O'zini-O'zi boshqaruv tizimi ijtimoiy tizim sifatida kishilarning turli xil faoliyatlarini ulardagi tashabbuskorlikni va takliflarni inobatga olgan holda qonun doirasida ularning tezda amalga oshirishini tahminlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 101- moddasida shunday deyiladi, «Mahalliy hokimiyat organlari, O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, prezident farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradilar, xalq deputatlari quyi kengashlariga raxbarlik qiladilar. Respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarini muhokama qilishda qatnashadilar»<sup>1</sup>.

### **Mahalla O'ziin- O'zi boshqaruv tizimining muhim ijtimoiy organi. Mahalla demokratiyasi.**

Respublikamiz mustaqillikka erishgach jamiyat ichida kichik jamiyat deb nom olgan mahalla tizimini ravnaq toptirish O'ziga xos milliy boshqaruv shaklini ishlab chiqarish, O'zbekiston xalqining ijtimoiy muammolarini O'rganib unga amaliy yordam beruvchi jamiyatning ijtimoiy bir bo'lagi hisoblanmish ushbu tizimning maxsus xayriya jamg'armasini tuzish to'g'risida farmon qabul qildi. Mahallaning magpnaviy holati to'g'risida fikr yuritilar ekan, albatta uning boshqaruv tizimida muhim ahamiyat kasb etgan subgpekt tushunchasiga egptibor qaratishlik ilmiy mazmun kasb etadi. Mahalla subgpektining O'ziga xos xususiyatini undagi boshqaruv funktsiyasi bajaradi. CHunki aynan shu funktsiya orqali mahallaning samarali ish faoliyati namoyon bo'ladi .

Har bir mahalla O'ziga xos geografik joylashuviga, O'ziga xos turmush tarziga ega

<sup>1</sup> Каримов И.А.Узбекистон XXI асрга интиломда Т.1999й 29-бет.

<sup>1</sup> Узбекистон Республикаси Конституцияси .Т. «Узбекистон» 2001. 30-бет.

bo'lganligidan kelib chiqib bu muhim makonda istiqomat qilayotgan aholining turli millatga yoki bir millatga mansubligiga asoslanib har bir mahallaning O'z ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish dasturini yaratish maqsadga muvofiq. Mahalla bugun fuqarolarning mustaqil faoliyatini, ularning jamiyatini turli doiralardagi ijtimoiy munosabatlarini davlat va jamiyat boshqaruv strukturasi tashkil etishidagi hamda ijtimoiy jamoatlarining hayot faoliyatini tahminlovchi va shu bilan birgalikda O'z ahzolarini ijtimoiy hayot oldiga qO'ygan savollarga javob berishdagi ishtirokini belgilaydi.

O'zbekiston hududida mahallalarini quyidagi tO'rtta asosiy turini ajratish mumkin:

1.SHaharlardagi angpanaviy mahallalar.

2.SHaharlardagi kvartal mahallalar.

3.SHaharchalardagi mahallalar.

4.Qishloq mahallalari.

Mahallaning bugungi kundagi ijtimoiy holatiga egptibor qaratiladigan bo'lsa unda quyidagilarni kuzatish mumkin:

a) oila muhofazasi,

b) obodonlashtirish, kO'kalamzorlashtirish va tozalik.

v) ijtimoiy himoyada faol ishtirok etish,

g) magpnaviyat va ijtimoiy huquqni shakllantirish;

d) siyosiy faollikni oshirish va hokazo.

Odamlarning hatti-harakati voqelikka va har qanday yangilikka nisbatan munosabati eng avvalo yuksak axloq odob, sharqona vazminlik, ota-bobolarimizga xos mulohazamandlik, qiyin va murakkab vaziyatlarda shaxsiy manfaatdan umumdavlat va umumxalq manfaatlarini ustun qO'yish, jamoa uchun yashash kabi insoniy fazilatlarga qaratilgan.

Bu va shunga O'xshagan milliy qadriyatlar jamiyatdagi oqilona siyosat tufayli umuminsoniy qadriyatlar darajasiga kO'tarilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ppFuqarolarning O'zini-O'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonunining 6-moddasida aytilganidek ppFuqarolarning O'zini-O'zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy printsiplari demokratik, oshkoralik ijtimoiy adolat, insonparvarlik, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni yechishda mustaqillik, jamoatchilik asosida O'zaro yordampdeb belgilangan. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan mahalla demokratiyasi, uning xalq hayotiga yaqinligi, aholi turmush tarzi va kundalik hayoti bilan uyg'unligi sababli kundalik hayot tarzimizda qaytadan qaror topayotgan boshqaruv tizimi sifatida O'z ifodasini topmoqda.

O'zbekiston Respublikasi asosiy kuch-qudrati manbai – bu xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiq qolganligidir. O'zbekistondagi yana shunday umuminsoniy qadriyatlar sarchashmasidan biri mahalla ekanligi to'g'risida yuqorida ta'kidlagan edik. Uning nufuzini oshirish ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy ulkan magpnaviy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. prezidentimiz I.A.Karimov ppTurkistonpp gazetasi muxbirining bergan savollariga «Mahalla, tadbir joiz bo'lsa kishilik jamiyatidagi alohida tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan O'ziga xos maskandir deyish mumkin. Bu tajriba, aholining noyob yashash tarzi jahonning boshqa mamlakatlarida kam uchraydi. SHuning uchun ham insonni jamiyat bilan birga yashashga O'rgatadigan shu ruhda tarbiyalaydigan birlamchi va beqiyos makon–bu mahalladir»<sup>1</sup> –deb javob qaytarishda ushbu tizimni ommabop jamoaga aylantirish ayni muddao ekanligi to'g'risidagi g'oya deb ifodalasa bo'ladi.

### **Jamoatchilik fikri tushunchasi. Jamoatchilik fikrining nazariy asoslari.**

<sup>1</sup> Каримов. И.А. Уз келажэгимизни уз кулимиз билан курмоқдамиз. Туркистон газетаси 1999й 2 феврал

Mustaqil davlatchilik sharoitida jamoatchilik fikrining ijtimoiy ahamiyati yanada muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Uning amaliy faoliyat sarhadlari kengayib, jamiyat hayotiga ko'rsatadigan tagpsir ko'lamlari keskin orta boshladi.

Mazkur ijtimoiy hodisaning mustaqillik sharoitidagi yangi vazifa va yo'nalishlari prezident I. Karimovning qator asoslarida ilgari surilgan katta nazariy masalalar mazmunida yanada oydinlashadi. SHu boisdan jamoatchilik fikrining bugungi dolzarb yo'nalishlari qatorida quyidagilarni ko'rsatib O'tish joizdir:

- O'zbek xalqining bir yarim asr davomida mahrum etilgan O'z haq-huquqlarini O'zi belgilash orzusini hayotga joriy etish bilan bog'liq ijtimoiy harakat yo'nalishi;
- har tomonlama mustahkam demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolar jamiyatining barpo etilishi, barqaror bozor iqtisodiyoti, oshkora tashqi siyosatni amalga oshirish bilan bog'liq ijtimoiy siyosiy harakat yo'nalishi.

Mazkur bosh yo'nalishlar mamlakat ichki va tashqi siyosati bobida quyidagi masalalarni O'z ichiga qamrab oladi:

- O'zbek xalqining milliy, huquqiy, xususiy – emotsional va angpanaviy O'ziga xosliklaridan kelib chiquvchi xalq demokratiyasi tamoyillarining ijtimoiy–siyosiy hayot mazmunidan keng O'rin olishi;

- ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qonun ustuvorligini tagpminlash , kishilar O'rtasida qonun–qoidalar va angpanalarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish, qonun oldida katta, yosh, ishchi, amaldor va hokazo shaxslarning to'la teng huquqliligini tagpminlash, aholi turli qatlamlari xavfsizligi va osoyishtaligini tagpminlash, qonun–qoidalar, angpanalarga nisbatan ichki, mustahkam intizom fazilatlarini qaror toptirish;

- Vatanga muhabbat va chin odamgarchilik tamoyillarini qaror toptirish;

- O'zbekiston hududida tug'ilib O'sgan va bu zaminga mehr qO'ygan har bir fuqaroda milliy O'ziga xosligidan qatgpiy nazar yuksak vatanparlik tuyg'ularini shakllantirish;

- Mamlakatimizda O'zbekistonliklar uchun yagona davlatchilik barpo etilganligini nazarda tutib O'zbekistondan tashqarida yashovchi har bir O'zbekistonlik uchun bu davlat uning uchun ham ona Vatanligini keng targ'ib-tashviq qilish Vatandan O'zga davlatlarda yashovchi har bir O'zbek O'zbekiston obrO'sini yuksaltirishga masg'pul ekanligini tushuntirish;

- Mamlakatimizda yashovchi boshqa millat vakillari bilan hurmatga hurmat munosabatida bo'lish, O'zbek tili to'g'risidagi qonunni O'zlashtirishlarida ularga ko'maklashish, milliy va huquqiy cheklanishlardan holi bo'lish;

- umuminsoniy qadriyatlar asosidagi axloqiy, estetik qarashlar ustuvorligini tahminlash, hech qanday mafkura, siyosiy qarashlar va nazarlarining ustun mavqealarni egallashlariga yo'l qO'ymaslik, zero hech qanday mafkura sO'nggi haqiqatni ifodalashga kafolat bera olmaydi;

- haqiqiy demokratiya ko'zgusi hisoblanuvchi ko'p partiyaviylik tartibotini joriy etishni qO'llab-quvvatlash, ayni chog'da davlat tuzumini, mavjud hokimiyatni zo'rlik va kuch bilan O'zgartirishni mo'ljallovchi O'zbekiston davlat suvereniteti, mamlakat yahlitligi va dahlsizligiga rahna soluvchi, milliy, diniy, irqiy, yohud, hududiy ayirmachilikka undovchi, mamlakat Konstitutsiyasiga xilof ish yurituvchi barcha partiyalar, uyushma, ijtimoiy harakatlar faoliyatlarini qathiyon cheklashni yoqlash.

Ijtimoiy-madaniy sohalarida:

- gumanizm g'oyalariga sadoqat, inson shaxsi va turmush tarzi bilan bog'liq masalalarda ijtimoiy himoya vositalarini keng qO'llash, shaxsning haq-huquqlari, insoniy g'ururi, or-nomusini hurmatlash, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro Deklaratsiya talabalariga

rioya qilish ;

- xalq mahnaviyati va angpanaviy axloqiy qarashlarini tiklash milliy merosni asrash, ehtiyot qilib avlodlarga yetkazish choralari ko'rish, qadimiy tarixiy yodgorliklarni tagpmirlash, O'zbekistonda asrlar davomida yaratilgan beqiyos sangpat asarlarini izlab topish va qaytarish chora tadbirlarini ko'rish.

SHunday qilib, jamoatchilik fikri kishilarning u yoki bu hodisaga nisbatan bildirgan egptiroziy yoxud egptirofiy munosabatlari, taklif va istaklari jamlanmasidir.

Amerikalik sotsiolog **Uolter Lipmanning** fikricha, jamoatchilik fikri kishilarning umumiy, jamoaviy manfaatlari ifodasidir. Angliyalik faylasuf **Jon Lokk** jamoatchilik fikri tahsir doirasini toraytirib tushuntirishga urinadi. Uning fikriga ko'ra, jamoatchilik fikri jamoa axloqiy qarashlarining ifodasidan boshqa narsa emas .

Atoqli frantsuz yozuvchisi va faylasufi **Jak Marmontel** jamoatchilik fikriga katta baho berib kO'pchilik tamonidan ilgari suriluvchi g'oya va talablar mohiyat ehtiboriga ko'ra halollik va haqiqatdan iborat bo'lishini tagpkidlaydi hamda bu harakatga ijtimoiy tahsir qO'llashlarini har tamonlama kengaytirish lozimligini uqtiradi: «Har bir holatda uch asosga yahni halollik, haqiqat va foydalilik mezonlariga tayanish lozimdir», deb tahkidlangan.

Ijtimoiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida, asosan XXI asrga kelib jamoatchilik fikrining yuzaga kelishi shakllanishi va amal qilishi jarayonlarida hamda uning tahsir qilishlarini kengayishida ilmiy bilimlar ishtiroki har tamonlama orta boshlaydi. Bu narsa xalqaro ppEkosanpp, ppGrinpispp singari uyushmalar faoliyatlarida ekologik muhitni saqlash borasida amalga oshirilayotgan xalqaro dasturlar yadro quroli sinovlarining tabiiy muhitga ko'rsatayotgan zararlarini asoslab ilgari surilayotgan ijtimoiy talablar planetamiz imkoniyatlari va resurslaridan xO'jasizlarcha foydalanishga qarshi harakatlarda yakqol ifodasini topmoqda. Zero, jamiyat hayotiga ilmiy bilimlar, fan yutuqlari tahsirining orta borishi ijtimoiy ongning insoniylashuvi tendentsiyasini kuchaytirishi tabiiydir .

Jamoa ahzolarining O'zaro munosabati nechog'lik mustahkam, beg'araz va tabiiy bo'lsa, jamoaviy fikr ham shunchalik hayotiy, kuchli va yaxlit mazmun kasb etadi. Ulug' mutafakkir Ibn Sinonig fikricha, «O'zaro bog'liqlik va almashuv jarayonlarida insonlar bir-birlarini qandaydir muhtojlikdan holi etadilar. Buning uchun insonlar O'rtasida O'zaro kelishuv zarur bo'lib, bu kelishuv tufayli adolat qoidalari va qonunlari O'rnatiladi». Jamoatchilik fikrining shaxsga ishonch va umidi munosabati uni kishilar tashvishiga jonkuyar, beva-bechora, yetim-esirlarga mehribon, xalq taqdiriga hamda ijtimoiy kuch sifatida shakllanishiga imkon tug'diradi. Jamoatchilik fikrining shakllanishiga ommaviy axborot vositalarining radio televidenie, jamoat tashkilotlarining faoliyatlari kuchli tahsir ko'rsatadi.

Islom dunyosida fikr almashuv masalasiga jiddiy ehtibor qilinib, bu omil insonlarni nafaqat O'zaro jiplashtirish, balki ularning haqiqatni anglashga va pirovardida esa xalqqa yaqinlashtiruvchi vosita ekanligi uqtiriladi. Tasavvufning buyuk namoyondasi **Xoja Baxovuddin Naqshband** so'zlari ibratomuzdir: «Tolib avvalo bizning dO'stlarimiz bilan ham- suhbat bo'lishi zarur, toki unda bizning suhbatimizga nisbatan qobiliyat paydo bo'lsin». Ulug' hazrat umumiy yaxlit fikrni shakllantirishdan bosh maqsad haqiqatni bilmoq mohiyatan xalqqa yaqinlashmoq ekanligini, buning uchun esa bevosita muloqot, bahs, suhbatlar asnosida har bir inson O'zligini chuqurroq anglab olishi zarurligini tahkidlagan.

#### **4. Jamoatchilik fikrining ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi.**

Jamoatchilik fikri O'z tabiatiga ko'ra dinamik xususiyatga ega ijtimoiy hodisadir. U

jamiyatda uzoq yillar statik holatda yashab keluvchi passiv ijtimoiy fikrlardan eng avvalo, maqsadning konkretligi, ijtimoiy fikr real moddiy kuchga aylanib borganligi, qatnashchilarining potentsial va real soni inobati, masalan hal etish quvvat hosilasiga ko'ra farqlanib turadi .

Jamoatchilik fikri tushunchasi mahno-mazmun nuqtai nazaridan «Jamoat», ppJamoatchilik pp, ppFikrpp so'zlarining mantiqiy maqsadni uyg'unlatuvchi mahsulidir. Jamoatchilik fikrini teran va to'g'ri anglamoq uchun yuqoridagi tarkib yasovchi so'z terminlarni avval boshdan anglab olmoq muhimdir. Hozir va O'tmishda, Vatanimiz va xorijda tadqiqotchilar bu terminlar mazmuniga turlicha talqin berib ularga maqsaddan kelib chiqadigan mahno yuklatib kelishgan. Xususan, aksariyat tadqiqodlarda jamoatchilik fikrining tarkibiy qismi bo'lgan «Fikr» tushunchasi tasavvur, muhokama, fikr bildirish, ehtiroz, ishonch, ehtiqod, lafz, qarashlar, mulohazalar, fikr yakdilligi va hokazo terminlarga sinonim tushuncha sifatida ham talqin etiladi.

«Jamoatchilik» tushunchasi eng qadimgi davrlarda xususan kO'hna **Ellada va Rim** davlatlari siyosatida muhim O'rin tutgan bo'lib unga xalq fikri nuqtaiy nazaridan qarab kelingan. Garchi qadimgi Ellada mamlakatida jamoatchilik fikriga muhim ahamiyat berib kelingan bo'lsada, bu masalada kO'proq defferentsial yondashuv ustunlik qilgan. Xususan, xalq fikri zodagonlar, askarboshliqlari, shaharliklar, ozod afinaliklar fikri periferiya, polislar yoxud pleybeylar va qullar fikridan keskin farq qilgan. SHu boisdan «Jamoatchilik»termini qadimgi yunon va rim davlatlarida «El, xalq maqsad tilaklari» polgpsha , CHexoslovakiya, Rossiyada «Yig'in fikr yodi» mahnolari bilan uyqash tushunib kelingan .

Movarounnahrning kO'p ming yilik tarixida jamoatchilik termini muqaddas tushunchalardan sanalib shaxs va jamoa munosabatlarida birlamchi O'rin tutib kelgan. U shaxsning tavalludidan boshlab butun hayoti davomida muayyan mayoq vazifasini O'tab tartib qoidalar, tuzuklar, qonunlar, urf-odatlar va anhanalar tarzida amal qilib kishilarning hatti-harakatlari, uy fikrlari, orzulari va rejalarini muayyan maqsadlar sari yO'naltirib turgan. SHu boisdan jamoatchilik fikri tushunchasini xalq yondashuvi yohud nuqtai nazari tarzida tushunish maqsadga muvofiqdir. Zero, fikr nuqtai-nazar mahnosida tushunilganda O'z lug'aviy mazmuni zamiriga mulohaza, baholash, qarashlar singari tarkibiy hamda tizimiy tushunchalarni ham qamrab oladi. Jamoatchilik fikri tushunchasining mahno doirasi juda keng bo'lib, uning tarkibiga mazkur ijtimoiy hodisaning shakllanish jarayonlari faoliyat ko'rsatish shart-sharoitlari, umuminsoniy vazifalarni hal etishdagi O'rni va tasviri masalalari ham kiradi .Jamoatchilik fikri termini G'arbiy Yevropada ilk marta Angliyada huquq nazariyasi fanidan qo'llanilgan bo'lib sO'ngra u Olmoniya va Farangiston kabi mamlakatlar ijtimoiy siyosiy hayotida keng foydalanila boshladi. XVII-XVIII asrlarda Angliya ijtimoiy hayotida mazkur muammo bir muncha tor tushunilib asosan siyosiy fikrlar jamoatchilik fikri sifatida talqin etilib mamlakat parlamentida qabul qilingan qarorlarga nisbatan xalqning qarshi yoki tarafdor kayfiyati jamoatchilik fikri sifatida talqin etib kelindi. XVIII asr sO'nggiga kelib Angliyada shaxs erkinligi va ozodligi amalda tahminlanganligi, har bir shaxsga O'z fikri mulohaza va nuqtai-nazarlarini oshkora izhor eta olish huquqlarining rasman berilganligi va qonun yo'lida mustahkamlanishi bilan jamoatchilik fikri tushunchasi keng ommalasha boshladi. Jamoatchilik fikrining ommalashuvi jamiyatda uning rasmiylashuvi tashkiliy shakllanishi jarayonlarini ham tezlashtirib yubordi. Ijtimoiy hayot tarkibida turli xil siyosiy oqimlar, partiyalar, uyushma va jamiyatlar faol amaliy–nazariy sahy-harakatlarini boshlab yubordilar. G'arbiy Yevropada jamoatchilik fikri XIX oxiriga qadar huquqshunoslik fanining predmeti sifatida O'rganib kelingan. XX asr boshlaridan



ehtiboran esa jamaotchilik fikri bilan ijtimoiy psixologiya fanining yirik namoyondalari jiddiy qiziqqa boshladilar. Qisqa vaqt ichida **Lebon, Baur, Kuli, Lipman** va boshqa yirik mutaxassislarning salmoqli tadqiqotlari nashrdan chiqarildi. Jamiyat hayotiga sotsiologiya fanining kirib kelishi jamaotchilik fikrining ijtimoiy ahamiyatini keskin kuchaytirdi. Jamaotchilik fikri sotsiologiya fanining uzviy tadqiqot obyekti sifatida atroflicha O'rganila boshlandi.

Buyuk Britaniya jamaotchilik fikri institutining direktori **G.Dyurent** jamaotchilik fikri jamiyat mahnaviy hayotining tor mahnodagi murakkab ijtimoiy hodisasi ekanligini qayd etib, ana shu murakkablik bois uni IO'nda va yaxlit tavsiflash va tahriflash imkoni yo'qligini bu jarayonning kO'l bilan ushlab bo'lmaydigan, kO'z bilan ko'rib ilg'amaydigan, hech qanday O'lchovlarga tushmaydigan serqirra hodisa ekanligini tagpkidlaydi.

Davlat muassasalari, ishlab chiqarish va jamoat tashkilotlarida, obrO'-ehtiborli shaxslar kO'magida quyidagi yo'nalishlarda jamaotchilik fikrini shakllantirish maqsadga muvofiqdir:

-Ezgulik yo'lida xizmat qiluvchi shaxslar, mehnat ilg'orlari, piru-badavlat insonlar obrO'-ehtiborini oshirishga qaratilgan ijobiy jamaotchilik fikrini shakllantirish;

-Ijtimoiy munosabatlar tizimida totalitar tizim sharoitida shakllangan sotsial zararli odatlar, xususan, surbetlik, hayosizlik, jamoat mulkini mensimaslik va toptash, kosmopolitizm, Vatanga beqadrlik, milliy mahnaviy qadriyatlarga hurmatsizlik, xususiy mulkka nafrat singari ijtimoiy salbiy yondashuvlarni jamaotchilik fikri orqali neytrallash;

-O'zbekiston Respublikasining insonparvar ichki va tashqi siyosatini yalpi qO'llab-quvvatlash bo'yicha jamaotchilik fikrini shakllantirish.

Xulosa qilib aytish mumkinki, jamaotchilik fikri ijtimoiy ongning muayyan holati sifatida keng xalq ommasining alohida shaxslar, guruhlar va real borliq voqea-hodisalarga nisbatan munosabatni bildiruvchi nuqtai- nazaridir.

### **Tayanch atamalar.**

1. Mahalla - bu hududiy, kasbiy, turli yoshga oid boshqa shu kabi turli xil ijtimoiy guruhlardan iborat ijtimoiy tizimdir.
2. Fikr - yondashuv, nuqtai-nazar qarashlar.
3. Jamaotchilik - el, xalq, kO'pchilik odamlar.
4. Jamaotchilik fikri - xalqning atrof borliqdagi voqea hodisalarga bo'lgan munosabatini bildiruvchi nuqtai- nazaridir.

### **9-MAVZU. Sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish va O'tkazish usullari.**

#### **REJA.**

**1. Sotsiologik tadqiqot dasturining tarkibi.**

**2. Sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish.**

**3. Sotsiologik tadqiqot usullari (so'rov, hujjatlarni o'rganish, intervgpyu, kuzatish usullari)**

#### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi T., «SHarq» 1999
2. Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi T., «O'zbekiston» 2000
3. Karimov I.A. Ozod vo obod Votan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz T., «O'zbekiston» 2000

4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Oliy Majlis senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi ma'ruza. «Xalq so'zi» 2005 yil 29 yanvar.
5. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. «Xalq so'zi» 2006 yil 11 fevral.
6. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi halqni-halq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin, «Tafakkur». 1998. №5.
7. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» 2000. iyun.
8. Karimov I.A. Fan Vatan ravnaqiga xizmat etsin. T.2.T.,1996.
9. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. 2008.
10. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.2009.
11. Aliqoriev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya T., ToshDU. 1999 y.
12. Bekmuradov M. Sotsiologiya asoslari T., «Fan» 1994 y.
13. Bekmatov A. Sotsiologiyaga kirish, Andijon. 1995 y.
14. Xolbekov A. Idivov U. Sotsiologiya Lug'at T., «Ibn Sino» 1999 y.
15. Bekmuradov M. Ota-Mirzaev O. Aliqoriev N. va boshqalar. Sotsiologiya T., 2000
16. E Giddens. Sotsiologiya.T., «SHarq», 2002.
17. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma.T., 2002.
18. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. UrDU 2003.

### **1.Sotsiologik tadqiqot dasturining tarkibi.**

Sotsiologik tadqiqotlar bo'lajak izlanishlarining ilmiy asoslangan reja va dasturini tayyorlashdan boshlanadi.

Dastur hayot haqiqatidan kelib chiqqan va ilmiy-nazariy jihatidan puxta ishlangan bo'lishi lozim. Zero, tadqiqot natijalari qanday bo'lishi ana shu olimlarga bevosita bog'liqdir.

Dastur bo'lajak tadqiqot materiallarini tO'plash, qayta ishlash va ma'lumotlarni tahlil qilishni O'z O'ziga oladi. Dastur tadqiq etiluvchi ijtimoiy muammo mohiyatini aniqlash, tadqiqot obhakti va predmetini belgilash, maqsad va vazifalarni xarakterlab berish, ishning, ilmiy tahlilini belgilash, usullarini aniqlash, ma'lumotlarni tO'plash va tahlil etish sxemasini chizib olish kabi qismlarni O'zida mujassamlashtiradi.

Dasturni ishlab chiqish jarayonida ikki asosiy talabga rioya qilish muhimdir. Birinchidan ishlab chiqilgan nazariy umumlashmalardan real tadqiqot jarayonlariga O'ta bilish va ikkinchidan, olingan natijalar, faktlar, yig'gilgan empirik materiallardan nazariy umumlashmalarga, ilmga qayta bilish kO'nikmalariga ega bo'lish ana shu talablar mazmunidir.

Dastur asosan ikki katta bilim, yahni nazariy-metodologik va amaliy uslubiy bo'limlardan iborat. Nazariy-metodologik bo'lim mavzu tanlash, tadqiqot obhaktini xarakterlash, maqsad va vazifalar, faraz hamda predmetni aniqlash kabi qismlarni O'z O'ziga olsa, amaliy uslubiy bo'lim ma'lumotlarni tO'plash usullarini bayon etish yig'gilgan materiallarni qayta ishlash, tahlil qilish va tavsiyalar tayyorlash singari amaliy faoliyatlarni mujassamlashtiradi. Dastur mazmunida turli tavsirlar oqibatida yuzaga chiquvchi ijtimoiy muammo vaziyatlari aniq va yorokin ifoda etilmog'i lozim. Ilmiy muammoning qO'yilishi muayyan soha amal qilayotgan bilimlar hamda amaliy andozalar

doirasidan qoniqmaslik, bu bilimlar chegarasining kengaytirish demakdir.

Zero, muayyan tadqiqotlar boshlangunga qadar mahqul bo'lgan bilimlar doirasida hamisha ham ijtimoiy muammoli vaziyat hal etilavermaydi.

Odatda ijtimoiy muammo amaliy vositalar bilan hal etilmagan holatda ilmga, tadqiqot O'tkazishga murojaat qilinadi. Bu murojaat ilmda ijtimoiy buyurtma deb ataladi.

SHu tariqa sotsiologning tashabbusi bilan amalga oshirilishi mumkin. Ammo sotsiologning shaxsiy tashabbusi ham real hayot muammolari asosida paydo bo'lmog'i lozim.

Sotsiologik tadqiqotlarda ilmiy muhim ahamiyat kasb etib, tadqiqotlarning nazariy yoki amaliy yo'nalishlarda bo'lishini ko'rsatuvchi mO'ljal vazifasini O'taydi.

Sotsiologik tadqiqotlar dasturida ilmiy izlanishga sabab bo'lgan ijtimoiy ziddiyatli muammolar va ularni asosiy atama va tushunchalari atroflicha izohlab beriladi.

Ayni vaqtda bahzi ilmiy tushunchalarni empirik tarzda izohlash va tushunchalar dialektikasini real ko'rinishda kuzatish imkoniyatlari ilmiy so'zlar, faktlar va ijtimoiy ko'rsatkichlar tarzida batafsil bayon etiladi. Masalan, bilim olish samaradorligini tahminlashning prolong (uzaytirish) usuli haqida fikr yuritiladigan bo'lsa, ana shu usul zarur fanlarni yoki zarur kO'nikma va hunarlarni O'zlashtirishning boshqa fanlar mazmuniga uyg'unlashtirish natijasida qay usulda O'zlashtirish mumkinligi aniq-oydin bayon etilishi lozim.

Dasturda kompleks sotsiologik tadqiqotlar natijalarini qO'lga kiritish, O'rganilayotgan obhekt va predmet xususiyatlarini aniqlash maqsadlarida sotsiologik tadqiqotlar instrumentariysiga alohida tO'xtalib O'tish lozimdir. Sotsiologik tadqiqotlar instrumentariysi deganda sotsiologik tadqiqotlar O'tkazish uchun zarur bo'lgan metodik va texnik usullar yig'indisi tushuniladi. Bu yig'indi yoki umumlashma zamiriga dastlab birlamchi mahlumotlarni tO'plash, yahni kuzatish usulini amalga oshirish uchun zarur ko'rsatma va qoidalarni ishlab chiqish, hujjatlarni tahlil etish, sO'roq qog'ozlarini tartibga solish, yozma manbalarni kO'lda yoki mashina yordamida sanash, tahlil etish, umumlashtirishga tayyorlash bosqichi hamda tabiiy tadqiqotni amalga oshirish uchun tadqiqot O'tkazishga mutasaddi raxbarlar, ilmiy-texnik xodimlarni muayyan tayyorgarlikdan O'tkazish bosqichlari kiradi.

Sotsiologik tadqiqotlar instrumentariysi tadqiqot O'tkazilish jarayonida barcha texnik operatsiyalar, respondentlar ishi, tadqiqotchi pozitsiyasi va boshqa jihatlarni umumiy talablar asosida aniq tartibga tushiradi. Bu esa tadqiqot ishini ilmiy asoslangan tartibda haqqonniy va ishonarli O'tkazish imkonini beradi.

Masalan kishilarning bir joydan ikkinchi joyga ishga O'tish muammosi ilmiy muammo sifatida O'rganilayotgan bo'lsa, tadqiqot obhektining tahliliy elementlari quyidagilar bo'lishi mumkin.

- a) ish joyida haq tO'lash darajasi.
- b) ish joyidagi axloqiy-psixologik muhit.
- v) boshliqlar bilan kelishmovchiliklar mavjudligi.
- g) ish joyining yashash joyidan uzok-yaqinligi.
- d) mehnat sharoitining og'ir-engilligi.
- e) faoliyatdagi istiqbol.
- j) faoliyatning shaxsga yoki jamoatga juda zarur yoki befoyda ekanligini his etilganligi.
- z) ish joyida dam olish, xordiq chiqarish masalalarining hal etilganligi,
  - i) salomatlik bilan bog'liq sabablar.
  - y) oilaviy masalalar bilan bog'liq sabablar.

Yuqoridagi tushunchalar mazmunining atroflicha ochib berilishi dastur gepotezasini

tuzish uchun keng ochilishiga imkon yaratadi. Sotsiologik tadqiqotlarda ilmiy faraz ijtimoiy obhaktning tashkil etuvchi turli xil elementlar va aloqalar xarakterli, ularning faoliyat yuritish va taraqqiyotni O'zida ifodalaydi. Ilmiy faraz O'rganilayotgan obhakt xususida dastlabki tahlil O'tkazilgandan keyingina tuzilishi mumkin.

Farazning nechog'lik hayotiyliigi yoki hayotiy emasligi empirik asoslanish jarayonida konkret sotsiologik tadqiqotlar O'tkazish davomida maalum bo'ladi. Bunday tadqiqotlar natijasida farazlar bekor etiladi yoki tasdiqlanadi.

O'rganilayotgan obhakt haqidagi bilimlar holati ilmiy izlanishlarning turli yo'llari va rejalarini yuzaga keltiradi. Ulardan izlanish asosidagi, bayon etish yo'lidagi va eksperimental usuldagi rejalarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Izlanish asosidagi tadqiqotlar rejalarini O'rganilayotgan muammo haqidagi tasavvur konkretlashmagan hollarda qO'llash maqsadga muvofiqdir. Bu rejaning asosiy maqsadi ilmiy muammoni aniq nomlash va uning konkret chegaralarini belgilab olishdir. Tadqiqotning muhim bosqichlari sifatida izlanish olib berish uslubini ishlab chiqish, bu uslubni qO'llash tartibni aniqlab olish, vazifalarning muhimligiga ko'ra ketma-ket bajarila borishini tahminlash jarayonlarini ko'rsatib O'tish O'rinlidir.

Bayon etish rejasi bir qator sotsiologik tadqiqot rejalarini qO'llash olingan maalumotlarini tahlil qilish orqali qabul etilgan farazning hayotiyliigini tekshirib ko'rish va O'rganilayotgan obhakt xususida aniq miqdoriy va sifat xarakteristikasiga ega bo'lishni taqozo etadi.

Sotsiologik tadqiqotlarni eksperimental rejasi obhakt haqidagi maalumotlar asosida izohlovchi farazni ilgari surish imkonini beradi.

Maazkur tadqiqot rejasidan maqsad obhakt zamiridagi sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, obhaktning ayni holati va rivojlanishi xususidagi shart-sharoitlarini aniq bilib olishdan iboratdir.

## **2.Sotsiologik tadqiqotlarning tashkil etish.**

Sotsiologik tadqiqotlar rejasi va dasturi to'liq ishlab chiqilgandan so'ng amalga oshiriladi. Sotsiologik tadqiqotlarda sotsiolog O'ziga xos bir necha yo'nalishda faoliyat yuritishi ham mumkin. Monografik tadqiqotlar ana shunday ilmiy izlanish usullaridan biri bo'lib, muayyan muammo, ijtimoiy jarayon yoki holatning muhim jihatlarni, mohiyati va mazmuni negiziga chuqur kirib borishini nazarda tutadi.

Keng ko'lamdagi tadqiqot jarayoniga kirishishdan avval mazkur tadqiqot amaliyoti va usullarini tajribada sinab qurishning ahamiyati kattadir. SHu boisdan ham sotsiologiyada «pilotaj» (inglizchada tajriba O'tkazish uchun moslama mahnosini anglatadi) tadqiqot usuli ham alohida bo'lajak yangi tadqiqot usuli ham alohida bo'lajak yangi tadqiqotni O'tkazish uchun qO'rilgan tayyorgarliklarining kay axvolda ekanligi, tarqatiladigan anketa savollari sifati, kuzatish usuli qaydnomalari, hujjatlar to'plash va ularni tahlil etishga oid ko'pgina misollari amalda sinab ko'riladi. Ayni vaqtda bunday izlanishlar jarayonida bo'lajak sotsiologik tadqiqotlar O'tkazish uchun zarur bo'lgan vaqt va joy masalalari ham hal qilinadi.

Tadqiqot dasturining amaliy qismida O'tkazilishi mo'ljallangan izlanishning bevosita uslubiy jarayonlari birlamchi materiallarni to'plash ijtimoiy axborot majmuini qayta tiklash, tahlil etish va tavsiflash hamda ishlab chiqilgan nazariy va amaliy tavsiyanomalarni hayotga tadbiq etish masalalari bayon etiladi.

Tadqiqot dasturining keyingi bosqichlaridan biri yalpi so'rov natijalari, turli tadqiqot usullari jarayonida to'plangan maalumotlarni mushohada etish va qayta ishlashdan iboratdir.

Mahlumotlarini atroflicha tahlil etish hozirgi zamonda sotsiologdan chuqur va atroflicha bilim talab etadi.

Ular jumlasiga tahlilning matematik usullarini yaxshi O'zlashtirish, programmalashtirish zaruriy usullarini bilish kompgpyuterda ishlash qobiliyatlarini kiritish mumkin.

Ayni chog'da hozirgi ilmiy tadqiqotlar mufassal ishlab chiqilgan mehnat taqsimoti dasturiga ega bo'lishni talab etadi.

Sotsiologik tadqiqotlar O'tkazish jarayonida texnik va texnologik imkoniyatlarning kengaytirilishi, ijtimoiy axborot va takliflarning har tomonlama mantiqiy asoslangan bo'lishiga doir talablarning oshib borishi, ilmiy izlanishlar davomida kO'plab mutaxassislarning jalb etilishi, ish jarayonining kO'p qirraligi, mehnat taqsimoti, dasturning puxta va ilmiy asoslangan bo'lishini taqozo etadi.

Sotsiologik tadqiqotlarning yakuniy bosqichida hisobot tayyorlanadi. Hisobot ilmiy izlanishlar jarayonida tO'plangan empirik ma'lumotlarni O'zida ifodalab, dasturda belgilangan barcha talablarning qay darajada bajarilganligini bayon etadi. Hisobot alohida tO'plangan hujjat sifatida baholanishi va matbuotda ehlon qilinishi mumkin.

### **3.Sotsiologik tadqiqot usullari.**

Sotsiologik tadqiqotlar usullari ichida hozirgi kunda keng tarqalgan so'rov usulidir. So'rov usulining qulayligi shundaki, tadqiqotning kuzatish va eksperiment usullarini faqat mutaxassis sotsiologlar qO'llash mumkin bo'lsa, so'rov usulida tadqiqot O'tkazishga qisqa muddatli tayyorgarlikdan O'tgan yordamchilarni ham jalb qilish va ular yordamida respondentlarning katta miqdorini qamrab olish mumkin.

So'rov usuli boshqarish uchun qulay usuldir. Bundan tashqari, tadqiqot kO'lamini kengaytirishda so'rov usulining imkoniyatlari juda katta. Bu usul qO'llanilganda katta korxonalar va muassasalar, sohalar, mintaqalar va hatto, mamlakat miqyosida ham tadqiqot O'tkazish mumkin.

So'rov usuli respondentga bevosita murojaat qilib, uning xulq-atvori, harakatdan kO'zlangan niyatlari, O'tgan davrda kilgan va hozir qilayotgan ishlarni, kelajakka mO'ljallangan rejalari to'g'risida batafsil ma'lumot olish imkonini beradi. Ayniqsa, kishining his-tuyg'ulari, kechinmalari, harakatlari motivlari to'g'risida ma'lumot tO'plash kerak bo'lganda, bu usul qO'l keladi. CHunki bu hodisalar kuzatuvchi nigohidan yashirin bo'lib, ularni kuzatish usuli bilan aniqlab bo'lmaydi.

Lekin, so'rov usulining ham bir qator kamchiliklari mavjud. Masalan, bu usul yordamida olingan ma'lumotlarning haqiqatga mosligini sinchiklab tekshirish kerak. CHunki, bu usul qO'llanganda ma'lumot manbai faqat respondent bo'ladi. Respondentlar esa O'z xarakteri, dunyoqarashi, hulqi, ma'lumoti bo'yicha turlicha kishilar bo'lib, ular ham doim ham haqiqatni gapiravermaydilar.

So'rov usulini mohiyati shundan iboratki, tadqiqot olib boruvchi savol beradi va respondent O'zining dunyoqarashi, ma'lumoti, bilimi va hohishidan kelib chiqib, savollarga javob beradi.

TO'planishi kerak bo'lgan ma'lumot xarakteri va uni tO'plash usuliga qarab so'rovlar ikki turga bo'linadi.

- 1.Anketa so'rovlar.
- 2.Intervgpyu.

Savol berilishi mumkin bo'lgan odamlar yoki potentsial respondentlarni qay jarajada qamrab olishiga qarab so'rovlar yana 2 turga bo'linadi.

- 1.Yalpi so'rovlar
- 2.Saylanma so'rovlar.

Bulardan tashqari, ochiq va yopiq so'rovlar, yuzma-yuz va sirdan so'rov sinov turlar ham mavjud.

Sotsiologik tadqiqot usullaridan yana biri hujjatlarni O'rganish hisoblanadi.

Hujjat O'z semantik mahnosiga ko'ra isbot etish mazmunini ifodolovchi so'zdir. Hujjat-moddiy material manba hisoblanib, voqea va faktlar xususidagi mahlumotlarni O'zida ifodalaydi.

Hujjatlarda O'ziga xos xususiyatlar quyidagilar:

1.Sotsiologik tadqiqot uchun mumkin ahamiyatga ega holat, faqat avallo inson tomonidan qayd etiladi sO'ngra hujjat shaklida ifodalanadi. Demak, hujjat inson ongida avval paydo bo'lib sO'ng og'zaki, yozma manbalarda ifoda etiladi, qayd qilinadi, saqlanadi va tarqatiladi.

2.Har qanday holatlarda ham muayyan fakt va holatlarining muhim jihatlari xususidagi informatsiyaga ega bo'ladi.

3.Ayrim hujjatlar mazmun faqat muayyan maxsus bilimlarga ega bo'lgan kishilargagina tushunarli bo'ladi.

Masalan, murakkab texnologiya loyihalari, qurilish smetalarini EHM beradigan mahlumotlarni maxsus bilimlarsiz anglab olish keyin. Ammo bunday hujjatlar mazmuni maxsus bilimlarga ega bo'lgan. Har xil kishilar uchun bir xil mahno berishi kerak.

4.Hujjat, uning saqlanishi va yagona mazmuni berishi xususiyatlari tayin, istalgan manbada bayon etilishi va istalgan usulda ifodalanishi mumkin.

Tashkilot, muassasa va mansabdor shaxs tomonidan beriladigan hujjatlar umumiy qabul qilingan muayyan guvohlik mazmunini ifodolovchi rasmiy rekvizitlarga ega bo'ladi. Ularni shunday xarakterlash mumkin.

1.Hujjatlarda muxr, shtamp, bosmaxona blanki belgilari bo'lib, ular muayyan muassasa, tashkilotga tegishli ekanligidan dalolat berib turadi.

2.Hujjat mahlum mansabdor shaxs tomonidan imzolangan bo'lib, uning ismi, sharifi va unvoni aks etadi.

3.Hujjatda u tuzilgan joy, vaqt, qabul etish muayyan adresga jo'natish belgilari qayd etilgan bo'ladi.

Albatta sotsiologiya uchun hujjatda aks ettirilgan mazmun birinchi darajali ahamiyatga esa ammo mazkur hujjatning nechog'lik haqqoniygi va realligi uning tuzilish shakliga ham bog'liqdir.

Sotsiologik tadqiqot usullaridan yana biri bo'lgan intervgpyu usuli anketa bilan ko'p umumiyliklarga ega. Anketa savollar yozma tarzda berilsa, intervgpyuda og'zaki savollar beriladi.

Intervgpyu respondent bilan bevosita muloqotni taqozo qiladi. Bu muloqotni qog'oz yoki magnit tasmasiga qayd etish mumkin. Intervgpyu (inglizcha-uchrashuv) usulidan sotsiologiya, psixologiya, jurnalistika, etnografiya, statistika, pedagogika kabi sohalarda foydalaniladi. Intervgpyu O'tkazilish tajribasiga ko'ra erkin standart va yarim standart ko'rinishiga ega bo'ladi. Erkin standart ilgaridan tayyorlangan savollar asosida emas, balki suhbat mazmunidan kelib chiquvchi savollar asosida qurilib, dastur yo'nalishida bir necha soat davom etish va tadqiqot muammosini aniqlash, razvedka vazifasini bajarish maqsadida foydalanishi ko'zda tutadi.

Erkin standart intervgpyu:

a) qisqa muddatli

b) uzok muddatli intervgpyu turlariga bo'linadi.

Yarim standart intervgpyu ham O'z navbatida bir necha turga bo'linadi:

a) guruhiy panel (qayta-qayta intervgpyu).

b) klinik intervgpyu.

v) fokuslashtirilgan intervgpyu.

Intervgpyu usulining O'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat.

1.U yoki bu sohadagi intervgpyu.

2.Intervgpyu vaqtida ruhiy, hissiy holatlarni nazorat qilish mumkin.

3.Savollar vaqtida shaxsning mashuliyati his etib beriladi.

Kuzatish turli maqsadlarda turli shaklda turli qamrovda turli vositalar yordamida olib boriladi. Kuzatish tashqi dunyo voqeligini va ichki olam haqiqatini bilishning keng tarqalgan usullaridan biridir. Turli yoshdagilar faoliyatini kuzatishda ularning pedagogik tamonlariga va psixologik jihatlariga ehtibor berish kerak bo'ladi.

Kuzatish usulining quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1) Bevosita kuzatish.2) Bilvosita kuzatish. 3) Universal kuzatish. 4) O'z-O'zini kuzatish. 5) Ochiq-oydin kuzatish.

6) Monografik kuzatish. 7) Tor ixtisosli kuzatish.

Sotsiologik kuzatish olib borishning shart va talablari quyidagilar:

1) kuzatish kerakli saviyada va darajada tashkil qilinishi kerak.

2) kuzatish muntazam olib borilishi kerak.

3) kuzatuvchi holis bo'lishi shart.

4) kuzatilayotgan obhekt to'g'risida mumkin qadar ko'proq ma'lumot to'plash kerak.

5) kuzatishning borishi va natijalarini batafsil qayd etib borish kerak.

«**TEST**» inglizcha so'z bo'lib tajriba, sinov tekshirish degan mahmolarni bildiradi. Test standartlashtirilgan qisqa muddatli sinovdir. Test sinalayotgan shaxsning psixofiziologiya va shaxsiy xususiyatlarini, shuningdek intellektual rivoji, qobiliyat va malakasini tekshirishda qo'llaniladigan standart mashqlar hamdir. Test birinchi marta 1884 yili Angliyada O'quvchilarning bilimlarini tekshirish maqsadida qo'llanilgan. Ingliz psixologi Galton 1883 yili testning nazariy asoslarini ishlab chikdi. Bu termini birinchi marta 1890 yili AQSH lik psixolog Kettel kiritgan. Frantsuz psixologi Binyo testologik tekshirishlar printsiplarini insonlarning oliy ruhiy funktsiyalariga ko'lladi. XX asr boshlarida test printsiplarini ishlab chiqishda olimlar ko'plab ishlar olib bordilar. Dastlabki standart pedagogik test AQSHlik psixolog Torn Dayk tomonidan tuzilgan. Testning bir qancha turlari mavjud:

1)Torents testi- shaxsning fikrlash doirasini aniqlaydi.

2)Noven testi- shaxsning mantiqiy fikrlashini tekshiradi.

3)Diferentsial-diaagnostik test- shaxsning kasbga moyilligini aniqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach tahlim tizimida test sinovlari keng qo'llanila boshlandi.1992 yili Termiz DU qoshida tashkil etilgan iqtidorli bolalar laboratoriyasi asosida 1993 yili Respublika test markazi tuzildi. Davlat Test Markazi Oliy va O'rta maxsus O'quv yurtlariga qabul qilishda foydalaniladigan test savollarini tayyorlab, imtihonlarni adolatli tarzda kechishini nazorat qilib boradi.

Testdagi savollar qiyinligi darajasiga qarab 4 tipga bo'linadi:

1.Sodda savollar-45%

2.Sal qiyin savollar-30%

3.Qiyin savollar-16%

4.O'ta qiyin savollar-9%

Test O'tkazishda eng avvalo miqdor va sifat ko'rsatkichlariga javob beradigan asosda savollar ishlab chiqish kerak.

Test natijalari kuzatish intervgpyu usullari natijalari bilan taqqoslanishi kerak.

Konkret sotsiologik tadqiqotlar deganda biz O'rganayotgan obhekt haqida yangi bilimga ega bo'lishiga ko'maklashadigan nazariy va amaliy jarayonlar tizimini tushunamiz.

Bu tadqiqotlar umumsotsiologik va maxsus sotsiologik nazariyalardan kelib chiqadigan tamoyillar, tushunchalar, ko'rsatkichlar asosida aniq ijtimoiy jarayonlarni O'lchash imkoniyatini beradi.

Konkret sotsiologik tadqiqotlar turli ko'rinishlarga ega. Tahlil nuqtai-nazaridan konkret sotsiologik tadqiqot asosan uch turga bo'linadi: dastlabki sinov (pilotaj), tasniflovchi va analitik.

Dastlabki sinov (pilotaj) tadqiqotning maqsadi boshlangich axborotni hosil qilish, barcha jarayonlarni O'tkazish va ommaviy ma'lumotlarni to'plashning tashkil qilish bo'yicha uslublarning yaroqligini tekshirish.

Sinovning asosiy maqsadi rejalangan savollar to'g'ri tuzilganmi, respondentlarga ular tushunarlimi, mo'ljallangan ma'lumot olishga erishishi mumkinmi?- kabi savollarga javob berishdir. Dastlabki sinov tadqiqot bosqichma-bosqich bajariladi.

Tasniflovchi tadqiqot tahlili izlanishning murakkabroq turi deb hisoblanadi. Uning yordamida O'rganilayotgan ijtimoiy hodisa haqida dastlabki sinov tadqiqotga nisbatan to'laroq tasavvur beradigan empirik axborot olinadi. Bunday tadqiqot odatda O'rganilayotgan obhekt xilma-xil tasniflar bilan ajralib turadigan (masalan yirik korxonaning mehnat jamoasi, bu yerda kasbi, jinsi, yoshi, ish bo'yicha har xil shaxslar ishlaydi) katta miqdorda ega bo'lgan holda O'tkaziladi. Bunday tadqiqotlar bir yoki necha konkret sotsiologik tadqiqotlarning usublari qo'llanishi mumkin.

Analitik tadqiqot sotsiologik tahlilning asosiy turi hisoblanadi. Sabab va oqibat orasidagi bog'lanishlarni izlash ushbu tadqiqotning asosiy maqsadidir. Analitik tadqiqotlarda u yoki bu ijtimoiy hodisani tarkib toptiruvchi omillar majmui O'rganiladi. Odatda ular asosiy va asosiy bo'lmagan, doimiy va vaqtinchalik, nazoratli va nazoratsizlarga bo'linadi.

Analitik tadqiqotni sinchkovlik bilan tuzilgan dastursiz va maxsus uslublarsiz O'tkazish ancha mushkul. U odatda dastlabki sinov va tasniflovchi tadqiqotlarning yakuni sifatida yuzaga keladi. Sotsiologik tadqiqotlar davomida olingn ma'lumotlar jamlangach, ular ustida hisob-kitob ishlari olib boriladi. So'rovnomadagi savollar 15 tani tashkil etib, so'rovnomalar soni 300tagacha bo'lsa hisob-kitob ishlari qO'lda bajariladi.Undan katta hajmdagi hisob kitob ishlari EHM yordamida bajariladi.Bundan ko'rinib turibdiki, sotsiologlar tadqiqot davomida matematiklar bilan yaqin hamkorlik qilishi zarur. Matematika to'plangan axborotni O'zida saqlovchi so'rovnomala to'plamini statistik ishlov berishni amalga oshiradi. Bu ishni bajarishda EHM matematika uchun texnik vosita bo'lib xizmat qiladi. Sotsiologik ma'lumotlarni zamonaviy usullarda hisoblash uchun zarur bo'lgan asosiy tushunchalar quyidagilardan iborat:

1.Matematik ishlov obhekti-so'rovnoma yahni so'rov natijasida olingan sonli ma'lumotlar to'plami.

2.Alomatlar-so'rovnomalar savollari.

3.Alomatlar qiymati-respondent tomonidan berilgan javoblar.

Hozirgi kunda sotsiologik tadqiqot ma'lumotlarini EHM yordamida qayta ishlashda chet elda ishlab chiqilgan **SpS**, **ACSESS** kabi dasturlardan foydalanilmoqda.SHu bilan birga mahalliy mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan va amalda qo'llanilayotgan maxsus mashina dasturlari ham yaxshi samara bermoqda.

Sotsiologik tadqiqot ma'lumotlariga EHM orqali ishlov berish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:



A) bu bosqichda so'rovnomalarning tO'ldirilishini tekshirish, ishlovga yaroqsiz so'rovnomalarni hisobdan chiqarish ishlari bajariladi. Respondent haqidagi ma'lumot tO'la bo'lmasa, so'rovnoma tO'ldirilgan joy, hudud haqida ma'lumot bo'lmasa, savollarga talabga mos javob berilgan bo'lmasa so'rovnoma yaroqsiz deb topiladi.

B) bu bosqichda so'rovnomalarni guruxlash va raqamlash ishlari olib boriladi. Guruxlash deganda tadqiqot O'rikazilgan hududlar-viloyatlar, tumanlar bO'yicha so'rovnomalarni tartibga solish, viloyat tuman kodlarini belgilash tushuniladi. Keyin esa har bir guruh so'rovnomalarning tartib raqamlari belgilanadi.

V) bu bosqichda so'rovnomadagi ochiq savollar javoblari kodlashtiriladi. Odatda so'rovnomada har bir savolga tartib bilan son qO'yilgan javoblar keltirilgan bo'ladi. Ana shu son javobning «kod» vazifasini bajaradi. EHMga javoblar matni emas, balki ularga mos bo'lgan sonlar kiritiladi.

G) bu bosqichda EHMda so'rovnoma ma'lumotlarini saqlash uchun ma'lumotlar bazasini tuzish va ma'lumotlarni kiritish ishlari bajariladi.

E) bu bosqichda ma'lumotlar bazasiga kiritilgan axborotlarni tekshirish va xatoliklarni to'g'rilash amalga oshiriladi.

J) bu bosqichda natijaviy jadvallar shakli ishlab chiqiladi. Bu ish kO'pchilik tomonidan yaxshi O'zlashtirilgan **WORD** tizimi orqali bajariladi.

Z) bu bosqichda EHM orqali hisobni bajarish ishi amalga oshiriladi. Bu ish dasturlar majmuasi **HISOB** dasturi va **JADVAL** dasturi yordamida bajariladi.

HISOB dasturi biror gurux kesimlar bO'yicha natijalarni hisoblab chiqadi va natijaviy ma'lumotlar to'plamini hosil qiladi. Dastur orqali ma'lumotlar bazasiga ishlov berish jarayonning eng murakkab qismidir. Savolga bitta javob belgilanadigan holda hisoblash ancha yengilroq bo'ladi. Savolga bir nechtagacha javobni belgilash kO'zda tutilgan bo'lsa, ma'lumotlar shuncha maydonda joylashadi. Bazani ishlov berishda shu maydonlarning har birini hisobga olish zarur. Dasturning vazifasi topilgan ma'lumotlar natijalarini oldingi bosqichda avvaldan tayyorlangan va jadvallar shaklida joylashgan hujjatlarni kO'chirib yozishdir. Natijaviy jadvallar tayyorlangandan so'ng tizim orqali ularni qog'ozga chop etish va boshqa qO'shimcha ishlarni amalga oshirish mumkin.

Sotsiologik tadqiqotlar davomida qO'lga kiritilgan ma'lumotlarni tahlil etish tadqiqotlar jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichning maqsadi natijalarining mahnosini tushuntirib berish, fikrlarni umumlashtirish va yagona nazariy tizimga keltirishdan iborat. Sotsiologik tadqiqotlarning natijalarini to'g'ri izohlab beruvchi qator ilmiy uslubiy yechimlar tizimi mavjuddir, ammo har bir konkret holatda bu narsa bir butun kishilar jamoasi (sotsiologlar, respondentlar, mahmuriyat) ishtirokida amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va gipotezalarning hayotiyliigi eng samarador vosita sifatida kishilarning ijtimoiy faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi. SHu sababli gipotezani sinash jarayonida tadqiqotchi kO'proq real hodisalarga tayanishi, xilma-xil ma'lumotlarni birlashtirishi, empirik materiallardan O'rganilayotgan ob'ektning zaruriy jihat va xossalarni ajartib berishga intilishi kerak. Sotsiologik tahlilning natijalari tizimlashgan va guruhlarga ajartilgan ko'rinishda ilmiy hisobotda namoyon bo'ladi. Hisobotning ilovasi sifatida jadvallar, grafiklar, so'rovnomalarni, blanklar, testlar va boshqalar keltiriladi.

Amaliy sotsiologik tadqiqotning asosiy maqsadi amaliyot tomonidan ilgari surilgan masalalarning yechimidir. SHuning uchun bunday tadqiqot hisobotida gipotezalar, tadqiqot vazifalari, O'rtacha ko'rsatkichlar tizimi, axborotlar, boshlang'ich axborotlarni yig'ish bO'yicha tadqiqot uslublari tarkibi tavsiflab beriladi.

Hisobotga qO'yiladigan asosiy talablar quyidagilar:

- hisobotda tadqiqotning predmetiga mos mantiqan barcha O'zaro bog'langan muammolar guruhlari iloji boricha chuqur va to'la aks ettirilgan bo'lishi kerak;
- bajariladigan ishlarning turkumining mantiqiy ketma-ketligi tahminlangan bo'lishi kerak;
- hisobotning har bo'limida tadrijiy bir-birini to'ldiruvchi ikki qismining O'zaro mutanosibligini tahminlash zarur;
- so'rovnomaning barcha savollari va ularga mos natijalar ilmiy mantiq talablariga binoan tahlil etilishi kerak;
- hisobot texnik jihatdan yuqori saviyada rasmiylashtirilishi va to'g'ri tuzilishi kerak.

### **Tayanch so'zlar.**

- 1.**Dastur**-sotsiologik tadqiqotning barcha qirralari aks ettirilgan hujjat.
- 2.**panelgp**-mahlum ijtimoiy muammo bo'yicha ketma-ket tadqiqot O'tkazish uslubi.
- 3.**Kogorta**- bir yil va bir oyda tuzilgan kishilar guruhi ustidan O'tkaziladigan tadqiqot.
- 4.**pilotaj**- tajriba O'tkazish uchun moslama.
- 5.**Hujjat**-moddiy material manba bo'lib, voqea va faktlar xususidagi ma'lumotlarni O'zida ifodalaydi.
- 6.**Intervgpyu**-tadqiqotchi bilan respondentning suhbat.
- 7.**Longityud**-faqat yoshlar guruhini tadqiq etuvchi usul.
- .**Gipoteza**- ilmiy tahmin, bashorat.
- 8.**Diada**- ikki kishidan iborat guruh.
- 9.**Axborotlarni kodlashtirish**- ma'lumotlarni zarur talablar asosida qayta ishlash va tahlil qilishga tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar yig'indisi.
- 10.**Alomatlar**- so'rovnomalarning savollari.
- 11.**Matematik ishlov ob'ekti** – so'rovnoma, ya'ni sonli ma'lumotlar to'plami.